In high-tech enterprises, SI also distinguishes between sensory intelligence systems. With the help of such systems it is possible to achieve decision-making, personality, individual characteristics, perception and successful operation of the firm. Sensory intelligence is a set of traits and abilities that includes a wide range of tendencies and personal skills, such as soft skills or intra, which the ANFIS system senses from a set of measured physiological changes in the human body, “identifies them” [10]. The results show that in the age of modern technology, manufacturers with improved general emotional intelligence will become successful people in the workplace and in the social environment. Thus, artificial intelligence can identify excess costs in business processes and suggest the optimal use of resources to improve productivity. AI includes intelligent agents and intelligent systems that enable organizations to perform intelligent and cognitive activities that combine business processes with tasks, enabling businesses to be innovative. Smart agents are taken as the basis for creating strong artificial intelligence, so the intelligent system is based on the features of human cognition and learning. Smart objects capture the state of the data and manage the content in the state because they can control the access or retrieval of data using methods permitted by the data object.

Conclusion

Thus, enterprises use SI systems when looking for new solutions to recurring problems in their business processes, competition, and technological development.

Thus, artificial intelligence (AI) is a system that mimics human intelligence to improve jobs, increase productivity, and drive economic growth. Intellectuals, born from the activity of artificial intelligence, have a lot of know-how necessary to increase efficiency and create new knowledge for business processes. Artificial intelligence is a smart system that allows employees to access valuable information through technology platforms.

Conclusion

Artificial intelligence is a smart system that allows employees to access valuable information through technology platforms.

Thus, enterprises use SI systems when looking for new solutions to recurring problems in their business processes, competition, and technological development. Artificial intelligence plays an increasingly important role in our lives and economies and affects our world in different ways. AI is viewed by many as a vehicle for productivity and economic growth - to improve operational efficiency and improve decision-making by analyzing large amounts of data, as well as to stimulate the creation of new products and services in the market. While artificial intelligence is believed to increase demand and create new sources of income, it can have devastating consequences for the economy and society. Thus, artificial intelligence (AI) is a system that mimics human intelligence to improve jobs, increase productivity, and drive economic growth. Intellectuals, born from the activity of artificial intelligence, have a lot of know-how necessary to increase efficiency and create new knowledge for business processes.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4996 dated February 17, 2021 “On measures to create conditions for the accelerated introduction of artificial intelligence technologies”
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-5234 “On approval of the Strategy “Digital Uzbekistan - 2030” dated October 5, 2020 and measures for its effective implementation”
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 26, 2021 “On measures to introduce a special regime for the use of artificial intelligence technologies.”
4. Horst Hanusch and Andreas Pieck Manifesto of a Comprehensive Neo-Schumpeterian Economy. Volkswirtschaftliche Discussionsreihe, No. 289 Contributed in collaboration with: University of Augsburg, Institute of Economics.
5. Horst Hanush and Andreas Pica. Principles of neo-Schumpeterian economics. Beitrag no. 278, September 2005

6. Faiz Galluy Interactive Innovation: A Neo-Schumpeterian Model. Research Seminar: "Managing Innovation and the External Context" Roskilde University, November 26-27, 1999.
7. Femi Olan and others. Artificial Intelligence and Knowledge Sharing: Factors Influencing Organizational Performance. Journal of Business Research 145 (2022) 605–615.
8. Vikram Thakru Ways: Artificial intelligence is changing field service. <https://kloudgin.com>. May 24, 2022
9. Kulmatova S., Abduzhalilova B. The impact of artificial intelligence on the economy and society. “IV Traditional International Scientific and Practical Online Conference “Action Strategy: Macroeconomic Stability, Investment Activity and Prospects for Innovative Development” May 26-27, 2021 Tashkent, Uzbekistan. 57-63 b.
10. Huidan Huang Xiaosu Wangb Sudhakar Sengank Tota Chandud. Emotional intelligence for wealth management on technological innovation of high-tech enterprises. Aggression and aggressive behavior. Available online June 8, 2021, 101633

FRAZEOLGIK BIRLIKLARNI USLUBIY JIHATDAN FARQLASH
MEZONLARI

A'zamova Gulnoza Abduxoliq qizi

SamDCHTI magistranti

Annotatsiya : Frazeologik birliklar tilning lug'at tarkibini tashkil qilguvchi, mazmunan bitta so'zga teng birliklar bo'lgani uchun ko'p yillar davomida leksikologiya tarkibida o'r ganilib kelingan. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, FB larning uslubiy farqlash alohida tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalardandir. Ushbu maqola frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan farqlash mezonlarini o'r ganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: konnotativ element, uslubiy ma'no, grammatik qurilish, ko'chma ma'no.

Аннотация: Фразеологизмы изучаются в лексикологии на протяжении многих лет, поскольку представляют собой единицы, составляющие лексический строй языка и по содержанию равные одному слову. Однако следует отметить, что методологическая дифференциация ФБ является одним из вопросов, требующих отдельного анализа. Данная статья посвящена изучению критерииев методологической дифференциации фразеологизмов.

Ключевые слова: коннотативный элемент, стилистическое значение, грамматическая конструкция, переносное значение

Annotation: Phraseological units have been studied in lexicology for many years because they are units that make up the lexical structure of a language and the content is equal to one word. However, it should be noted that the methodological differentiation of FBs is one of the issues that needs to be analyzed separately. This article is devoted to the study of the criteria for methodological differentiation of phraseological units.

Keywords: *connotative element, stylistic meaning, grammatical structure, figurative meaning.*

Frazeologik birliklarning so’zlardan asosiy farqi ular ob’yektiv reallikni, ma’lum voqealarni nomlash uchun emas, balki unga nisbattan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birliklarning asosiy qismi ma’no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik, ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti harakatini baholaydi. Shu sababli frazeologik birliklarning ma’no tarkibida ko‘pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik birlikning denotative ma’nosiga emotsiyal-ekspressiv bo’yoqdirlik yuklashi bilan e’tiborni tortadi. Shu sababli frazeologik birliklarni tahlil qilganda ularning uslubiy tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, til elementlari konnotativ ma’no bilan birga uslubiy bo’yoqdirlikka ham ega. Ular o’ziga xos „ekspressiv atmosfera” bilan o’ralgan bo’ladi. Bu holat tilshunoslikda hozirga qadar turli xil nomlanib kelmoqda. Til elementlariga ironiya, tantanavorlik, hazil-mutoyiba, ishonmaslik, shubha kabi uslubiy nozikliklarni yuklovchi hodisani nomlaganda „uslubiy bo‘yoq”, „uslubiy tonallik”, „konotatsiya “ kabi atamalardan foydalanmoqdalar. Birgina „konotatsiya “ atamasining o’zi ham tilshunoslikda har xil ta’riflanayotir. Uslubiy ma’no inson ongingin ekspresiv baholash faoliyati mahsuli bo’lib so’z va frazeologik birliklarning tushuncha ifodalash xususiyati bilan uzviy bog’liqdir. Frazeologik birliklarning uslubiy ma’nosi undagi ikki komponentdan iborat:

- a) ekspressiv baho bo‘yog‘i- bu komponent frazeologizmlarga baholash nozikliklarini yuklaydi;
- b) funksional uslub bo‘yog‘i frazeologizmlarning u yoki bu funksional uslubga xoslanganini ko’rsatadi.

Frazeologik birliklarni ekspressiv - baho bo‘yog‘i tarkibini baholash, emotsiyonallik va ekspressivlik tashkil etadi. Baholash deganda predmet yoki shaxsga nisbattan salbiy yoki ijobjiy tavsif berish tushuniladi. Frazeologik birlik

ma’nosini talqin qilganda baholash xususiyati albatta ishtirok etadi. Agar frazeologik birliklarning semantik strukturasida baholash semasi bo’lsa, o’sha iboraning struktur –grammatik qurilishidan qat’iy nazar frazeologik birlikka izoh sifat orqali beriladi yoki bu izoh tarkibida “nihoyatda”, ”juda” singari baho semasini ifodalovchi so’zlar qo’llaniladi. Masalan: se fâcher tout rouge - qattiq g‘azablanmoq; monter sur ses grands cheveux - jahli chiqmoq, g‘azablanmoq, être comme un âme en peine - g‘amgin bo'lmoq; être triste comme un bonnet de nuit - juda xafa, g‘amgin bo‘lmoq kabi sinonim birliklarda ekspressivlik turli darajada ifodalangan. Ya’ni har bir ibora o’ziga xos ekspressiv baho bo‘yog‘iga ega bo’lib, birinchi iborada salbiylikni ifodalovchi sema nisbattan yorqinroq. Frazeologik birliklarning emotSIONalligi ularning turli xil his-tuyg’ulari, shaxs-predmetlarga nisbattan sub’yektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog’liqidir. FB larning emotSIONalligi bir vaqtning o’zida ikki ma’noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi . Darhaqiqat, frazeologik birliklar qo’rquv, shodlik, azoblanish, hayrat, taajub kabi emotSIONal xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, "avoir mal à zéro" , " faire un long nez" , "faire grise mine à " , " avoir un figure de croque-mort" kabi frazeologik birliklar dardu alam, xafagarchilik emotSIONal bo‘yog‘iga ega bo’lsa, "être aux anges" , "être au septième ciel", "être gai comme un pinson", iboralari quvonch, sevinch emotSIONal bo‘yog‘iga ega.

Frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan farqlashning o’ziga xos mezonlari mavjud bo’lib, bularni sanab o’tish frazeologik birliklarni uslubiy xususiyatlarini yanada kengroq ochib berishimizga va ularning semantik o’ziga xosliklarini yorqinroq ifodalashimizga imkon beradi.

1. Etimologik mezon deyilganda FBlarning genetik xususiyatlari, ularning kelib chiqishi, dastlabki qo’llanilish doirasi, adabiy tillar tarkibiga kirib kelish yo’llari, paydo bo’lgan davri kabilar tushuniladi. Bugungi kunda so’zlashuv uslubiga xos deb tasnif qilinayotgan ko’pgina frazeologik birliklarning paydo bo’lish manbai so’zlashuv nutqi, xalq og‘zaki ijodi asarlari sanaladi. Ko’pincha bunday

frazeologizmlar hayotiy-so‘zlashuv xarakteridagi erkin birikmalarining ustama ko’chma ma’noga ega bo’lishi, metaforizatsiya natijasida paydo bo’ladi.

2. Ichki formaning obrazliligi mezoni. Frazeologik birliklarning ichki formasi deb uning asosida yotgan obraz, frazeologik birlikning ma’nosiga doir bo’lgan obrazli tassavvur tushuniladi

3. Semantik mezon. FB larning funksional uslubiy jihatdan xoslanishi uning ma’nosiga ham bog’liq. FBlarni qo’llanilish darajasiga ko’ra uch guruhga ajratish mumkin: arxaik FBlar, hozirgi tilda mavjud keng iste’molda bo’lgan FBlar, ijodiy o’zgargan FB lar.

4. Ohangdoshlik mezoni. FB lar komponentlarining o’zaro munosabatida alliteratsiya, ritm, qofiya elementlari ham ishtirok etadi.

5. Komponent mezon. Bu mezonni boshqacha qilib FB lardagi ayrim komponentlarning funksional uslubiy xoslanishi, deb atash mumkin. Ba’zi FB lar komponentlari alohida olinganda ma’lum bir ma’no kasb etmaydi. Ularni ibora tarkibidan sug‘urib alohida qo’llash imkoniyatiga ega emasmiz. Bu komponentlar o’sha frazeologik birliklarning kitobiy uslublarga xoslanishini ta’kidlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, frazeologik birlikning ekspressiv baho bo’yog’i uning uslubiy xoslanganligi bilan, har doim ham sabab-oqibat munosabatida bo’lavermaydi, lekin bu ham ma’lum darajada frazeologizmlarning uslubiy xoslanishiga xizmat qiladi. FBlarning funksional –uslubiy tarmoqlanishini belgilashda yuqorida berilgan barcha mezonlar ob’yektiv ravishda hisobga olingandagina yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Байрамова Л.К. Фразеология и перевод/ Фразеология и синтаксис. – Казань.1982.
2. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. I қисм.-Тошкент: Наврўз, 1997.

3. Бушуй Т.А. Фразеосистемность в контрастивном лексическом словаре // Вестник Каракалпакского Отделения Академии Наук Республики Узбекистан. – Нукус, 2001.
4. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978.
5. Реимов Б.Х. Фразеологические единицы, выражающие эмоциональное состояние человека.: Автореф. дисс. ... канд-та филол. наук. - Ташкент: УзГУМЯ, 2005.

**AJDODLARIMIZNING SAN’AT VA MADANIYATGA BO’LGAN
QARASHLARI XUSUSIDA**

Abdulboqiyeva Moxichehra

Namangan davlat universiteti Musiqa ta’limi va madaniyat fakulteti

Musiqa ta’limi kafedrasи talabasi

Annotatsiya: O’zbek milliy san’atini yuksalishida mustaqillikdan so’ng yaratilgan qo’shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yuqori malakali, zamonaviy tafakkur tarziga ega bo’lgan bilimli mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida na’munali ishlar amalga oshirildi.

Kalit so’zlar: milliy madaniyat, san’at, an’anaviy qo’shiqchilik, nota, meros.

Xalqimiz azaldan mehnatkashligi, bir-biriga sodiqligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Inson hayotda yashar ekan, uning har tomonlama yuksalishi uchun ajdodlarining qay darajada bo’lganligiga bog’liqdir. Bizning buyuk ajdodlarimiz o’zining serviqor g’oyalari, ibratli va hikmatli nasihatlari, azaliy axloq-odobi hamda eng muhimmi o’ta bilimdonligi bilan farqlidir.

Tarixiy manbalarda e’tirof etilgan tosh devorlaridagi musiqani ifodalovchi rasmlar, miniatyurlar ko’rinishidagi shoxlar saroyidagi bazmlarda mashshoqlarning tasvirlari, qo’shiq kuylayotgan xofizlarning ko’rinishlari an’anaviy qo’shiqchilik san’atini asrlar osha sayqallanib bizgacha yetib kelganligidan dalolat beradi. O’sha davrning buyuk olimi Mahmud O’oshg’ariyning “Devonu lug’otut- turk” asarida qadimiylar turkiy xalqlarining xalq og’zaki ijodi va an’anaviy qo’shiqlari, bayram va marosimlardagi mehnat qo’shiqlari, qahramonlik qo’shiqlar xaqida namunalar berilgan bo’lib, o’sha zamonda qo’shiqchilik janri rivoj topganidan dalolat beradi.

X-XII asr musiqa va ashula san’atiga doir bayon etilgan noyob ma’lumotlar O’zbek musiqa san’atining ildizlari juda qadimiyligidan dalolatdir. Tarixiy

adabiyotlardagi ma'lumotlar va arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradi. Eramizdan avvalgi IV asrda (qariyib 2400 yil muqaddam) Iskandar Zulhar nayn O'rta Osiyoni zabit etganida yunonlar ajdodlarimiz bo'lmish sug'diyilar, baktriyaliklar va xorazimiylarlarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar. Ularning mashshoq xonandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiqlari va kuylarini, xushnavo turli cholg'u asboblarini o'rganib, o'zlarining musiqa madaniyatlarini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u asboblarimiz yevropa xalqlari amaliyotida qo'llanib, yangi ko'rinish (shakl) va nomlanishda tarqalgan (ud – motiya, dutor, gutor – gitara, arg'anun – arfa va boshqalar).

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida ham uchraydi. X asrning buyuk Qomusiy olimi musiqashunoslik fanining kashfiyotchisi Abu Nasr al-Forobi bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan asarlari ham keng kashf etilgan.

San'atga, madaniyatga befarq qaragan, ularni pisand qilmagan jamiyat va mamlakat oxir-oqibatda inqirozga uchraydi. Bu tariximizda bir necha bor o'z isbotini topgan. Milliy madaniyat va san'at har qanday vaziyatda ham jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan sanalgan. Xalqi ma'naviy jihatdan qashshoq davlat hech qachon porloq istiqbolga ega bo'lmaydi. Musiqa va san'atning rivojlanishida, taraqqiy etishida buyuk allomalarining yuksak iste'dodlaridan foydalanish o'rinnlidir.

An'anaviy qo'shiqchilik san'atning paydo bo'lishida, tarixning burilish davri keng ahamiyatga ega. Sharqda xususan Movarounnahr va Xurosonda, Markaziy Osiyoda ma'naviyat va ma'rifat masalalariga e'tibor hamisha yuksak bo'lib kelgan.

Mashhur mutafakkir Bahouddin Naqshband muhtoj insonga yordam ko'rsatish ham savobli ish sanalishini, vatanparvarlikka undashini juda ko'p ta'kidlaydi. Xatto kerak bo'lsa namozni to'xtatib yordam bermoq zarurligini aytib o'tganlar. Shu sababli insonparvarlik tuyg'usi vujudga kelgan va ko'plab qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning quyidagi falsafiy misrasini keltirish mumkin:

- Kimki bir ko'ngli siniqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim ka’ba vayron bo’lsa obod aylagay.

Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ham Hindistondek yirik mamlakatda buyuk imperiya tashkil etsada har doimo o’z Vatanini sog’ingan, unga bag’ishlab g’azallar yozgan. Shuning uchun biz o’z talabalarimizga milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o’rganish, pand-nasihatlariga quloq tutish vazifalarini qayta-qayta ta’kidlashimiz zarur.

Qadimgi ajdodlarimiz va buyuk mutafakkirlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini zamonaviy til bilan aytadigan bo’lsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Kishi qalbida haromdan hazar, noplaklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyonlar mayjud bo’lishini o’z qo’shiqlari orqali qoldirganlar. Ular qoldirgan bebafo boylik hisoblangan ohang va honishlardan musiqa madaniyati darslarida foydalanish, ular xaqidagi ma’lumotlarni o’quvchi yoshlar ongiga singdirib borish zarur. Bu Davlat ta’lim standartida ham alohida ko’rsatib o’tilgan.

An’anaviy qo’shiqchilik san’atiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o’lkamizda bu muqaddas san’atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo’lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G’iyos Abdulg’ani, Hoji Abdulaliz Abdurasulov, Domla Halim, Mulla To’ychi Toshmuxamedov, Matyovub Harratov kabi zabardast usta xofizlar shular jumlasidandir.

O’tmishda nota rivojlanmagan bo’lib, Ovro’po atamalari o’rnida xofizlarimiz ovoz maromiga qarab, “Gulligii”, “Binnigi”, “Shikami”, “Xonaqofiy” deb atalmish nafas olish chihar ish va ijro yo’llaridan foydalanishgan. O’sha davr Xofizlarining ovozlari o’ktam, baquvvat bo’lganligi sababli, ular Shikami yo’lida ijro etganlar. Ustoz xofizlar o’z ijro mahoratlarini oshirish uchun aks-sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashg’ulot o’tkazganlar, shu tariqa o’z ovozlariga sayqal bergenlar.

Madaniy va ma’naviy merosimizning ulkan qismi, tarixda uyg’onish davri deb nom olgan davrning mahsulidir. O’rta Osiyoda XIV asr o’rtalaridan boshlab,

XV asrga qadar ilm-fan, madaniyat, san'at rivojlandi. Ulkan olimlar, shoirlar, san'atkorlar yetishib chiqdi va ular ham jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shdilar. O'zbek xalqining ma'naviy hayotida yuqorida ko'rsatib o'tgan milliy madaniyat sarchashmalaridan tashqari, teatrchilik elementlari yil fasllarida o'tkaziladigan turli marosimlarga bag'ishlangan: «Navro'z», «Ramazon va Qurbon Hayitlari»da, «Gul sayli» va boshqa bayramlarda va sayllarda turli tuman tearrlashtirilgan tamoshalar mavjud edi. Bu sayl va tomoshalarda sho'x qo'shiq, lapar, ommaviy raqslar avj oladi. Eng hurmatli xofizlar kuchli va katta ashulalar aytib, xalqning olqishlariga sazovor bo'lar edilar. Bu an'ana hozirga qadar davom etib kelmoqda. Biz yuqorida milliy madaniyatimizni qanday tarkib topganligiga to'xtaldik. Endi esa shaxsda, ya'ni har bir insonda mavjud bo'ladigan madaniyat haqida so'z yuritamiz. Har bir odam, xulq-atvori, hatti-harakati, yurish-turishi, o'zini tutish demak, madaniy saviya jihatidan el orasida yo yaxshi, yo yomon nom qoldiradi. Hurmat bilan tilga olinishiga ham, nafrat bilan yuz o'girilishiga ham odamning o'zi sababchi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, an'anaviy qo'shiqchilik yalla, lapar, o'lan ijrochiligi rivojiga ayol xofizlarning qo'shgan hissalari beqiyos bo'lib, ular ishtirokida o'tadigan marosimlarda ayol xofialar ishtirok etishgan. Shu tariqa an'anaviy qo'shiqchilik sayqal topib boravergan. Galdagi vazifamiz tariximizni, buyuk allomalarimiz qoldirgan qadimiy musiqa madaniyatimizni ilmiy jihatdan chuqur o'rganib, kelgusi avlodga yetkazishdan iboratdir.

O'zbek milliy san'atini yuksalishida mustaqillikdan so'ng yaratilgan qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yuqori malakali, zamonaviy tafakkur tarziga ega bo'lган bilimli mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida na'munali ishlar amalga oshirildi.

Agar inson o'z milliy zamini hamda ildizlarini chuqur bilmas ekan va undan g'ururlana olmas ekan, undan tom ma'nodagi vatanparvar chiqishi qiyin.

Yoshlar tarbiyasi va musiqa san'ati inson uchun muhim ahamiyat kasb etib bugungi kunda rivojlandi, uning qirralari jilolandı. Go'zal milliy ohanglar, ular

borasida milliy an'analar tiklandi. Ulug' musiqashunos olimlarning ishlari qaytadan ko'rib chiqildi. San'atimiz darg'alari davlatimiz tomonidan yuksak mukofotlar bilan taqdirlandilar.

Musiqa va yoshlar tarbiyasining rivojida o'zbek musiqa san'atining o'rni beqiyos bo'lib, ushbu yo'nalishga hissa qo'shayotgan mutaxassislar qalbida milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topdi. Yoshlar tarbiyasi kabi mas'uliyatli vazifa ota-onadan keyin ta'lim fidoyilarining zimmasiga tushadi. Demak, tarbiya degan tushunchalar, to'g'rirog'i tarbiya bilan shug'ullanish jamoatchilik ishiga aylandi. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan har bir pedagog tarbiyani ta'lim bilan birga barobar holda olib borish yo'lida zamonaviy usuldag'i dars samaradorligiga erishishga harakat qilmoqdalar.

Musiqa san'ati insonni tarbiyalaydi, uni ezhulikka, kishilarni yaxshilik etishga undaydi. Musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. Biroq bugungi kunda yoshlarning musiqaga qiziqishlari biroz muammolar keltirib chiqar-moqda. Ko'plab yoshlar xorijiy musiqalarga taqlid qilgani holda o'zlarining ko'rinishlariga ham g'arbona tus bermoqdalar. Milliy kuy-qo'shiqlarimizni unutib qo'yishayotgandek nazarimizda... chindan ham biror bir yoshlarni tanovvor, munojot yoki maqom qo'shiqlaridan hirgoyi etishlariga duch kelmaymiz. Xalqimiz orasida tanilib borayotgan ayrim "yosh estrada xonandalari"ning qo'shiqlari ham bachkana ko'rinishda tinglovchiga taqdim etilmoqda. Birgina so'zning bir necha bor takrorlanishi tinglovchiga manzur bo'lmaydi, va holanki ularning yangrayotgan musiqalari xorij musiqalaridan o'g'irlangan. Bunday shovqinli musiqalarga berilgan yoshlar o'zlarini go'yo ohang yo'nalashiga yo'rg'alatadilar, harakatlari ham bizning mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan ko'rinishda bo'lmoqda. Aynan shunday xolatlarni kelib chiqmasligi uchun musiqa madaniyati darslarida milliy kuylarni tinglash, xalq qo'shiqlaridan o'rgatib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagи “Umumiy o’rta ta’lim to’g’risida nizomni tasdiqlash to’g’risida”gi №140-sonli Qarori.
2. M. A. Nurmatova «Musiqa o’qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuar» fani bo’yicha ma’ruzalar matni -Ur., 2006-
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. –T.: “O’zbekiston”. – 2017.– .
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – .
5. Yunusov R. O’zbek xalq musiqa ijodi. (ilmiy – usluby tavsilar) II qism. - T. : “Sharq”. 2000 -

**TIME AND SETTING IN THE NOVEL “CLOUD ATLAS” BY DAVID
MITCHELL**

Ergashov Jamshid Shoniyazovich

Supervisor: Nasrullaeva M.S.

Annotation: David Mitchell’s Cloud Atlas (2004) presents its readers with a “borderless world.” This borderlessness concerns space and time, with complex and interweaving spatiotemporal planes. In this fictional world, the subject will serve as an entity that brings together disparate spatialities and temporalities through an intricate symbolic web that connects the subject’s body to the world it inhabits. Numerous versions of past, present, and future run in parallel, the actual and the virtual coexist, and the text folds upon itself. The novel operates a constant state of liminality, a state that will be embodied by the subject. Seemingly in a paradoxical way, the multiple liminal states identifiable in the novel convey the ultimate sense of borderlessness.

Keywords: subject, time, borderlessness, liminality, concertina, birthmark

INTRODUCTION

David Mitchell’s Cloud Atlas (2004) operates with a constant state of liminality, which seemingly in a paradoxical way conveys the ultimate sense of borderlessness. It is exactly the work’s heterogeneity, its jumps through time and space, its interrupted chapter structure that lend it a unity and coherence which erases both geographical and temporal borders. The novel spans through several centuries (starting from the 18th to the 22nd century, and a post-apocalyptic world), guides the readers to disparate parts of the planet (either through jumps or through the

haracters’ strolls), and creates a fictional world that thwarts any considerations of a clear beginning and an end².

The current enterprise proposes to outline the way through which the subject becomes the central entity in Mitchell’s novel, one that brings together multiple spatialities and temporalities. The subject accomplishes this, paradoxically, through never being centralized: the entire novel rejects the idea of a single focus through its numerous characters, with no one protagonist, through its structure, through the different temporal and spatial scenes it chooses for the six disparate (and interrupted) chapters. There is no linear narrative, no true beginning and no end, the apocalyptic moment from the book’s centre is resolved by a counter-movement in time. Nevertheless, the subject, through the multiple selves comprising it, becomes the titular cloud atlas: a means through which the interconnections can be charted. The selves will show rhizomic connections through an intricate symbolic web, one that connects their bodies, spanning time and space, and creates a link through the comet-shaped birthmark.

MATERIALS AND METHODS

One model of time: an infinite matryoshka doll of painted moments, each “shell” (the present) encased inside a nest of “shells” (previous presents) I call the actual past but which we perceive as the virtual past. The doll of “now” likewise encases a nest of presents yet to be, which I call the actual future but which we perceive as the virtual future³.

RESULTS AND DISCUSSION

In Cloud Atlas, everything is interconnected, and thus the novel, through its intricate structure, reflects on the multitude of temporalities and spatialities. Past, present, and future, with both their virtual and actual manifestations, continuously

² Bayer, Gerd. 2015. “Perpetual Apocalypses: David Mitchell’s Cloud Atlas and the Absence of Time.” *Critique: Studies in Contemporary Fiction* vol. 56, no. 4: 345–354.

³ De Cristofaro, Diletta. 2018. “‘Time, No Arrow, No Boomerang, but a Concertina’: Cloud Atlas and the Anti-Apocalyptic Critical Temporalities of the Contemporary Post-Apocalyptic Novel.” *Critique: Studies in Contemporary Fiction* vol. 59, no. 2: 243–257.

invade each other's planes, and they comprise a distinct way of understanding the passing of time: they create a fluidity that allows conflicting conceptions of time to exist side by side, gradually revealing the concept of time itself to be a quasi-protagonist to the novel.

Through Timothy Cavendish's story, one can easily follow the stages of different time conceptions as they gradually gain focus in the novel. For instance, the cyclical understanding of time appears to be proposed as a solution to linear time, and hence to history itself. Nevertheless, in “The Ghastly Ordeal of Timothy Cavendish,” one can find a rather ironic take on cyclicity. When Cavendish arrives at Aurora House (a nursing home he believes to be a hotel), he is certain that “[i]n the morning life would begin afresh, afresh, afresh. This time round I would do everything right” (Mitchell 2004, 175). But, to use Heather J. Hicks's words, “[i]n a parody of rebirth, when Cavendish awakes, he discovers that he will now be treated as a helpless baby,” and his “body becomes a palimpsest of linear and cyclical narratives, both of which can be deployed by the institutional apparatus of the nursing home to deny him agency and to strip his life of meaning”⁴.

Consequently, both linearity and cyclicity are surpassed, and a novel understanding of time is required. For this purpose, I will borrow Fiona McCulloch's term of “space-time compression” (2012, 152) in order to capture time's movement inside the story. Cavendish's story shows how both approaches to time prove deficient, when, upon entering Aurora House, he remarks: “My watch was stuck in the middle of last night” (Mitchell 2004, 171). The measuring of time itself is doomed to failure inside this bubble, and Cavendish realizes: “I was stuck in Aurora House all right. A clock with no hands” (Mitchell 2004, 372), words through which he re-enforces the metaphor of the clock as representative of a new understanding of time.

⁴ Hicks, Heather J. 2016. “‘This Time Round:’ David Mitchell’s Cloud Atlas and the Apocalyptic Problem of Historicism.” In *The Post-Apocalyptic Novel in the Twenty-First Century. Modernity beyond Salvage*, 55–76. New York: Palgrave Macmillan.

Cavendish, who starts off from the remark that “Time’s Arrow became Time’s Boomerang” (Mitchell 2004, 149), after a stroke suffered in a nursing home, revises his theory, claiming: “Time, no arrow, no boomerang, but a concertina” (Mitchell 2004, 369). With both the arrow and the boomerang proving deficient, Cavendish’s imagery of the concertina starts to fascinate some of the critics (O’Donnell 2015, 95; De Cristofaro 2018, 247).

CONCLUSION

Despite signs of a cyclical conception of time working as a determining mechanism, it is more accurate to build our reading of the novel around the concept of the concertina. This musical instrument opens up the fictional space: it enables the text to juggle several spatiotemporal planes, so much so that the omnipresent comet-shaped birthmark (meant to symbolize a sort of transcendence) can appear on two separate characters with crossing timelines and, going one step further, characters inhabiting different fictional worlds. Furthermore, the concertina gradually becomes a symbol of music and, on a more encompassing level: art itself. Starting from musical compositions as “Eternal Recurrence” (by Vyvyan Ayrs) and, more importantly, Frobisher’s Cloud Atlas Sextet, music not only reflects on the novel, but it enriches it, complements it, and finally soothes it. With the unavoidable ephemerality, there is also the promise of something surviving: in the music, in the birthmark, in the self.

REFERENCES

1. Bayer, Gerd. 2015. “Perpetual Apocalypses: David Mitchell’s Cloud Atlas and the Absence of Time.” *Critique: Studies in Contemporary Fiction* vol. 56, no. 4: 345–354.
2. De Cristofaro, Diletta. 2018. “‘Time, No Arrow, No Boomerang, but a Concertina:’ Cloud Atlas and the Anti-Apocalyptic Critical Temporalities of the Contemporary Post-Apocalyptic Novel.” *Critique: Studies in Contemporary Fiction* vol. 59, no. 2: 243–257.

3. Hicks, Heather J. 2016. “‘This Time Round:’ David Mitchell’s Cloud Atlas and the Apocalyptic Problem of Historicism.” In *The Post-Apocalyptic Novel in the Twenty-First Century. Modernity beyond Salvage*, 55–76. New York: Palgrave Macmillan.
4. Mitchell, David. 2004. *Cloud Atlas*. London: Sceptre.2007. “‘Cloud Atlas – David Mitchell.’ Interview by James Naughtie.” Book Club. BBC Radio 3 June. <https://www.bbc.co.uk/programmes/b007mdcg> (Last accessed 6 August 2018).

**SO’Z TURKUMLARI - BOSHLANG’ICH SINF ONA TILI TA’LIMINING
ASOSI**

Qumriniso Xolmirzayeva Abdullayevna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

56 -maktab boshlangi'ch ta'lim o'qituvchisi

+998936620640

Annotatsiya: - O’quvchilar o’rganish darajasini diagnostikalash. Bilimlardagi yetishmovchiliklarni oldini olish. Aniqlangan yetishmovchiliklarni to’ldirish uchun maxsus topshiriqlar ishlab chiqish. Maxsus topshiriqlarni bajarish. Soatlarni belgilash. Yakuni diagnostik tahlil qilish.

Kalit so’zlar: leksik ma’noni (nimani ifodalashi ya’ni predmet, harakat, holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma’nolari); morforlogik (sonning turli formalar sistemasi); sintaktik (turli morforlogik formalarning sintaktik funktsiyasi bajarilishi

«Biz yosh avlodni mustaqil bilim ola bilishga o`rgatishimiz lozim. Bu narsa bizning umumta`lim maktablari hal qilishi zarur bo`lgan eng muhim masalalardan biridir». O`quvchilarni mustaqil bilim olishga tayyorlash ishlari boshlang`ich sinflardan boshlanadi. Shuning uchun ham dasturlarda bu masalaga alohida e`tibor berilgan. Har bir boshlang`ich sind o’qituvchisi dastlab o`quvchida o’z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg’otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to’g’ri tashkil qilishga o’rgatib borishi lozim bo’ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyani muntazam tahlil qilib borish loyihalashtirish vositalarining eng zarurini tanlash metodlarini maqsadga muvofiqligini aniqlash bilish (ta’lim metodini) olinishi zarur bo’lgan natijani oldindan tahlil qilish (maqsadlarini amalga oshirishda), ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlash kabi tamoyillariga asoslangan holda va ilg’or pedagogik

texnologiyalarga va ta’limda joriy qilish, ayniqsa, horijiy davlatlarda pedagogik texnologiyalar tajribalaridan foydalangan holda o’zining sistemalashtirilgan ta’lim jarayonining yangi pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotga qo’llash uchun quyidagi tadbirlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta’lim jarayoni ishtirokchilar o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida o’quv mehnati ish rejasini tuzar ekan, ushbu reja o’z ifodasini topmog’i lozim.

Ma’lumki, o’qituvchilarimiz tuzayotgan o’quv rejalarida dars mavzularini soatma-soat taqsimotini belgilaydi. Ushbu reja asosida o’qituvchi darslarni o’taveradi. Hamda qaysi darsda qanday o’quv, bilim faoliyati amalga oshirilishidan o’quvchilar mutlaqo xabarsiz bo’ladilar.O’quvchi uchun har bir dars odatdagi darsga aylanib qoladi. Natijada u darsning passiv ishtirokchisi bo’ladi. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari bog’liq bo’lgan o’quv mehnatining o’qituvchi o’quvchi o’rtasida izchil rejulashtirilgan taqsimoti o’qituvchidan.

2. Fanning ichki bog’lanishi va fanlararo bog’lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish.

Ma’lumki, har bir o’rganilayotgan kichik va yirik o’quv birliklari oldin o’rganilganlarga tayanadi. Masalan, ona tili o’rganishda o’quvchilar so’z turkumlarini o’rganadilar. Fanlararo bog’lanishda ushbu holatlarni ko’rish mumkin. Ona tili bilan matematika gumanitar fanlar va boshqalar; ikkinchidan, o’quvchilarning tayyorlik darajalarini bilish ham muhim. Keltirilgan fikr-mulohazalarimizdan juda muhim xulosalar olish mumkin, ya’ni, o’qitishning yangi bo’lim, bobni o’rganishga olib kirishga undadi, mavjud bilimlarga yangi bobni, bo’limini o’rganishga yetarli bo’lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina bilimlarni o’rganishning navbatdagi bosqichiga o’tish lozim.

3. O’quv birliklarni (mezonlarini) bildirish.

O’quv birliklari o’quvchi o’rganishi lozim bo’lgan tushunchalar, tavsiyalar, qoidalar, qonunlar, hodisalar va voqealardan iborat bo’lib, ular orasidagi mantiqiy bog’lanishning ta’minlanishi shu bob yoki bo’limni

o’zlashtirishga olib keladi. O’qituvchi bob bo’lim uchun ajratilgan soatlarda o’quvchilar o’rganishi lozim bo’lgan mezonlar hisoblanib, o’quvchi bilimini baholashni chegaraviy qiymati o’lchanadi. O’qituvchi bu paytda sinfga nisbatan o’rtacha baho ishlatmaydi balki aniq o’lchamlarga asoslangan holda ish olib boradi. O’quv rejasini tuzishda o’qituvchi o’quvchilar bilishi lozim bo’lgan o’quv birliklarini bo’limlar, boblar, choraklar bo’yicha aniqlaydi va o’quvchilarga topshiriq sifatida bo’limning o’rganishdan oldin vazifa qilib beradi. Berilgan topshiriqlar o’quvchilarning o’zlashtirish reytingini aniqlashda nazorat topshirig’ini o’tkaziladi.

4. Diagnostik tahlil bilimdagi notekisliklarni anglash ularni to’ldirib va navbatdagi o’zlashtirish bosqichiga ko’rsatish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi.

- O’quvchilar o’rganish darajasini diagnostikalash.
- Bilimlardagi yetishmovchiliklarni oldini olish.
- Aniqlangan yetishmovchiliklarni to’ldirish uchun maxsus topshiriqlar ishlab chiqish.
- Maxsus topshiriqlarni bajarish.
- Soatlarni belgilash.
- Yakuni diagnostik tahlil qilish.

Diagnostik ta’lim texnologiyalarini navbatdagi bosqichi bo’lib, uning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Asosiy o’zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir o’quvchining bilim darajasini aniqlash rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yo’li bilan ta’lim jarayonining natijasi kafolatlanganligini ta’minlaydi. Test so’rog’i natijalarini diagnostik tahlil qilish ikki muhim vazifani hal qiladi.

1. Qaysi o’quvchi, qaysi birliklarda qiynaladi.
2. O’quvchilar qaysi bilimlarni kengaytirishi lozimligingi aniqlaydi.

5. Tuzatish kiritish. Bo’lim bobning o’zlashtirish darajasining tahlil natijasi 50 dan kam ko’rsatgichni bersa, o’qituvchi ta’lim jarayonini borishda tuzatish kiritish lozim.

Tuzatish kiritishda quyidagilar bajariladi:

- Qayta o’rganish lozim bobdan mavzularni o’rgatish metodikasini ishlab chiqish.

- O’quvchilar o’zlashtirishi qiyin bo’lgan mavzularni aniqlash. (diagnostik tahlil asosida).

- O’quv rejasiga tuzatish, kiritish soatini belgilash.

- Zarur hollarda orqaga qaytishni rejaliashtirish.

6. Qayta to’ldirish (nuqsonlarni yo’qotish), qayta tuzatish kiritishlardan (korrektsiya) maqsad olingan bilimlardagi kamchiliklarni bataraf etishdan iborat.

Kamchiliklarni bartaraf etish to’ldirish asosida amalga oshiriladi.

7. Kuzatishi lozim bo’lgan natijani olish. Bu element yangi pedagogik texnologiyalarning markaziy g’oyasi hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiya ta’lim jarayonini natijasi kafolatli bo’lishini talab qilar ekan, jarayon borishining ko’zda tutilgan maqsadni amalga oshirishi va natijali bo’lishining rejaliashtirishni o’qituvchi oldiga vazifa qilib qo’yadi.

So’z turkumlari ustida ishslash uslubining lingivistik asosi so’zlarning texnikgrammatik, morforlogik va sintaktik belgilariga ko’ra turli guruhlarga ajratilishi-so’z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So’zlarning leksik grammatik turkumlariga ajaratish uch belgiga:

- leksik ma’noni (nimani ifodalashi ya’ni predmet, harakat, holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma’nolari);

- morforlogik (sonning turli formalar sistemasi);

- sintaktik (turli morforlogik formalarning sintaktik funktsiyasi bajarilishi) belgilariga asoslanadi. Demak, so’z turkumlari ustida ishslash o’quvchilarning muayyan guruhdagi so’zlarning umumlashtirilgan ma’nolarini kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar so'z turkumlari (ot, sifat, son, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksik-grammatik qirra alohida o'rnatiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va bu bilan shakllantiradigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quchilari ot, sifat, son, fe'lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

1. So'z nimani bildirishi (predmet, predmet belgisi, predmet sanog'i, va tartibi, perdmek harakati yoki holati.)
2. Qanday so'roqlarga javob bo'lishi.
3. O'zgarish, o'zgarmasligi, qanday doimiy kategoriyalari mavjudligi.
4. Gapda asosan qanday bo'lak vazifasida kelishi. O'quvchilar mana shu o'rgangan belgilari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydilar.

O'quvchilar nimani o'rganganlariga qarab har bir so'z turkumini grammatik belgilari haqidagi bilimlarini asta-sekin kengayib boradi.

Dasturga ko'ra 1-sinfda so'zlar javob bo'ladigan morfologik so'roqlariga qarab klassifikatsiya qilinadi.

2-sinfda “so'z turkumi” tushunchasi shakllantiriladi. O'quvchilar har bir so'z turkumiga xos ayrim belgilari (so'z turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, ot, sifat, son va fe'lning gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi. 3-4-sinfda so'z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi.

O'quvchilar otlarning egalik va kelishiklar bilan o'zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasini kelishik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishi, fe'llarda shaxs-son va zamonni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. 2003 yil . Toshkent.
2. Abdullaeva G., Nazarov K., Yuldasheva Sh. Savod o'rgatish metodikasi. “O'qituvchi” nashriyoti 2000 yil.
3. Abdullajonova M. Boshlang`ich ta`lim o`quvchilarining o`zlashtira olmaslik sabablari // Xalq ta`limi, 2002.- № 6.- B. 51-53.

**O'QUVCHILAR ONGIDA "FAZOVIY FIGURALAR" TUSHUNCHASINI
SHAKLLANTIRISH.**

Komiljonova Ro'zaxon Yaqubboy qizi

*Xorazm viloyati Yangiariq tumani 29-son umumiy o'rta ta'lismaktabi
boshlang'ich ta'lismaktabi o'qituvchisi*

Madaminiva Sarvinoz Nabi qizi.

*Xorazm viloyati Yangiariq tumani 29-son umumiy o'rta ta'lismaktabi
boshlang'ich ta'lismaktabi o'qituvchisi
Olimova Nigora Nuraddinovna*

*Xorazm viloyati Yangiariq tumani 29 -sonli umumiy òrta ta'lismaktabining
boshlang'ich fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'quvchilar ongida "Fazoviy figuralar" tushunchasini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan geometrik materiallar ustida ishslashning samarali usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: geometrik figura, uchburchak, to'rtburchak, kvadrat, fikrlash, matematik ta'lismaktabi.

Maktablarning boshlang'ach sinflarida geometrik figuralar haqidagi tushunchalar sistemasi va uni o'rganish metodlarga doir masalalarni yechish uchun izlanishga to'g'ri keladi. So'nggi vaqtarda maktablarda matematik ta'lismaktabining ko'tarish, o'qitishni turmush bilan bog'lash hozirgi kun talablaridan biridir. Ana shu talablarga ko'ra geometriyaning boshlang'ich sinflarda o'qitishning hozirgi holati ko'proq izlanishga olib keladi. [1]

“Boshlang'ich sinflarda geometrik material ustidan ishslashdan asosiy maqsad bolalarda to'g'ri chiziq, kesma, burchaklar, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat kub, parallelepipedning esda qoladigan aniq obrazlarini hosil qilish, ba'zi bir figuralarning xossalalarini ko'rib chiqib, bu bilimlardan uzunliklar, yuzalar va

hajmlarni, o'lchash sohasida o'quvchilarni amaliy malakalar bilan qurollantirish kerak”. Matematika o'qitishning umumiyligi maqsadlarini ifodalashda ham, o'quvchilarda fazoviy tasavvurini hosil qilish ham, metodika asoslarini ko'rib chiqishda geometrik material ustida ishlashning amaliy yo'nalanligi uqtirib o'tiladi. Demak, maktab boshlang'ich sinflarida geometrik materialni o'rghanishda hozirgi vaqtda asosan amaliy maqsadlar ko'zda tutiladi, chunki figuralarning xossalari o'rghanish, kerakli tasavvurlarni barpo etish, o'quvchilarni yuzalar yoki hajmlarni hisoblashga doir amaliy masalalarni yechish uchun zarur bo'lган amaliy o'quv va malakalar bilan qurollantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shuning uchun geometriya bo'yicha materiallarning tanlanishi ko'pchilik hollarda tasodifiy xarakterga ega bo'lsa kerak.[2]

Boshlang'ich sinflarda geometrik figuralar bilan tanishtirishning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda fazoviy tasavvurlarni hosil qilish deb bilsak, bu o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, tasavvurini va dunyoqarashini o'stiradi. O'quvchilar uchburchak va to'rtburchaklar bilan tanishar ekan, ularni sun'iy ravishda boshqa ko'pburchaklar bilan tanishtirishdan saqlab qolinadi degan fikr kelib chiqmasligi kerak. O'quvchilarga o'rghanilayotgan figuraning nima uchun uchburchak(uchta burchagi bor), boshqasi to'rtburchak (to'rtta burchak) ekanligini aytib, 5,6,7burchakni ko'rsatib, ularning nomini so'rasak dasturni kengaytirgan bo'lmaymiz. Bu yerda gap yangi figuralarni o'rghanish ustida bormay, faqat ularning nomini o'rghanish ustida boradi. Shuning bilan birga bu mashq ko'rilgan figuralar qandaydir figuralarning xususiy holi ekanligini, bulardan boshqa yanada juda ko'p ko'pburchaklarning borligiga tushunish imkoniyatini beradi. Bu hol bolalarning fazoviy tasavvurlarini va ularning matematik bilim darajasini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Birinchi sinf darsligida beriladigan figuralarga qo'shimcha sifatida turli o'lchov va rangli kartondan qirqilgan kvadratlar va doiralarga ega bo'lishi lozim. Bunda o'qituvchi figuralarning bir – biridan alomatlari, rangi, o'lchovlari va hokazo bilan farq qilishlariga o'quvchilarning diqqatini ko'p marta jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. [3]

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir korsatadi. Ayniqsau o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yonaltirilgan

¹⁴ B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy sanatga oid atamalarning izohlilugati.Toshkent -2014

asosiy o’quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yonalishlarda amalga oshiriladi:

O’quvchilarning tabiat, sanat va hayotdagi go’zalliklarni idrok etishga o’rgatish:

O’quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go’zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go’zallikni xunuk voqeа va narsalardan farqlay bilishga o’rgatish;

Shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o’zini ko’rsata bilishga, hatti-harakatini qo’llab-quvvatlash va hayotga go’zallik kiritish malakalarini o’stirish:

Bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy sanat oquv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o’stirish, borliqni ko’ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma’lumki, odamzod tevarak-atrofsdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig’ini ko’z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og’iz v.b. a’zolar orqali o’zlashtiradi. Bundan ko’rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko’z va xotirani rivojlanish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg’ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san’atshunoslik asoslari mashg’ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o’quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli , rangi, o’lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go’zalligini kuzatadilar hamda ularni o’z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo’ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshadilar,ya’ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o’z e’tiborlarini qaratadilar¹⁵.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yap-

¹⁵ S. Abdiraulov Tasviriy sanat atamalari. Toshkent- 2013

roqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarning joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirada yaxshi saqlanibqolishga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xotirani ayniqsa, ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchiliksan'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o'qigandek oqib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilarga o'qiy oladilar.

Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o'lchovlar, kompazitsiya, proportsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga oz bilimlarini mustaqil ravishda toldirib va boyitib borishni, ozining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning tasviriy san'at darslarini ta'lim-tarbiyajarayoni bilan uzviy bog`liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. R.Hasanov. "Maktabda tasviriy sanat oqitish metodikasi" Toshkent.- "Fan".2014.
2. B.Z.Asimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy sanatga oid atamalarning izohhlilugati.Toshkent -2014.
3. S. Abdiraulov Tasviriy sanat atamalari. Toshkent- 2013
4. X.Egamov.Boyoqlar bilan ishslash. –Toshkent . Oqituvchi"2011.

**SAVOD O’RGATISH DARSLARIDA
KO’RGAZMALIQUROLLARDANFOYDALANISH.**

*Sulaymonova Feruza Isoqjonovna,
Xojimurodova Dildora Ibrohimovna,
Tojiboyeva Sohiba Ahmadjon qizi
Andijon viloyati Ulug’nor tumani
1-umumi o’rta ta’lim maktabi
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada savod o’rgatish darslarida ko’rgazmali qurollardan unumli foydalanishning maqsadi va vazifalari haqida so’z borgan.

Kalitso’zlar: savod o’rgatish darslari, boshlang’ich sinf, rang tasvir, gullar, sonor tovushlar, nutq, erkin fikrlash, maqsad.

Annotation: this article discusses te goals and objectives of the effective use of visual aids inliteracyclasses.

Аннотация: в данной статье рассматриваются цели и задачи эффективного использования наглядных пособий на уроках грамоты.

Savod o’rgatish darslarida o’quvchilarga berilgan topshiriqlarni mukammal o’rgatish uchun turli interfaol o’yinlardan foydalanish zarur. Shu maqsadda boshlang’ich sinf o’quvchilariga “Savod o’rgatish darslarida ko’rgazmali qurollardan foydalanish” muhimdir. Boshlang’ich sinflarda savod o’rgatishdan maqsad o’quvchilarda o’qish va yozish malakasini shakllantirishdir. Shu sababli savod o’rgatish darslarida ko’rgazmali qurollardan to’g’ri va unumli foydalanish hamda har bir yangi dars uchun ko’rgazmalar tayyorlash kerak bo’ladi. Buning uchun albatta izlanish o’quvchilarni yangi darsga qiziqtira olish har bir pedagogning eng muhim vazifasidir. Shunday ekan, biz pedagog xodimlar har bir yangi dars

uchun yangilik yaratishimiz darkordir. Men har bir kungi darsim uchun ko'rgazmalar tayyorlab borishni joiz deb bilaman.

Dars jarayonini o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli darajada olib borishni ta'minlash lozimdir. O'quvchilar fikrlarini yangi dars davomida oshirishga erishish, o'rgangan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishga o'rgatish muhimdir.

Savod o'rgatish davrida “Alifbe” ga asoslangan holda qisqa muddatda o'qishga, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi. O'qishni muvaffaqiyatlari egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o'stirishga katta e'tibor qaratish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobilyatlarini o'stirish, tovushni aniqtalaffuz qilishgao'rgatish ko'nikmasini shakllantirish muhim sanaladi. Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qiganlarini bola qanday tushunganini aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suxbati ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadda ongli o'qishga xizmat qiladi. Albatta ongli o'qish uchun tasavvur hamda ko'rgazmalar zarur bo'ladi.

Buning uchun har bir dars yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlsh o'qituvchidan mahorat talab qiladi. Masalan: har bir inson uchun zavq bag'ishlovchi oddiy ramashka gullaridan hamma fanlarni qamragan xolda ko'rgazma tayyorlash mumkin.

Ko'rgazma nomini “Gullarga sayoxat“ deb nomlab olamiz. Buning uchun uchta alohida alohida katta vatmi qogo'zzi olinadi va qog'ozga uch xil rangli ramashka guli chiziladi. Gulni har bir gultoji barglariga bittadan harflar qo'yib boriladi, harflar unli va undoshlar asosida qo'yilsa o'quvchilar bo'g'in xosil qilib o'qiy oladi. Bunday usulda matematika darsida ham foydalanish mumkin. Bu dars uchun har bir gul tojibarglarga o'rganib borilayotgan raqamlar joylashtiriladi. Bunda o'quvchi raqamlardan qo'shish va ayrish orqali foydalanib boradi. Endi gulimizni bargidan ham unumli foydalanishimiz mumkin. Barglar ortida o'quvchilar uchun rag'bat kartochkalari yashiringan bo'ladi to'g'ri topgan o'quvchi o'z rag'batini o'zi

ololadi. Bu bиринчи vatmi qog’ozda гиқизил rangli gul edi. Ikkинчи vatmi qog’ozga sariq rangli gul chizaladi bu guldan ham shu tариqa foydalaniladi. Uchunchi vatmi qog’ozdagи gulimizni binafsha rangda tayyorlaymiz. Bundan ham shunday foydalanamiz. Asosiysi uch xil rangli gullardan biz o’quvchilarni guruhlarga ajratgan xolda ham individual ishlagan xolda foydalanib boramiz. Eng muhim o’quvchi o’zini o’zi baholay oladi va yangi dars uchun qiziqish bilan tayyorgarlik ko’rib keladi.

“Gullarga sayoxat” ko’rgazmasidan ikkinchi, uchinchi, to’rtinchi sinflarda ham foydalansa bo’ladi nafaqat Alifbe davrida balki onatili, matematika tabiatshunoslik, tasviriy san’at darslarida ham foyadalanimib borilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Eng muhim yo’l qoidasiga o’rgatishda rang tasvirni ajratishda katta ro’l o’ynaydi. Alifbe davrida yozuv taxtasini uchga bo’lib olamiz va “Gullarga sayoxat” ko’rgazmasini har bir bo’lingan qismga yopishtirib olamiz va unli tovushlarni qizil gulga, undosh tovushlarni binafsha rangli gulga, alifbo tartibidagi raqmlarni esa sariq gulga joylashtirib olamiz. Bunda o’quvchilar tovushlarni unlu va undosh tovushlarga ajrata oladi hamda alifboda nechanchi raqamda joylashganligini eslab qola oladi. Masalan: O unli tovush 14-raqam ,N undosh tovush 13- raqam har bir o’quvhi harflarni qo’liga olib shutariqa joylab boradi bunga o’rgatishdan avvalo o’qituvchi yangi o’tilgan darslar davomida doimiy foydalanib borishi darkordir. 2-sinf o’quvchilari matematika darsida “Gullarga sayoxat” ko’rgazmasidan foydalanib bormoqda.

Bundan ko’zlangan maqsad:

- I. So’zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo’g’inlarni sanash. Masalan: Lola. 4 ta tovush, 4 ta harf, 2 ta unli tovush, 2 ta undosh tovush, 2 ta bo’g’in. Bu usuldan o’quv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham tahlil sifatida foydalaniladi.
- II.Harflar ketma- ketligini yod oladilar, unli va undosh tovushlarga oson ajrata oladilar.
- III. Matematik sonlarni juft va toq sonlarga ajrata oladilar.

VI.Yangi harfni jadvalga qo’shish, yangi o’rganilgan tovushni unli va undoshga kiritish, yangi harfni ilgari o’rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash.

V. Bundan tashqari harflarni jarangli va jarangsiz tovushlarga ajratishda ham keng foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, Savod o’rgatish davrida tavsiya qilingan mazkur interfaol usullarlardan keng va Unumli foydalanish, o’quvchilarga berilgan bilimdan ijobiy natija olish uchun har Bir darslarda qo’llash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G’afforova T, G’ulomova X, Eshturdiyeva G. 1-sinflarda Savodo’rgatish. T.Sharq 1996.
2. G’offorova T, Shodmonov E, Eshturdiyeva G. Onatili. 1-sinf uchun. T. O’qituvchi. 1999.
- 3.G’offorova T, vaboshqalar.O’qishkitobi 1-sinf uchun. T. 2006 Tal’at G’offorova . O’qituvchi kitobi.

**MAKTAB O‘QUVCHILARINING INFORMATIKA VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALRI DARSLARIDA ALGORITMIK FIKRLASHLARINI
RIVOJLANTIRISH**

G'ulomov Jasurbek Erkin o'g'li

Surxondaryo viloyati, Termiz shahar 3-umumiy o'rta ta'lif maktabi, Shodlik MFY,

Barkamol avlod kochasi 9-uy Informatika fani

ANNOTATSIYA

Muammolarni hal qilish qobiliyati, gipotezalarni eksperimental ravishda ilgari surish va isbotlash strategiyasini ishlab chiqish, o‘z faoliyati natijalarini bashorat qilish, optimallashtirish, muammolarni hal qilishning oqilona usullarini topish va tahlil qilish va topilgan algoritmi batafsil bayon qilish orqali, algoritm ijrochining tilida rasmiylashtirilgan holda taqdim etilib, talabalarning algoritmik fikrlashining rivojlanish darajasini baholashga imkon beradi. Shuning uchun yosh avlodning algoritmik fikrlashiga alohida e’tibor beriladi.

KALIT SO'ZLAR: algoritm fikrlash , maktab o‘quvchilar, kompyuter, rivojlanirish, tizim, muommo, o’zlashtirish, mohiyati;

KIRISH

Ta’lim muassasasining didaktik vazifalaridan biri o‘quvchi ongini rivojlanirishda o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirishdir. Insonning intellektual rivojlanishining muhim tarkibiy qismi algoritmik fikrlashdir. Tabiiy fanlar orasida maktab o‘quvchilarining algoritmik fikrlashlarini shakllantirish uchun eng katta imkoniyat - bu informatika. Informatika fanidagi ta’lim standartlari rivojlanishining tahlili maktab o‘quvchilarida algoritmik fikrlashni shakllantirish kompyuter fanini o‘rganishning turli darajalarida maktab ta’limining muhim maqsadi ekanligi to‘g‘risida xulosa qilishga imkon beradi.

ASOSIY QISM

Algoritmik fikrlash - bu qabul qilinadigan tizimli va sintaktik qoidalar bilan rasmiylashtirilgan shaklda taqdim etilgan yakuniy natijani olish jarayonini ongli ravishda aniqlashtirish va mustahkamlangan bloklarni optimallashtirish bilan davom etayotgan fikrlash jarayonlarining aniq, maqsadga muvofiq ketishi mavjudligi bilan tavsiflanadigan bilim jarayoni. Algoritmik fikrlash rivojlanishining uch darjasи ajratiladi: Operatsion darjasи talabaning algoritm haqida tasavvurga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Tizim darjasи talabaning algoritm haqida tasavvurga ega bo‘lishi, uning xususiyatlari kichik chiziqli algoritmlar yoki eng oddiy dallanma va pastadir bo‘lishi bilan tavsiflanadi; aniq operatsiyalar tasnifiga ega; Algoritmik masalalarning muayyan sinfini qanday hal qilishni biladi; ijrochi va ijro buyruqlari tizimi haqida tasavvurga ega.

Uslubiy daraja talabaning algoritm haqida tasavvurga ega bo‘lishi, uning xususiyatlarini bilishi, rasmiy va norasmiy chiziqli struktura algoritmlarini tuzishni va yozishni bilishi, oddiy dallanma va pastadirli bo‘lishi bilan tavsiflanadi; tasniflash operatsiyalariga ega, algoritmik vazifalarni osongina bajaradi; ijrochi, ijrochining jamoalari tizimi to‘g‘risida ko‘rsatmalarga ega bo‘lish. Algoritmik fikrlash boshqa fikrlash uslublariga nisbatan o‘ziga xos va o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Algoritmik fikrlashning umumiy xususiyatlariga muammoning to‘liq ko‘rinishini ko‘rishga yordam beradigan va muammoni hal qilish natijasining dastlabki tasvirini yaratishni taklif qiladigan yaxlitlik va samaradorlik kiradi. Xususiy xususiyatlarga mavhumlik va til shakllarida ongli ravishda fiksatsiyaning o‘ziga xos xususiyati kiradi. Ushbu xossalalar algoritmnini bosqichma-bosqich bajarilishini aks ettiradi, ma’lum boshlang‘ich ma’lumotlardan mavhum bo‘lish, muammoning yechimini umumiy usulda ko‘rish va ba’zi rasmiylashtirilgan til yordamida algoritmnini taqdim etadi. Algoritmik fikrlashning tarkibiy qismlari bu vazifani rasmiylashtirish va uni alohida kompozitsion mantiqiy bloklarga bo‘lish qobiliyatidir. Algoritmik fikrlash quyidagi tarkibiy qismlar bilan belgilanadi.

- 1) kerakli natijani tahlil qilish va muammoni hal qilish uchun shu ma'lumot asosida tanlash;
- 2) qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan operatsiyalarni taqsimlash;
- 3) ushbu operatsiyalarni bajarishga qodir bo'lgan pudratchini tanlash;
- 4) operatsiyalarni soddalashtirish va qarorlar jarayonining modelini yaratish;
- 5) qarorlar jarayonini amalga oshirish va olingan natijalar bilan bog'liqlik;
- 6) olingan ma'lumotlar kutilgan bilan mos kelmasa, dastlabki ma'lumotlarni yoki operatsiyalar tizimini tuzatish.

Algoritmik fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan treningni qurishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: algoritmik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ish; algoritmik fikrlash tuzilishiga kiritilgan individual harakatlarning tizimli, to'liq va har tomonlama ko'rib chiqilishi; natijalarni standart bilan solishtirish imkoniyati.

Algoritmik fikrlash talabalarda algoritmik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. Algoritmik madaniyat deganda algoritm tushunchasi va uni yozish vositalari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos vakillar, qobiliyat va ko'nikmalarning kombinatsiyasi tushuniladi. Algoritmik madaniyatni o'zlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: - algoritm mohiyatini va uning xususiyatlarini mantiqiy anglash, algoritmgaga asoslangan inson faoliyatini mumkin bo'lgan avtomatlashtirish g'oyasi; - algoritmnini tasvirlashning ma'lum vositalari va usullaridan foydalangan holda tasvirlash qobiliyati; - algoritmnini tasvirlashingiz mumkin bo'lgan asosiy tuzilmalarini bilish. tsikl). Algoritmik madaniyatning asosiy elementlarini o'zlashtirish dasturlashni o'rghanishda muhim qadamdir. Algoritmik fikrlashning rivojlanishi muammolarni hal qilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bu holda o'qishning samarali vositasi hisoblanadi.

XULOSA

Zamonaviy jamiyat o'z harakatlarini rejalashtirish, muammolarni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni topish, kelajakdagi jarayonni modellashtirish uchun yangi avlod

qobiliyatini talab qiladi. Shuning uchun algoritmik fikrlashni rivojlanadirig'an, to‘g‘ri fikrlash tarzini shakllantiridigan kurs muhim va dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.**Shoxamidov SH, Ne'matov A, “Informatika” 2003-y
- 2.**S.S.G‘ulomov va boshqalar “Axborot tizimlari va texnologiyalari” T.-2000.
- 3.**M.M.Aripov, T. Imomov va boshqalar “Informatika, axborot texnologiyalari” T. TDTU, O‘quv qo‘llanma, 1-2 qism, 2002, 2003-y.
- 4.**D.B.Abduraximov, N.N.Toshtemirova. Informatika kursida bajariladigan topshiriqlar mazmunini takomillashtirish //GulDU axborotnomasi. 2016. №4. B. 68-73.

**O‘QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA
TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI**

*Zokirov Javohir G‘aybullo O‘g‘li
TerDU o‘qituvchisi
Mahammadiyeva Mo‘tabar Boymatovna
Sariosiyo tumani 31-umumta‘lim maktabi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning bilimini oshirishda yangi zamonaviy Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining ahamiyati va o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturiga tayyorlash haqida fikr yuritildi

Kalit so‘zlar: Ona tili va o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich sinf, PIRLS dasturi, PISA dasturi, xalqaro baholash, pedagogik texnologiya.

Annotation: This article discusses the importance of a new modern Mother Tongue and Reading Literacy textbook in enhancing students' knowledge and preparing students for an international assessment program.

Keywords: Mother tongue and reading literacy, primary school, PIRLS program, PISA program, international assessment, pedagogical technology.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalg qilish kerakligini anglatadi.

Prezidentimiz farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” tasdiqlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi[1].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liqdir. Unda ishtirok etish nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyatida o‘quvchilarining o‘quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya’ni mакtabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi[1].

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarining savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyatda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur[6].

Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan.

O‘zbekistonning 2021-yilda PIRLS tadqiqotida ishtiroki ushbu dastur borasida ko‘plab izlanishlar olib borishni, ularni mакtab amaliyotiga joriy etishni taqozo etadi. Ko‘pchilikka ma’lumki, PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) bu - 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholovchi xalqaro tadqiqot. Har besh yilda o‘tkazilib kelinayotgan ushbu dastur 2001-yilda joriy etilgan bo‘lib, 2021-yilda beshinchi marta tashkil etildi. Xalqaro baholashning ushbu turi o‘quvchilarining matnni o‘qib, to‘g‘ri talqin qilishlari, mustaqil mulohaza yurita olishlari hamda xulosalar chiqara olishlarini tekshirishga

qaratilgan. Ushbu jihatdan PIRLS jahonning turli mamlakatlaridagi o‘qitish tajribalarini qiyoslaydi hamda ular o‘rtasida reytingni aniqlaydi[7]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash maqsadida darsliklariga ham o‘zgartirishlar kiritildi buning yaqqaol dalili sifatida 1-2-sinf o‘quvchilariga 2021-2022-o‘quv yilidan Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklari chiqarildi. 3-4-sinf o‘quvchilari uchun 2022-2023-o‘quv yilida ushbu darslikni chiqarish rejalshtirilgan[8].

Boshlang‘ich sinfda ona tili va o‘qish savodxonligi darsi o‘z mazmuni, o‘quvchilar fikrini, tafakkurini dunyoqarashini, iqtidorini, nutqini, bola shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa o‘quv-predmetlari orasida muhim o‘rin tutadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari vaqtida o‘quvchilarning o‘qish va yozish malakalari takomillashadi. O‘quvchilarning chiroyli, xatosiz, husnixat asosida yozish va ravon, ongli, ifodali o‘qish, badiiy asar g‘oyasini tushunish, asar yoki voqeа-hodisaga o‘z fikrini bildira olish qobiliyatları o‘sib boradi[9].

— Ona tili va o‘qish savodxonligi kitobidagi turli she‘rlar, hikoya va maqollarni o‘qish va ular ustida ishslash natijasida o‘quvchilarda borliq va voqelik haqidagi tafakkurlari, tushunchalari kengayib boradi.

O‘quvchilar ta‘limning dastlabki kunlaridan boshlab tabiat, jamiyat, kishilar mehnati va hayvonlarning yashash faoliyatları haqida va bir qator shunga o‘xshash bilimlarni o‘zlashtirib boradilar[10].

Birinchi sinfda savod o‘rgatish davri tugagandan so‘ng ona tili va o‘qish savodxonligi darslari boshlanadi va keyingi sinflarda davom ettiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga matematika, tarbiya, tabiatshunoslik, rasm, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta‘limi kabi fanlardan boshlang‘ich bilimlarni berib boradilar. O‘qituvchi uchun eng muhimi shundan iboratki, bola o‘zi olayotgan bilim, unda shakllanadigan his-tuyg‘u hayotda zarur va ahamiyatli ekanini tushunib yetsin. ona tili va o‘qish savodxonligi darsi

orqali o‘quvchilarga mana shunday xislatlarni singdirib boriladi. Bu o‘rinda o‘qish darslari muhim o‘rin tutadi[11].

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarining afzalligi savod o‘rgatish kabi o‘qish va yozishning parallel olib borilishidir. Savod o‘rgatish davrida alifbe mashg‘uloti vaqtida A harfini o‘rgansak shu kuni yozuv darsida harfning yozilishini o‘rganar edik. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsida bir matinni o‘qib o‘rgansak shu mavzu yuzasidan amaliy yozuv mashqlarini olib borishimiz mavzuni yanaham mustahkamroq egallahga yordam beradi. Darslikdan o‘rin olgan rasm va ko‘rgazmali vositalar, multimedialar o‘quvchilarning tafakkuri va iqtidorini rivojlanishiga ijobjiy tasir etadi. Xalqimizda bir naql bor “Ming marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan yahshi” degan[12].

O‘quvchilarda og‘zaki ravishda materiallarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi kamroq bo‘ladi, ko‘rish orqali esa bu ko‘rsatkich oshadi. Shuning uchun yangi Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi ko‘rgazmakli rasmlarga boy, topshiriqlari esa o‘quvchilarning dunyoqarashini tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan[14]. Darslik bo‘yicha yaratilgan audio va video resuruslar, multimedialar ham o‘quvchini tafakkurini o‘sirishda muhim rol o‘ynaydi Mashg‘ulotlarda o‘quv materialni ko‘rgazmali shaklda taqdim etish lozim[13].

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergen. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi[2].

Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik

mavjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi[3].

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi»[15].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak biz yoshlar o’quvchilarning dunyoqarashi, bilimini oshirish maqsadida yangi ma’lumotlar, qo’llanmalar, darsliklar, texnologiyalarni ishlab chiqishda o’z hissamizni qo’shishimiz kerak. Shunday yangi har tomonlama tahrir qilingan yangi darsliklar, qo’llanmalar yaratish uchun o’zimiz ko`proq kitob o’qishimiz, ilmiy ishlar qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.B. Radjiyev, A.A. Ismailov, J.R. Narziyev, H.P. Tog‘ayeva, “O‘quvchilar savpdxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqiotlar dastur”, Qo’llanma, 2019-yil.
2. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti www.markaz.tdi.uz.
3. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1966. – 7-bet.
4. Qosimova K., Matchonov S., G’ulomova X.va boshqalar. “Ona tili o’qitish metodikasi”. Toshkent, 2009.
5. Azimova I., Mavlanova K., Qur'onov S., Tursun Sh. “Ona tili va O’qish savodxonligi”. Respublika ta’lim markazi. Toshkent, 2021.
6. O‘G‘Li, Z. J. G., & Aliyarovich, T. E. (2022). BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO’LLANILADIGAN METODLAR. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 131-142.

7. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O ‘RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(4), 218-223.
8. Yoqubov, S., & Zokirov, J. (2017). OQUVCHILARNI SAVOL BERISHGA ORGATISH USULLARI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 110-112).
9. Yakubov, S., & Zokirov, Z. (2021). ЛЮБОВЬ К РОДИТЕЛЯМ И ПОЧИТАНИЕ ИХ-ОСНОВНОЕ ЗВЕНО ВОСПИТАНИЯ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 439-442.
10. Muqimovich, Y. S. Use of Interactive Methods in Teaching Historical Topics in Primary School Reading Lessons. *JournalNX*, 326-329.
11. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Temirova, M. K. Q. (2021). Ethnopedagogical Fundamentals of Developing Interest in Natural Aesthetics in Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 832-839.
12. Sayfiddinovich, X. R., & Javohir Gaybullo og, Z. (2021). Boshlanganchi Sinf O’quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Etnopedagogik Asoslari. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 62-71.
13. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). Use of The Heritage of Central Asian Thinkers in The Formation of Ethnopedagogical, Ethnographic Views of Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 846-853.
14. Sayfiddinovich, K. R. (2021). The Role of using Interactive Methods in Primary School Lessons. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 1(6), 114-123.
15. Sayfiddinovich, K. R. (2021). Didactic Bases of Ethnopedagogical Training of the Future Teacher in the Educational Field of University. *Central Asian Journal Of Theoretical & Applied Sciences*, 2(11), 226-228.

**OLIY TA’LIMDA MATEMATIKA FANLARINI O’QITISHDA
LOYIHALASHTIRISH METODINI JORIY ETISH**

Ismoilova Lobar Zokir qizi

*Chirchiq davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi
yo’nalishi I kurs magistri*

Baxtiyor Radjabov

*Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika instituti Matematika o’qitish
metodikasi va geometriya kafedrasi professori*

Annotatsiya. Bu maqolada Oliy ta’limda matematika fanlarini o’qitishda loyihalashtirish metodini qo’llash va bu metodning samaradorligi keltirilgan. Bu metod talabalarga matematika fanini yanada osonroq tushunishiga yordam beradi.

Kalit so’zlar: loyiha, loyihalashtirish, o’quv maqsadlari, o’quv natijalari, modellashtirish, taxminiy axborot, reja qismlari.

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim tizimining isloh qilinishi ta’lim jarayonini ilg’or jahon tajribasidan kelib chiqqan holda tashkil etishni taqozo qiladi. Fan-texnika taraqqiyoti texnologiyani fan sifatida o’rganishni, keyinchalik esa o’quv jarayonini ham texnologiyalashtirishga olib keldi. Metodlar yordamida ta’limning maqsadi amalga oshiriladi. Metodlar o’qituvchi va o’quvchilaming nazariy hamda atnaliy bilimini ta’lim olish borasidagi vazifalami bajarishga qaratadi.

Loyihalashtirishning muhim va ahamiyatli belgisi shundaki, loyihalashtirish – bu kelajak bilan ishlashdir. Boshqacha qilib aytganda, loyihalashtirishga katta darajadagi noaniqlik va oldindan aytib bo’lmaslik xosdir. Biroq loyihalashtirish – kelajak bilan ishlashning yagona varianti emas, yana rejalahtirish, oldindan aytib berish, modellashtirish mavjud. Ta’limdagi loyihalashtirish – bir vaqtning o’zida

ham eski , ham yangi hodisadir. Demak, fan va amaliyotning qadim o'mishiga borib taqaladigan loyihalashtirishning tarixiy ildizlarini tahlil qilish zarur bo'ladi.

O'qitishni texnologik loyihalashtirishda M.V. Klarin quyidagi mantiqni ta'kidlab o'tgan: -maqsadlarni tayyorlash va ularni maksimal darajada aniqlashtirish, -natijalarga erishishga yo'naltirilgan maqsadlarni shakllantirish, maqsadlarga mos ravishda materiallarni, vositalarni tayyorlash va o'qitishning borishini tashkil etish, -joriy natijalarni baholash, o'qitishni korreksiya qilish, -tahlil va natijalarning yakuniy bahosi. Pedagogik loyihalashtirish sohasidagi tadqiqotlarning keltirilgan obzoridan pedagogik loyihalashtirish bosqichlarining tuzilmaviy idealini ajratib olish mumkin.

Ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda loyihalashtirish metodining o'ziga xosligi.

Dars rejasini va sizning talabalariningizni ma'lum natijalarga erishishingizga asos bo`lishi lozim. Darsni shunday rejulashtirish lozimki uni boshqacha yo`l bilan amalga oshirishga o`rin qolmasin. Har qanday darsning tayanch printsipi rejada aks etishi lozim. Bu printsip darsni eng yaxshi va oson yo`llar bilan samarali maqsadga erishishni ta'minlashini ko`zda tutadi. Shuning uchun ham dars rejasini qo`yilgan maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha elementlarni o`z ichiga olishi lozim. Buni quyidagicha ko`rsatish mumkin.

1. Taxminiy axborot: Bu axborot rejaning chegaralarini va bo`limlarini belgilab beradi, ya'ni: a) dars kimga mo`ljallangan, talabalarining darajalari; b) ma'lum o`quv predmeti; v) darsning qismlari; g) o`qituvchining ismi sharifi.
2. Reja qismlari: Rejaning qismlari darsda belgilangan maqsadni talabalar tomonidan o`zlashtirilishi va o`qituvchining ta'sirini, talab qilingan material va baholash yo`llarini aks ettirgan bir necha bosqichlarni o`z ichiga oladi. Bu bosqichlarning aniq algoritmi dars loyihasida ko`rsatiladi.

Dars loyihasining har bir elementida ma'lum bir malakalarni shakllantirish maqsadi bo`lib, ularni bir qancha ta'lim metodlari talablari va amaliy ishlar vositasida amalga oshiriladi.

Dars loyihasida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Mo`ljalni belgilash-Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo`yiladigan savollar, qo`yiladigan muammolar va hokazo.
2. Maqsad - talabalar bugun nimani o`rganadi va natijada qanday ishni bajara oladi(malaka). Ular o`qituvchiga bugungi o`rganganlari asosida ma'lum bir faoliyat to`rini bajarib ko`rsata olishlari lozim. Bu vazifani qanday bajarishni o`qituvchi belgilaydi.
3. Kirish - o`qituvchi talabalar o`rganishi lozim bo`lgan materialni belgilaydi, kontseptsiyani ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo`llarini ko`rsatadi.
4. Modellashtirish (nomoyish qilish) - o`qituvchi o`rganilayotganlarni va natijada talabalar egallashi lozim bo`lgan ko`nikmani grafik shaklda ko`rsatadi yoki namoyish qiladi.
5. Amaliy boshqaruv-o`qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ularning malaka egallashlari uchun qadamma - qadam raxbarlik qiladi. Talabalarni eshitish, ko`rish sezgilarini ishga soladi va faoliyatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratadi.
6. Tushunchalarni tekshirish-o`qituvchi turli savollar yordamida talabalarning qanchalik tushunganlarini dars davomida tekshirib, olg`a borish mumkinmi yoki yo`qligini aniqlaydi. Agar olg`a borish mumkin bo`lmasa orqaga qaytib bajariladigan ishlarni belgilaydi.
7. Mustaqil amaliyat-o`qituvchi talabalarni o`zlarini tekshirib ko`rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o`zlar o`rganganlarini tekshirib ko`radilar.
8. Darsni tugallash - Darsni xulosalash oldida talabalar o`z ishlarini, o`rganganlarini o`qituvchiga so`zlab berish, namoyish qilish orqali ko`rsatadilar.

Amaliy mashqlar yoki rolli o`yin. Topshiriq.

1. O`z mutaxassisligingiz yuzasidan mavzu tanlang.
2. Mo`ljalni belgilang:
 - a) talabalarga nimani o`rgatmokchisiz?
 - b) qanday tarqatma materiallar tayyorlaysiz?
 - v) qanday savollar, muammolarni o`rtaga tashlamokchisiz?
3. Maqsadni aniqlang. a) talabalar nimani o`rganadi, natijada qanday ishni bajara oladi?
4. Kirish. a) dars materialini belgilang. b) kontseptsiyani ishlab chiqing.
5. Modellashtirish. O`quvchilar egallashi lozim bo`lgan faoliyat to`rini ko`rsating yoki grafikasini chizing.
6. Amaliy boshqaruv. O`quvchilarni malaka egallahshlarini qadamlarga bo`lib chizing va boshqaring.
7. Tushunchalarni tekshirish uchun savollar tayyorlang.
8. Mustaqil amaliyot yo`lini belgilang.
9. Darsni tugallang.

Talabalar o`rganganlarini namoyish qilsinlar.

Darsni o`tkazish modeli. Darsni o`tkazish modelini uchta kategoriya bo`lish mumkin.

1. Ko`rgazmali izchilllik.
2. Dars sxemasi.
3. Asosiy texnologik karta.

Bu metod darsning sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Matematikadan ma’ruza mashg’ulotlarini loyihalashtirish.

Dars ta’lim muassasalarida olib boriladigan o’quv-tarbiyaviy jarayonning asosidir. Shuning uchun ham dars jarayonida o’tiladigan mavzu mazmunini umumta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va amaliy xarakterdagi tomonlari ochib beriladi. Har bir dars o’quv tarbiyaviy jarayondir. Shuning uchun ham har bir darsda o’quv-tarbiyaviy jarayonining maqsadi, mazmuni, shakli, metodlari va uning vositalari orasidagi o’zaro aloqalar mazmunan ochib beriladi. Agar biz metodika nuqtai-

nazardan matematika darsining tuzilishiga nazar tashlaydigan bo’lsak, unda quyidagi didaktik maqsadlar amalga oshiriladi. Aksariyat holda darsning boshida talabalar bilimi tekshiriladi. Bu tekshirish savol-javob asosida yoki didaktik tarqatma materiallar asosida o’tkaziladi. Bunda qaysi talabaning avvalgi o’tilgan mavzu mazmunini qanday o’zlashtirgani va qanday qiyinchilikka uchragani hamda ana shu mavzu materiali yuzasidan talabalarning olgan bilimi va ko’nikmalari tekshiriladi. Talabalarning bergen javoblari o’qituvchi tomonidan izohlab baholanadi. Shundan keyin darsning asosiy maqsadi yangi mavzu talabalarga tushuntiriladi (ma’ruza), nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun talabalar bilan birgalikda misol yoki masalalar yechiladi (amaliy mashg’ulot). Bundan tashqari ana shu mavzu mazmunini qanday darajada talabalar o’zlashtirganliklarini bilish uchun o’qituvchi tomonidan talabalarga nazariy va amaliy xarakterdagi savollar ham berib boriladi. Bundan keyin uyga vazifa berish va uni bajarish yuzasidan zarur ko’rsatmalar beriladi. Yuqoridagi aytib o’tilgan bosqichlardan ko’rinadiki, matematika darsiga tayyorgarlik ko’rish o’qituvchidan o’rganiladigan mavzuning maqsadi va uning mazmuni nimalardan iborat ekanligini aniqlashdan iboratdir. Har bir o’qituvchi ertaga o’tadigan matematika darsida qanday o’quv-metodik jarayonni amalga oshiraman degan savolga javob izlashdan boshlashi kerak. 80-minutlik dars vaqtini taqsimlashda yangi materialni talabalarga tushuntirishga va uni mustahkamlash yuzasidan misol va masalalar yechishga ko’proq vaqtini ajratish zarur. Ko’p hollarda o’qituvchilar ko’proq vaqtini uy vazifasini tekshirishga sarf qilib, yangi mavzu mazmunini bayon qilish va uni mustahkamlash vaqtini qisqartirishga olib keladilar.

Matematika darsining rejasi:

1. Yangi mavzu mazmuni bilan tanishtirish.
2. Yangi mavzuni mustahkamlash.
3. O’quvchilarning bilimlarini, ko’nikma va malakalarini tekshirish.
4. O’quv materiallarini takrorlash va umumlashtirish.

O'qituvchi har bir dars uchun mavzu yuzasidan ish rejani tuzishda quyidagilarga ahamiyat berish kerak bo'ladi:

1. Mavzu va uning shu darsda o'rganiladigan qismi ko'rsatiladi.
2. Uy vazifasi qanday tekshiriladi?
3. Qaysi talabalardan so'raladi?
4. Talabalar uchun qanday mustaqil ishlar beriladi va qanday vaqtda beriladi?
5. Yangi mavzu bayoni ko'rsatiladi, talabalarga qanday metod orqali tushuntirilishi va qaysi yerlarini yozishligi belgilanadi?
6. O'tilgan yangi mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar yoki misol va masalalar yozib qo'yiladi.
7. Uyga beriladigan vazifa, mavzu paragrafi, misol va masala nomerlari hamda talabalarga beriladigan ko'rsatmalar yozib qo'yiladi. O'qituvchi har bir dars oxirida talabalar bilan birqalikda bugungi darsni yakunlashi va talabalar bilimini tekshirishi lozim.

XULOSA

Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi.

Matematika fanini loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi. Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir- birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi. Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar

haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo'yiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudov M. Ta“lim natijasini loyihalash. // «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.
2. Oliy pedagogik o,,quv yurtlarining o,,quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. 111 b.
3. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o,,quv yurtlarida o,,qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil.
4. Yunusova D.I. Uzluksiz ta’lim tizimi matematika o’qituvchisini tayyorlashning nazariy asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 160 b.
5. Yunusova D. Matematikani o’qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 200 b.
6. Yunusova D. Bo'lajak matematika o’qituvchisini innovation faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 165 b.
7. Yunusova D., Yunusov A. Algebra va sonlar nazariyasi. Modul texnologiyasi asosida tuzilgan musol va mashqlar to’plami. O’quv qo’llanma. T., “Ilm Ziyo”. 2009.

**ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЯНГИ ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ**

Мадимарова Наргиза Нигматжановна

Тошкент вилояти, Тошкент тумани

23-мактаб география фани ўқитувчиси

Аннотация: Уишибу мақолада мактабларда ва бошқа таълим муассасаларида география фанининг ўқитишида янгилашган инновациялар ва гоялар билан ишлари түргрисида гап боради. Кўзланган мақсад ўқувчи-талабаларни уишибу фанга янада қизиқишини ортириши, кўпроқ билимларга эга бўлиши ва шу соҳадан етук инсонлар этишиб чиқшидан иборат.

Калит Сўзлар: инновацион гоялар, янгилашган инновациялар, география фанини ўқитувчидан иборат.

Бугунги кунда барча соҳаларда инновацион гоялар, фикрлар кириб келиб улгурган. Бу жараён таълим соҳасида ҳам ўз таъсирини кўрсатган ҳолда, барча фанлар тизимида янгиликлар, дарс ўтишнинг янги усуллари, янги педагогик технологиялар орқали дарснинг сифати, мазмuni ва жозибадорлиги ошириш мухим масала бўлиб қолмоқда. Ҳозирда мамлакатимизнинг барча мактабларида ўз иш фаолиятини олиб бораётган устоз ва мураббийлар замонавий ўқитиши усурубларини қадамма-қадам яратиб бормоқдалар, шунингдек, география фанида ҳам ҳозирда дарсларни ташкил этишда турли хил методлар яратилмоқда, аммо шуни ҳам таъкидлаш жоизки, география фанини бошқа фанлар билан таққослаганда ўқтиши усууллари, методлар дарс жараёнлари ортда қолганлиги сезилиб туради, бунга биргина бизнинг фанимизга кириб келаётган янги инновацион методлар бошқа етакчи фанларда анча олдин илдамлаб кетганини кўрсак бўлади. География ўқитувчиси 45 дақиқалик дарс жараёнида анаънавий дарс методларидан фойдаланиб, шу билан бирга инновацион педагогик технологияларни, турли хил педагогик

ўйинларни, яъни анаънавий дарс методлари билан бирга янги дарс ўтиш усулларини уйғунликда дарс жараёнига мослаштира олиши зарур. Ҳозирги кундаги жадал ривожланиб бораётган фанлар тизими ва кучли рақобат бўлаётган бир даврда география фанининг ўз ўрнини сақлаб қолиши география устозлари ва мураббийларига боғлиқ бўлиб қолганлиги, устозларимизнинг янги дарс ўтиш усуллари, янги методик лойиҳаларни ўрганиб, география фанига қўллай олиши фанимизнинг энг катта ютуқларидан бири бўлиб қолади деган умид бор, зеро ўқувчиларнинг билиш фаолиятини такомиллаштириш ва таълим самарадорлигини оширишга имкон берадиган янги педагогик технологиялар ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, таълим жараёнидаги янги имкониятлар эшиги вазифасини ҳам ўтайди. Шундан келиб чиқиб айтадиган бўлсак география ўқитувчиларимиз янада кўпроқ изланишга ва янгича методларда дарс ўтишдек масулят юклатилади. Бунда ўқитувчилримизнинг креатив ғоялари, инновацион технологияларни қўллай олиш маҳоратларига қаратилади. 45 дақиқалик дарсларни бўлиб биллтс саволлар, педагогик ўйинлар яратиб ўқувчиларни рағбатлантириш зарур. Айнан қандай ўйинлар деганда “Блитс-ўйин” технологияси.

“Бумеранг” технологияси, “6х6х6” методи. Шуларни қўллаш орқали ўқувчиларни қизиқишини янада ошириш мумкин.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерактив методлардан тўлиқ фойдаланилади. Интерактив методлар - бу жамоа бўлиб фикрлаш демакдир. Бу методларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва ўқувчиларнинг ҳамкорликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади.

Бундай педагогик ҳамкорлик жараёни ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, уларга қуйидагилар киради:

- ўқувчининг дарс давомида бефарқ бўлмасликка, мустақил фикрлаш, ижод этиш ва изланишга мажбур этиши;

- ўқувчиларни ўқув жараёнида билимга бўлган қизиқишиларини доимий равища бўлишини тахминланиши;
- ўқувчининг билимга бўлган қизиқишини мустақил равища ҳар бир масалага ижодий ёндошган ҳолда кучайтириши;
- ҳамиша педагог ва ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолиятини ташкилланиш

Кўйилган мақсадни амалга ошириш ва кафолатланган натижага эришиш ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолияти ҳамда улар қўйган мақсад, танланган мазмун, метод, шакл, воситага, яъни технологияга боғлиқ.

Ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликда мақсаддан натижага эришиш учун қандай технологияни танлашлари уларнинг ихтиёрида, чунки ҳар иккала томоннинг асосий мақсади аниқ: натижага эришишга қаратилган. Бунда ўқувчиларнинг билим савияси, гурух характери, шароитга қараб ишлатиладиган технология танланади. Масалан, натижага эришиш учун балким, компьютер билан ишлаш лозимdir, балким фильм, тарқатма материал, чизма ва плакатлар, турли адабиётлар, ахборот технологияси керак бўлар, буларнинг қай бирини танлаш ўқитувчи ва ўқувчига боғлиқ

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

- 1.<https://fayllar.org>
- 2.A.K. Munavvarov “Pedagogika” Toshkent 1996
- 3.S.A. Usmonov “Pedagogik texnologiya asoslari”
- 4.”Fan va texnologiya” 2015

**NIKOHNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH
VA UNING OQIBATLARINI QO'LLASH BILAN BOG'LIQ
MUNOSABATLAR**

Xurramova Adolat Bahodir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Ilmiy raxbar : Tojibayev Akbar Zafar o'g'li

Yu.f.a ,dotsent v.b

ANNOTATSIYA

Maqolada nikohni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash bilan bog'liq oila qonunchiligidagi ziddiyatlar, amaliyotda normalarga doir turlicha yondashuvlar hamda ularga yechimlar o`z aksini topgan.

Oilada qonunchiligidagi nikohni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq nazariy hamda amaliy masalalar xorijiy davlatlar qonunchilik hamda ulardagি nazariyalar asosida tahlil qilindi.

Kalit so`zlar.Oila, nikoh, nikohning haqiqiy emasligi, nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh, majburlab tuzilgan nikoh, soxta nikohni haqiqiy emas deb topish, insofli er(xotin), zarar.

**Обнаружение того, что брак ненастоящий
и связь между применением его последствий**

Хуррамова Адолат Баходир қизи

Ташкентского государственного юридического университета,

АННОТАЦИЯ

В статье отражены противоречия в семейном праве, связанные с признанием брака недействительным и его последствиями, различные подходы к нормам на практике и пути их решения.

На основе зарубежного законодательства и их теорий проанализированы теоретические и практические вопросы, связанные с признанием брака недействительным в семейном праве.

Ключевые слова.Семейное, признается, недействительность брака, порядок признания брака недействительным, брак, заключенный с лицом, не достигшим брачного возраста,заключенный по принуждению, признание недействительным фиктивного брака.

**Finding that marriage is not real
and the relationship between the application of its consequences**

KKurramova Adolat Bakhodir qizi

Tashkent University of Law

ABSTRACT

The article reflects the contradictions in family law related to the invalidation of marriage and its consequences, different approaches to the norms in practice and their solutions.

Theoretical and practical issues related to the invalidation of marriage in the family law were analyzed on the basis of foreign legislation and their theories.

Keywords. Family, marriage, invalidity of marriage, procedure for finding marriage invalid, marriage with a minor, forced marriage, finding a fake marriage invalid.

Nikoh va oilaviy munosabatlar o'z rivojlanish tarixi va taraqqiyoti bo'yicha dastlabki qadamlaridanoq nikohning sof, samimiy hamda poklik ramzi asosida

oilaning vujudga kelishi uchun xizmat qilgan. Insoniyat yaralganidan beri, bir qancha rivojlanish davrlarini boshidan o'tgazgan. Ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hozirgi ma'nodagi “nikoh-oila” degan iboralarning o'zi mavjud bo'lмаган. Ibtidoiy odamlar bir necha guruhlarda oila bo'lib yashaganlar[1].

Ma'lum ma'noda, ularning ongi, tafakkuri rivojlana va o'zgara boshlaganligi sababli guruhiy nikoh masalalari ham barham topib, ular o'rnini yakka nikohlilik asta-sekinlik bilan qamrab olgan. Nikohning haqiqiy emasligi o'zining nazariy-huquqiy asoslari bilan fuqarolik huquqi nazariyasi bo'yicha bitimlarni haqiqiy emasligi asoslari o'rtasidagi nisbatni o'rganish muayyan ahamiyatga ega deb hisoblash mumkin. Ularning har ikkalasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash uchun eng avvalo fuqarolik huquqi va oila huquqi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash lozim.

Shuni e'tirof etish lozimki, ushbu masala bo'yicha fuqarolik huquqi sohasidagi olimlar o'rtasida ham, oila huquqi sohasidagi mutaxassislar o'rtasida bahsmunozaralar mavjud. Demak, nikohni haqiqiy emasligi to'g'risidagi masalalarga zarurat bo'lganda fuqarolik normalarini qo'llash mumkin. Bunday zarurat vujudga kelishi yoxud kelmasligi haqidagi masala sof nazariy masala emas. OK va FKning tegishli normalari qiyosiy o'rganilganda oila huquqi normalari nisbatan keng qamrovli emas ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Agar nikohni bitim ekanligini, yuridik fakt ekanligini, ikki tomonlama kelishuv ekanligini, er-xotin o'rtasida huquq va majburiyatlarni vujudga keltiruvchi huquqiy asos ekanligini e'tiborga olsak, FKning bitimlar haqidagi normalaridan nikoh haqiqiy emasligining huquqiy asoslari doirasiga kiritish mumkin (agarda OKda tegishli normalar yetarli bo'lмаган taqdirda)[2].

Nikoh haqiqiy emasligining huquqiy asoslari nikoh bitimini quyidagi holatlarda haqiqiy emas deb hisoblaydi:

a) nikoh bitimining sub'ektlari huquqiy holati bilan bog'liq nuqsonlar (OKning 15-16-moddalari);

b) nikoh bitimini tuzishda erk-irodani va hohishni noto'g'ri shakllantirish bilan bog'liq nuqsonlar (OKning 14-moddasi, 49-moddasi 3- qismi);

v) soxta nikoh (OKning 54-moddasi).

Ushbu huquqiy asoslarni qo'llashda FKning tegishli normalari o'ziga xos metodologik vosita bo'lishi mumkin. Bunday metodologik asos vazifasi turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, OKning 16-moddasi 3-qismiga ko'ra muomalaga layoqatsiz shaxs bilan tuzilgan nikoh haqiqiy emasligi masalasi ko'rilinganda FKning 22-23, 30-31-moddalari (fuqaroning muomala layoqatini, muomala layoqatini cheklashga yo'l qo'yilmasligi, fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish asoslari va tartibi, fuqaro muomala layoqatini cheklash asoslari va tartibini belgilovchi normalar) sudlar diqqat e'tiborida bo'lishi tabiiy.

Ushbu nizoli ish ko'rinishidan to'g'ri hal etilgan bo'lsada, biroq, nazarimizda, sud hal qiluv qarorini chiqarishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yganligi ko'rindi. Jumladan, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiluvchi organlarning nikohni qayd qilish muddatiga e'tibor bermasligi hamda bunday tuzilgan nikohni “soxta” nikoh tuzish huquqiy normai bilan emas, balki “zo'rslash, majburlash”ga oid norma talablariga to'g'ri kelishiga ahamiyat berish lozim edi. Sud amaliyotida bunday turkumdag'i ishlarni nikoh tuzish shartlaridan biri bo'l mish ixtiyorilik prinsipining buzilishi deb qaralishi lozim. Bo'lajak er-xotinning nikoh tuzish uchun belgilangan ixtiyorilik to'g'risidagi qoida turli usullar bilan buzilishi mumkin. Bu buzilishlar taraflarning e'tiborsizliklari tufayli bir-birini ayrim kamchilik va nuqsonlarni anglamasliklari yoki o'z shaxsi haqida noto'g'ri ma'lumot berishlari, masalan, kuyov katta amalda ishlamasa-da, o'zini amaldor qilib ko'rsatishi va shu kabi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lmaydigan buzilishlardan farq qiladi[3].

Nikoh tuzish uchun ixtiyorilik qoidasi buzilib, bo'lajak er-xotin bir-birlarini jiddiy ravishda aldab tuzgan bo'lsalar nikoh haqiqiy hisoblanmasligi kerak. Ba'zi hollarda qo'sh nikohdan qaysi birini haqiqiy emas deb topish haqidagi masala sud tomonidan o'rganilishni talab etadi. Bunda sud taraflarning niyat-hohishini, amaldagi faktik oilaviy munosabatlarni hisobga olishi lozim.

Ayniqsa hozirgi vaqtda mamlakatlar o'rtasida migratsiya jarayoni kuchayib bormoqda. Kishilar rasmiy nikohdan ajralmasdan boshqa davlatlarda boshqa rasmiy

nikoh tuzish holatlari uchramoqda. Demak, bunday holatlarda sudlar taraflarning maqsadlari va amaldagi holatlarini hisobga olsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Nikohga o'tish jarayonida nikohlanuvchilarning ruhiy holati qanchalik tiniq bo'lishdan qat'i nazar, mavjud hujjatlar, ularning hayotidagi yurish-turishlari, boshqa shaxslar bilan bo'ladigan muomalasi, ularni aqli zaifligidan dalolat bersa, nikohni qayd etish rad etiladi. Nikoh tuzilgan bo'lsa, nikohni haqiqiy emas, - deb topilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan holatlar fikr-mulohaza yuritgan edik. Bunday hollarda nikohlanuvchilar muomalaga layoqatsiz deb topilmagan holda ham manfaatdor shaxslar nikohning haqiqiy emasligi haqida da'vo talabi bilan sudga murojaat etishlari mumkin.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi haqida tegishli belgilari bo'lган shaxs bilan tuzilgan nikoh, nikohlanuvchilarning o'zaro roziliklari asosida tuzilganidan yoki o'z roziligining oqibatini tushunmagan shaxs tomonidan tuzilganidan qat'i nazar, manfaatdor tarafga bunday nikohning haqiqiyligi haqida nizolashish huquqi berilishi lozim. Bunday hollarda nikohni haqiqiy emas, - deb topish uchun asos bo'lib, ixtiyorilik qoidasining buzilishi emas, balki nikoh tuzuvchilardan birining muomalaga layoqati cheklanganligi, muomalaga layoqatsizligi hisoblanadi.

Nikoh tuzishda nikohlanuvchilarning ixtiyori o'zida bo'lishligi bilan birga, bu erk hushyor tarzda bo'lishi, aqli-hushi joyida, ongi tiniq holda izhor qilingan bo'lish lozim. Bu degan so'z, nikoh tuzilgandan so'ng aqli zaif inson bilan oilaviy hayot kechirish lozim,-degan ma'noni anglatmaydi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topish, shu bilan sud ruhiy ekpertizasining xulosasi bo'yicha nikohlanuvchilardan birining ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi haqidagi xulosa bo'lsa ham nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lish mumkinligi to'g'risidagi fikrlarni ham hisobga olish kerak.

Fikrimizcha, sudga taqdim etilgan er-xotinning ruhiy kasalligi haqidagi ma'lumotnomasi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi bilan nikohlanuvchilarni ortiqcha sud xarajatlaridan ozod etgan bo'lar edi. Nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi ishlarni o'rganish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki,

nikoh tuzishda nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi borligini boshqasidan yashirgan hollar uchrab turishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan[4].

Soxta nikohni haqiqiy emas deb topish uchun nikohlanuvchilarning maqsadi, niyati, fikri avvalidan oila qurish maqsadini ko'zlamasligiga e'tibor berish lozim. Amaliyotda vaqtincha, qisqa muddat er-xotin bo'lib yashab shahvoniy nafslarini qondirib, o'zlarining niyatlariga erishganlaridan so'ng darhol nikohdan ajralish haqida sudga da'vo talablari bilan murojaat qiluvchilar ham uchramoqda.

Soxta nikohni haqiqiy emas deb topish tufayli ikkinchi vijdonli-insofli taraf ko'rgan ma'naviy zararni undirish uchun FKning 1021-1022-moddalari tegishli normalari asosida da'vo talabi bilan sudga murojaat etish huquqidan foydalanishlari kerak[5].

OKning 7-moddasida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga oila to'g'risidagi qonun hujjatlari taraflarning kelishuvi bilan tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalari mavjud bo'limgan taqdirda, mohiyati jihatidan ushbu munosabatlarga zid kelmaydigan oila to'g'risidagi yoki fuqarolik qonun hujjatlariga o'xshash munosabatlarini tartibga soluvchi normalari (qonun analogiyasi) qo'llaniladi. Bunday normalar bo'limgan taqdirda oila a'zolarining huquq va majburiyatlar油i oila hamda fuqarolik huquqining umumiy tamoyillariga tayangan holda (huquq analogiyasi), shuningdek insoniylik, oqilonalik adolat tamoyillariga amal qilgan holda belgilanishi ko'rsatilgan.

Fikrimizcha, g'araz niyatda tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish uchun huquqiy qiyoslash asosida hal etilishi maqsadga muvofiq, -deb hisoblash bilan bir qatorda nikoh tuzishga monelik qiladigan shartlar qatoriga kiritish maqsadga muvofiqli,-deb hisoblaymiz. Oila kodeksining 54-moddasi 1- qismida “er-xotin” soxta nikoh qayd qildirgan va oila qurmagan bo'lsalar, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin, -degan norma ifodalangan.

Bu bilan sud nikohni soxta deb topmasligi ham mumkin ekan-da, degan xulosa kelib chiqmaydi-mi? Fikrimizcha, bunday hollarda “mumkin” so'zi o'rniga

“shart”, “majbur”, “lozim” degan so'zlar bilan almashtirish maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki huquqiy normaning mazmuni shu so'zlarning kiritilishini taqozo etadi.

Agar sud ishni ko'rish jarayonida to'plangan dalillar va taraflarning bayonetlariga asoslangan holda nikohni soxtaligi to'g'risida shubhaga borsa, bu haqda nikohni haqiqiy emas, - deb topilish jarayonida asoslab ko'rsatishi lozim[6].

O'zbekiston Respublikasi ochiq mamlakat, buning ma'nosi shundaki, fuqarolar chet ellarga erkin kirib-chiqish huquqiga ega. Barcha malakatlarda tabiiy migratsiya jarayoni ketmoqda. Odamlar ta'lim olish, mehnat qilish, davolanish va boshqa sabablarga ko'ra o'z mamlakat hududidan boshqa mamlakat hududiga vaqtinchalik yoki doimiy yashash uchun ko'chib boradilar. O'zbekiston fuqarolari yuqoridagi asoslarga ko'ra chet davlatlarga borishlari, xorijiy fuqarolar esa O'zbekistonga kelishlari doimiy jarayondir. Ushbu jarayonda kishilar o'rtasida nikoh tuzish holatlari ham ro'y beradi. Bunda nikohga kiruvchi erkak yoki ayol turli davlatlar fuqarolari bo'lib hisoblanadilar va ularning huquqiy holati o'z mamlakati qonunlari bilan belgilanadi. Turli davlatlarda nikoh tuzish tartibi, shartlari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Yevropaning ba'zi davlatlarida bir jinsli nikohlarga yo'l qo'yiladi, ba'zi musulmon davlatlarida esa ko'p xotinlilik rasman tan olingan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet davlat fuqarolari bilan nikoh tuzishlari ba'zan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. — T.: Adolat, 2021.
2. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan yurist, prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. – T.:TDYU nashriyoti, 2017.182-b.
3. Muallijlar jamoasi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. — T., Adolat, 2000
4. Otaxo'jayev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartihga solinishi. T.. O'zbekiston, 1995. 10 Otaxo'jayev FM Nikohning tugatilishi //J.Qonun himoyasida. 1998. Nsl2.
5. Otaxo'jayev F.M. Oila huquqi. — T.. TDYI, 2005.
6. Yuldasheva Sh.R., Shoraxmetova V.Sh., Topildiyev B.R. Oila htiquqidan o'quv-uslubiy qo'llanma. - T., TDYI. 2011.

**ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА СПОРТ ШАРТНОМАЛАРИНИ ТАРТИБГА
СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МАСАЛАЛАР**

Дадебаева Шахназа Байрамкличевна

*Тошкент давлат юридик университети, Магистратура ва сиртқи таълим
факултети талабаси*

Илий рахбар О Оқюлов Фуқоролик кафедраси профессори Ю ф д,

ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада фуқаролик ҳуқуқида спорт шартномаларини тартибга солиш масалалари, фуқаролик ҳуқуқида шартномаларини тартибга солища шартномавий мажбуриятлар, фуқаролик ҳуқуқида спорт шартномалари муносабатларини тартибга солиш йўналишлари илмий таҳлил қилинган. Спорт шартномалари тузиш сифатини яхшилаш ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга тўлиқ риоя этилишини таъминлашга қаратилган амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. Тадқиқот натижалари ва ишлаб чиқилган илмий таклиф ҳамда амалий тавсиялардан фуқаролик ҳуқуқида спорт шартномалари тузишда тарафлар томонидан риоя қилишида, уларнинг ҳуқуқ манфаатларига ижобий таъсир ўтказишида ва ҳуқуқ-мажбуриятлар сифатини оширишда амалиётда қўллаш учун фойдаланиши мумкин.

Калит сўзлар. Спорт, шартнома, спорт шартномалари, Спорт ташкилотлари, меҳнат шартномалари, ўйинчи билан тузиладиган шартномалар, мураббий билан тузиладиган шартномалар, ҳомийлик шартномалари, спорт ташкилоти ўртасидаги шартномавий муносабатларни тартибга солиш, спорт ҳуқуқи субъектлари, жисмоний тарбия-спорт ташкилотлари ва бошқа ташкилотлар билан меҳнат шартномаларини тузиш, Спорт соҳасидаги муносабатларни асосан шартномалар билан тартибга солиш.

**Вопросы, связанные с регулированием спортивных договоров в
гражданском праве**

Дадебаева Шахназа Байрамкличевна

Tashkentского государственного юридического университета,

АННОТАЦИЯ

Данная статья вопросы регулирования спортивных договоров в гражданском праве, научно проанализированы договорные обязательства в регулировании договоров в гражданском праве, направления регулирования отношений по спортивным договорам в гражданском праве. Разработаны практические предложения и рекомендации по повышению качества спортивных контрактов и обеспечению полного соответствия регламенту. Результаты исследований и разработанные научные предложения и практические рекомендации могут быть использованы на практике для обеспечения соблюдения сторонами при заключении спортивных договоров норм гражданского права, положительно повлиять на их законные интересы и повысить качество прав и обязанностей.

Ключевые слова. Спорт, Контракт, спортивные контракты, Спортивные организации, трудовые договоры, контракты с игроком, контракты с тренером, спонсорские договоры, регулирование договорных отношений между спортивными организациями, заключение трудовых договоров со спортивными юридическими лицами, физкультурно-спортивными организациями и др. организации , Регулирование отношений в сфере спорта в основном договорами.

Issues related to the regulation of sports contracts in civil law

Dadebaeva Shakxnoza Bayramklichevna

Tashkent State University of Law

ABSTRACT

In this article issues of regulation of sports contracts in civil law, contractual obligations in the regulation of contracts in civil law, directions of regulation of sports contract relations in civil law are scientifically analyzed. Practical proposals and recommendations have been developed to improve the quality of sports contracts and ensure full compliance with regulations. The results of research and developed scientific proposals and practical recommendations can be used in practice to ensure compliance by the parties in the conclusion of sports contracts in civil law, to have a positive impact on their legal interests and improve the quality of rights and obligations.

Keywords. Sports, Contract, sports contracts, Sports organizations, labor contracts, contracts with the player, contracts with the coach, sponsorship agreements, regulation of contractual relations between sports organizations, conclusion of labor contracts with sports law entities, physical culture and sports organizations and other organizations ,Regulation of relations in the field of sports mainly by contracts.

Фуқароларнинг саломатлигини мустаҳкамлаш, жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчилик сонини кўпайтириш, юқори профессионал спорт турларини ривожлантириш масалаларини самарали меъёрий-хукуқий базани яратиш билан ҳал этиш мумкин. Бундай вазиятда ижтимоий муносабатларни, шу жумладан жисмоний тарбия ва спорт фаолиятининг турли соҳаларида вужудга келадиган хукуқий муносабатларни такомиллаштириш мақсадида олиб борилаётган назарий тадқиқотлар долзарб бўлиб қолмоқда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳаси бутун дунё аҳолисига у ёки бу жиҳатлари билан тааълуқли бўлиб, ушбу соҳадаги хукуқ ва мажбуриятларни билиш фойдадан ҳоли эмас[1].

Спорт шартномалари хукуки – юриспруденциянинг янги йўналишларидан бири бўлиб, жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ижтимоий муносабатларни қамраб олади. Ўзбекистонда бозор

иқтисодиётининг ривожланиши билан жисмоний тарбия ва спорт фаолиятининг ҳуқуқий тартибга солиш механизмлари тобора аҳамиятли бўлиб бормоқда. Ҳозирги вақтда мамлакатда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги муносабатларни тартибга соловчи қонунчилик шакллантирилмоқда ва ушбу қонунларни қўллашнинг маъмурий ва суд амалиёти босқичма-босқич ишлаб чиқилмоқда.

Шу билан бирга, бугунги кунга қадар жисмоний тарбия ва спортни тартибга соловчи норматив-хуқуқий хужжатлар мажмуи хуқуқий адабиётларда деярли ўрганилмаган, жисмоний тарбия ва спортнинг барча соҳаларини зарур назарий хуқуқий тушунчага эга бўлган тармоқ сифатида таъминлайдиган ва тартибга соладиган тизимли баён қилинган ва шарҳланган қонунчилик базаси мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонига мувофиқ мамлакатимизда спорт ўйинларини оммалаштириш негизида ундаги шартномавий-хуқуқий муносабатларни ҳам шакллантириш лозимлиги таъкидланади.

Бугунги кунда спортчиларнинг хуқуқларини ҳимоя қилишнинг жуда кўп усуллари мавжуд. Масалан, спортчининг ҳаракатларининг қонунийлигини ёки ноқонунийлигини исботлашга имкон берадиган суд йўли. Бунда, албатта, шартномаларининг ўрни бекиёсдир. Мавжуд бўлган йўлларнинг фақат бир қисми спортчи, лекин энг муваффақиятли йўл олиб келиш эмас, уларни қўллашдан олдин ва спортчининг барча манфаатларини ҳисобга олган ҳолда мураккаб шартнома тузган ҳолда, уланинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш лозим.

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги, давлатнинг ваколатли қонун чиқарувчи ва ижро этувчи хокимияти органлари томонидан ишлаб чиқилган турли хуқуқий хужжатлар ва бошқа норматив хужжатлар бўлиши мумкин. Масалан, “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида” ги Қонуннинг 41-моддасида

“Ўзбекистонда аҳоли саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш бўйича республика дастурлари молиялаштирилмоқда, давлат, муниципал, хусусий тарбия ва спортни ривожлантиришга қаратили, инсон саломатлигини, жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга қаратилган фаолиятни ривожлантириш чоралари кўрилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 37-моддасида “Ҳар бир шахс меҳнат қилиш, эркин қасб танлаш, адолатли меҳнат шароитларида ишлаш ва қонунда кўрсатилган тартибда ишсизликдан ҳимояланиш ҳукуқига эгадир”, Меҳнат кодексининг 57-моддасида эса “ҳар ким ишга жойлашиш ҳукуқига эга” эканлиги мустаҳкамланган.

Бугунги кунда профессионал спортчилар ёлланма ишчи сифатида уларнинг иш берувчилари жисмоний тарбия спорт ташкилотлари ва уюшмалари (спорт командалари, клублари, федерациялар, лигалар) кўринишида уларни ҳукуқларини ҳимоя қиласи [2].

Профессионал спортчиларнинг фаолияти Ўзбекистон Республикасининг меҳнат қонунчилиги, шунингдек ҳалқаро ва миллий жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари уставлари асосида ишлаб чиқилган ва тегишли спорт турлари бўйича республика федерациялари билан келишган ҳолда профессионал жисмоний тарбия ва спорт уюшмалари томонидан тасдиқланган нормалар билан тартибга солинади.

Бугунги кунга келиб спорт шартномаларида меҳнат муносабатлари ҳам табиийки ўрин эгаллайди. Меҳнат шартномаси тушунчаси Меҳнат кодексининг 72-моддасида белгиланган бўлиб, унга кўра, меҳнат шартномаси ходим билан иш берувчи ўртасида муайян мутахассислик, малака, лавозим бўйича ишни ички меҳнат тартибига бўйсунган ҳолда тарафлар келишуви, шунингдек меҳнат тўғрисидаги қонунлар ва бошқа норматив ҳужжатлар билан белгиланган шартлар асосида ҳақ эвазига бажариш ҳақидаги келишувдир[3].

Шубҳасизки, ҳар қандай шартноманинг асосий шарти унинг предмети ҳисобланади. Профессионал спорт муносабатларининг, биринчи

галда, товар-пул муносабатлари шаклида эканлигини инобатга оладиган бўлсак, профессионал спортнинг ўйин турларида профессионал спортчилари иштирокидаги муносабат-ларни тартибга солишда фуқаролик-хукуқий шартномаларни қўллаш ўринли ҳисобланади. Бугунги кунда спортчиларнинг хукуқларини ҳимоя қилишнингжуда кўп усуслари мавжуд.

Масалан, спортчининг ҳаракатларининг қонунийлигини ёки ноқонунийлигини исботлашга имкон берадиган суд йўли. Бунда, албатта, шартномаларининг ўрни бекиёсдир. Мавжуд бўлган йўлларнинг фақат бир қисми спортчи, лекин энг муваффақиятли йўл олиб келиш эмас, уларни қўллашдан олдин ва спортчининг барча манфаатларини ҳисобга олган ҳолда мураккаб шартнома тузган ҳолда, уланинг хукуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш лозим. Замонавий меҳнат шартномаларининг бандлари спорт юристлари томонидан спортчи учун муҳим бўлган барча фикрларни мувофиқлаштириш билан батафсил ишлаб чиқилган¹⁶. Ўйинчиларнинг шартномаларида шундай ҳолатлар мавжуд: қоидалар каби шахсий масалаларни тартибга солган кундалик тартиб, парҳез, дам олиш фаолияти ва бошқалар. Спорт соҳасидаги эришилган ютуқлар нафақат давлатнинг мавқеини кўтаради, балки спортчилар ва уларнинг соҳасидаги ташкилотлар, федерация-ларга катта даромад олиб келади ва янги иш ўринларини яратади, соғлом турмуш тарзини тарғиб этиб, мамлакат аҳолисининг ишчанлик руҳиятига, меҳнат қобилиятига бевосита таъсир кўрсатади. Бу эса ялпи ички маҳсулот ортишига, аҳолининг фаравонлигини таъминлашга катта ёрдам беради[4].

Шартнома мулкий муносабатларни (фуқаролик-хукуқий) хукуқий тартибга солишда универсал усул сифатида марказий ўринни эгаллайди. Спорт соҳасидаги муносабатлар ҳам асосан шартномалар билан тартибга солинади. Бу жараёнда шартномалар ҳаваскор, қўнгилочар, коллегиал ва

профессионал даражада спорт индустрияси ва спорт хуқуқида энг аҳамиятли рол ўйнайди. Профессионал ва ҳаваскорлик спортидаги шартномалар турлари ўзаро фарқланади[5].

Ўрганилаётган соҳада професионал спортчи спортнинг ўйин турларида, одатда, меҳнат шартномасини тузади. Шу билан бирга, професионал спортчининг хуқуқий мақомини таҳлилидан кўриш мумкинки, професионал спортчилар иштирокидаги професионал спорт муносабатларида нафақат меҳнат ва аралаш турдаги шартномалар, балки фуқаролик-хуқуқий шартномалар ҳам тузилиши мумкин. Меҳнат шартномаси билан бир қаторда фуқаролик-хуқуқий шартномаларни тузишмеҳнат шартнома-сининг функционал мақсадларини сақлаб қолган ҳолда шартнома шартларининг бажарилиш кафолатлари масаласини ҳам ҳал этади[6].

Спортчи ва спорт ташкилоти ўртасидаги муносабатларни тартибга солишда меҳнат ва фуқаролик қонунчилигини фарқлаш жуда қийин. Хусусан, мустақил равишда машқ қиласидаган ва фақат мусобақаларда қатнашадиган индивидуал спортчиларнинг хуқуқий ҳолати аниқ эмас. Ёки голф сингари спорт турларида спортчилар ўзлари учун спорт клубига бадал тўлайдилар, бу эса уларга машғулотлар учун шароит яратиб беради ва мусобақаларда қатнашишларини таъминлайди[7].

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 75-моддасига мувофиқ, меҳнат шартномасининг муддати номуайян муддатга; беш йилдан ортиқ бўлмаган муайян муддатга; муайян ишни бажариш вақтига мўлжаллаб тузилиши мумкин.

Агар меҳнат шартномасида унинг амал қилиш муддати кўрсатилмаган бўлса, меҳнат шартномаси номуайян муддатга тузилган деб ҳисобланади.

Номуайян муддатга тузилган меҳнат шартномаси ходимнинг розилигисиз муайян муддатга, шунингдек муайян ишни бажариш вақтига мўлжаллаб қайта тузилиши мумкин эмас.

Спортнинг ўзига хос хусусияти меҳнат ҳуқуқий муносабатларни ўрнатиши муддатига боғлиқ, амалда номуайян муддатга тузилган шартномалар бундан истисно. Қоида тариқасида спорт шартномалари маълум муддатга тузилади, унинг давомийлиги шартнома тарафларининг хусусиятидан келиб чиқади. Хусусан, шартноманинг муддати спортчининг ёши, унинг малакаси, спорт тури ва бошқаларга боғлиқ ўзгаради.

Спорт шартномаининг энг кенг тарқалган муддати 3-5 йилни ташкил этади, аммо уларни 1 йил муддатга тузиш ҳолатлари ҳам истисно эмас. Бир қатор спорт ташкилотлари маҳсус чекловлар қўядилар: масалан, ФИФА 18 ёшгача бўлган футболчи билан тузиладиган шартнома муддати 3 йилдан ошмаслиги керак.

Алоҳида ҳолатларда шартномаларнинг аниҳ тугаш вақти белгиланади. “Ўзбекистон Республикасининг хаваскор клублари ўртасида 2020 йилда мусобақалари ўтказилиши тўғрисида”ги Низомнинг 16-модда 2-бандида шартномалар муддати 1 август ёки 31 декабрда тугайди деб мустаҳкамланган. Спорт соҳасида, шунингдек шартномада маълум бир ишни бажариш учун муддат белгиланиши мумкин. Масалан, Олимпия захиралари коллежлари ўқувчилари билан шартнома тузишда ишлатилади. (маълум бир иш давомида, яъни ўқувчиларнинг ўқиш муддати давомида).

Агар муддатли меҳнат шартномаси тузилган бўлса, унда унинг амал қилиш муддати билан биргаликда муддатли меҳнат шартномасини тузиш учун асос бўлган ҳолат (сабаб) кўрсатилиши лозим. Спорт шартномаида спортчининг профессионал фазилатларини аниқлаш учун синов муддатини белгилаш мумкин, ушбу муддат 3 ойгача белгиланади. Синов муддати тугагандан кейин қониқарсиз натижалар юзага келган тақдирда, спортчига ишдан бўшатиш нафақаси тўламасдан ишдан бўшатилиши мумкин. Бундай ҳолатда спортчи судга шикоят қилиш ҳуқуқидан маҳрум бўлади. Шуни унутмаслик керакки, Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси 18 ёшга тўлмаган фуқаролар учун синов муддатини белгилашни таъқиқлайди.

References:

1. Van Rompuy B. ASSER International Sports Law Series. – Springer, 2020. – P. 210-230. – URL: <https://www.springer.com/series/8858>
2. Regulation and Liabilities of Parties in Sports Contract. Avinandan Chattopadhyay. https://papers.ssrn.com/sol3/Delivery/cfm/SSRN_ID2145520
3. Dogovornie formi pravovix otnosheniy v sfere professionalnogo sporta. L.A.Rodionov, kand. yur. nauk, dotsent Samarskiy yuridicheskiy institut FSIN Rossii Rossiya, g. Samara
4. Maveyev.S.F. Problema razgranicheniya lyubitelskogo i professionalnogo sporta. <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-razgranicheniya-lyubitelskogo-iprofessionalnogo-sporta/viewer>
5. Shevchenko O.A. Osobennosti regulirovaniya truda v sfere professionalnogo sporta / Mejdunarodnaya assotsiatsiya sportivnogo prava (IASL); Komissiya po sportivnomu pravu Assotsiatsii juristov Rossii. - M., 2014.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги қонуни. Тошкент ш., 2015-йил 4-сентябр.
7. Panagiotopoulos D. Sports Law: Lex Sportiva & Lex Olimpia. – USA: Createspace Independent Publishing Platform, 2017. – 740 p.

QUROQCHILIK SAN’ATINING YEVROPA VA OSIYO DAVLATLARIDA
TARQALISH TARIXIDAN.

Umarqulova Gulchiroy.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo’nalishi (tarix) I-kurs magistranti

E-mail: gulchiroyumarqulovaGmail.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada quroq, quroqchilik san’atining Yaponiya, Rossiya, Angliya va Qozog’istonda foydalanishi va O’zbekistonda rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlari: milliy hunarmandchilik, quroq, patchwork, mato parchalari, sashiko, uy-ro’zg’or buyumlari, quroqli choyshablar.

Uzoq o’tmishi va boy madaniy merosiga ega bo’lgan yurtimizda hunarmandchilik qadimdan taraqqiy topgan. Hunarmandchilik oddiy mehnat qurollari yordami bilan yakka tartibda va qo’l mehnati yordamida milliy an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarishga asoslangan sohadir.

O’zbekistonda hunarmandchilik chuqur ixtisoslashgan bo’lib, o’zida xilmalixil kasblarni birlashtirgan. Sharqiy musulmon mamlakatlarida bo’lgani kabi, Ozbekistonda ham ayollar qadimdan boshlab, kashtachilik, to’quvchilik, quroqchilik kabi kasblar bilan uyda shug’ullanib kelmoqdalar. Quroqchilik qadimdan ayollarning eng sevimli uy hunarmandchiligi turi bo’lib, mazkur san’at ko’plab xalqlar orasida juda mashhurdir. Ayollar o’zlari tikkan quroqlari orqali bejirim, go’zal uy-ro’zg’or buyumlarini yaratib, o’z mehnatlari bilan oilasiga, odamlarga foyda keltirishni qadriyat darajasiga ko’targanlar. Quroq- mayda bo’laklardan ulab, to’plab, bezak yaratish; shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi.¹⁷ Boshqa bir manbada esa, quroq so’zi oq-qora so’zida kelib

¹⁷ O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. XI jild. Toshkent. 2000-y. 395-bet.

chiqqanligi aytilgan. Chunki quroq tikishda asosan, oq-qora matodan foydalanilgan.

¹⁸ Ayollar mohir qo'llari bilan yaratgan quroq ajoyib va go'zal ko'rpa, korpacha, so'zana, dasturxon, yostiq jildlari san'at namunasi darajasiga aylangan. Uzoq o'tmishda chiroyli va sifatli matolar juda qimmat va kamyob bo'lган. Shu sababli ayollar mato qoldiqlarini tashlab yuborishga ko'zlari qiymasdan, mato parchalarini bir-biriga ulab, bolalarga kiyimchalar, yostiq jildlari tikishgan. Shu taxlit matoni iqtisod qilish orqali bu usul milliy hunarmandchilik darajasiga olib chiqilgan. Ba'zi manbalarda, dastlab, quroqchilik bilan asosan, kambag'allar shug'ullangan degan ma'lumotlar uchraydi.

Quroqchilik bilan ayollar qadimgi davrlardan boshlab shug'ullanganlar. Quroq hunarmandchiligining ilk namunalari mil.avv. 980-yil qadimgi Misr davlatida topilgan. Qohiradagi Bulat muzeyida ohu terisi parchalaridan bir xil rangda quroq qilib tikilgan bo'lak namunasi saqlanadi. Shuningdek, mil.avv. IV-IX asrlarda “Mingta Buddha xarami” ibodatxonasiga tashrif buyurgan ziyoratchilar o'z kiyimlaridan parcha tashlab ketganlar. Xaram xizmatchilari qoldirilgan kiyim parchalaridan ziyoratchilatni eslatuvchi gilam tikkanlar. Gilam 1920-yilda arxeolog Artur Shteyn tomonidan topilgan. Tengi yo'q manzarali gilam Petsam ibodatxonasida saqlanmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan quroq san'atining vatani Yevropa hisoblanadi. O'zbek adabiyotlarida quroq san'ati haqida ma'lumotlar juda oz. Chet davlatlarida quroq atamasi uchramaydi, ammo bu atama patchwork tarzida namoyon bo'ladi. “Patchwork” atamasi ingliz tilidan tarjima qilinganda, “patch”- qiyqim, “work”- ish ya'ni qiyqimlar bilan ishlash degan ma'noni anglatadi.¹⁹ Quroq milliy hunarmandchilik san'ati sifatida, eng avvalo, Angliyada paydo bo'lgan. 1540-yilda Genrix VIII sevikli rafiqasi Ketrin Xovardga to'y oldidan 23 ta quruq namunasi tushirilgan libosni hadya sifatida beradi. Libos quroqchilik tarixida o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Quroq ishlari Yevropaga,

¹⁸ <http://www.hozir.org.>quroqchilik-san'ati.-darsning> –ta'limiy-maqsadi.html?page=3. 7.05.2022.

¹⁹ <https://kopilkaurokov.ru>> Xalq hunarmandchiligi. Quroqchilik san'ati tarixi. 7.05. 2022.

ehtimol, salib yurishlaridan keyin ritserlar Falastindan bayroq, gilam va shunga o’xshash turli buyumlarni olib kelish jarayonida keng yoyilgan.

Yaponiyada VII asrda sholi ekin maydonlari ramziylashtirilib, kvadrat bo’lakli qiyqimlardan tikilga quroqlar ommalashdi. Shuningdek, bunday quroq namunalaridan Buddha ibodatxonasi rohiblari o’z kiyimlarida keng qo’llashgan. Bunga ibodatxonalarning kamchiqimligi isboti sifatida ham qarashgan. Quroq tikish texnikasining yapon usulida Sharq ipak matolariga qiziqish va G’arbning qovulgan buyumlarini birlashganini ko’rishimiz mumkin. Yapon quroqchiligidagi, asosan, tabiatga uyg’un holda qizil, yashil va jigarrangdan ko’proq foydalanilgan. Yapon quroqlarida bezatish uchun tikiladogan kashtalar sashiko deb nomlangan. Yaponchada “sashiko” so’zi “buyuk omad, baxt” degan ma’nolarni anglatadi. Yapon an’analari ko’ra, sashiko naqshlari oq ip bilan quyuq, asosan, ko’k rangli matolarga tikilgan. Ramziy chizmalar bilan tikilgan kiyim yovuz ruhlardan himoya qilishiga ishonilgan.²⁰ Yaponiyada sashiko usulida qoldiq matolardan yaratilgan kiyimlar kimano deb ataladi.

Rossiyada ingliz matolari qimmat bo’lganligi bois, kiyim tikish jarayonida qolgan mato qoldiqlaridan saralari saqlangan va undan yana tayyor kiyimlar yaratishgan. XVII asr so’nggi choragiga kelib Rossiyada quroqchilik san’ati yuksak cho’qqiga chiqadi. Tikuv mashinalari ishlab chiqilgandan so’ng esa, mato qoldiqlaridan sovuqdan saqlash maqsadida chit matosining ustiga turli va oddiy bezakli gullar tikish taraqqiy etdi. Rossiyada quroqli choyshablar tumor hisoblangan. Ona yangi tug’ilgan chaqaloqqa o’z kiyimidan ko’rpachalar tikkan. Bundan maqsad, chaqaloqni yovuz kuchlardan himoya qiladi deb ishonishgan. Kelinning sepiga har doim o’zi tikkan ko’rpacha – bu baxtli nikohning kafolati deb qarashgan. O’tgan asrlarda to’y uchun yamoqli choyshab tikishgan. Uning uchun kelin-kuyov, ularning qarindoshlari va do’starining kiyimlaridan parchalar yig’ilib, yosh oilaga yahshilik va baxt tilagan holda quroq san’atini boyitib borishgan .

²⁰ <https://malun.ru/uz/finish/kak-nazyvaetsya-yaponskoe-dekorativno-prigladnoe-prikladnoe/>

Quroqchilik san'ati rivojida qardosh xalqlarimizdan bo'lgan qozoq quroqlari ham o'z amaliy ahamiyatiga ega. Qozoqlarda quroq san'ati o'zbek xalqi kabi qadimdan taraqqiy etgan. Qozoq quroq namunalari boshqa xalqlar kabi o'zining milliy madaniyati, turmush tarzi, xalqning ijodiy qobiliyatlari asosida yaratiladi. Qozoq quroqlarida inson hayotidagi muhim belgilar: salomatlik, mehribonlik tuyg'ulari, asosan, ranglar uyg'unligi asosida ramziylashtiriladi. Qozoq quroqlarida ranglar muhim ahamiyatga ega. Oq rang, ayniqsa, chizma ichida bo'lsa, yo'l, baxtsaodat,adolat ramzi sanaladi. Qizil rang-nur, quvvat chiqaruvchi quyosh, sevgi-muhabbat, qora rang-kuch-qudrat, ulug'vorlikni bildiradi. Qizil va ko'k rangning birlashuvi serquyosh o'lkaning tabiiy boyliklarini bildirib, kishining baxtsaodat, farovonlik to'g'risidagi orzularini ifodalaydi. Tussiz, xira ranglar qayg'u-alam, g'am-anduh, tushkunlik, umidsizlikni bildiradi. Qozoq san'atida har bir shakl ramziylashtirilgan. Masalan, uchburchak orqali tog'larni, aylana shaklida quyoshni, kvadratda yerni, xochda quyoshning harakatlanishini anglatadi. Quroqning eng muhim ramzlaridan yana biri- bu oila, qarindosh-urug' xursandchilik va boshqalar. Qoldiq matolarni bir-biriga biriktirish asnosida omad, baxt, xursandchilik, salomatlikni tiklash g'oyasi bilan biriktiriladi. Aynan shuning uchun, quroq qozoq xalqi hayotining ajralmas qismi sifatida qaraladi.²¹ Qozoqlar uchun quroq rang terapiyasi sifatida davolovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jumladan, Qadimgi Xitoy mamlakatlarida kasal insonga quroqdan tikilgan kiyim kiyib yurishi va uylarni rang-barang quroq namunalari bilan bezatishi buyurilgan, bu orqali esa insonning kayfiyati ko'tarilib, o'ziga bo'lgan ishonchi ortishi isbotlangan.²² Shu jumladan, O'zbekiston hududida ham quroqchilik san'ati ham rivojlanib, o'z maktablariga ega bo'lib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti -Islom Karimov tashabbusi bilan tariximizning yoritilishi, milliy an'analarimizning qayta tiklanish ishlari olib borildi. 1997-yil 31-mart “Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan

²¹ Т. М.Семёнова. Народное искусство и его проблемы.М.: 1977г. 37-стр.

²² S.S. Bulatov. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati.T.:1991. 134-b

qo'llab- quvvatlash chora- tadbirlari to'g'risidag" gi qaror milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi va Amaliy san'atning ahamiyatini oshirish, qo'lida ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'analarini va o'ziga hos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabrdagi "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi PQ-77-son qarori qabul qilindi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishida, shuningdek, ayollarning milliy hunarmandchilik bilan shug'ullanishida keng imkoniyat eshiklarini ochdi. Yevropa va Osiyoda keng yoyilgan quroqchilik bugungi kelib yanada rivojlanib, assimilatsiyalashib bormoqda. Mazkur san'at milliylik va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda o'zbek ayollarining go'zal quroq namunalaridan bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari o'zining sifati, milliy o'zligimiz, badiiy yuksalishi bilan tarixiy an'analarimizni o'zida uyg'unlashtirishi bilan ham dunyoga bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. XI jild. Toshkent,2000.
2. Т. М. Семёнова. Народное искусство и его проблемы.М.: 1977-г.
3. S.S. Bulatov. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent, 1991.
4. PF-1741-son 31.03.1997. xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirish davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-168968?ONDATE=31.03.1997>
5. PQ-77-son 30.12.2021. Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5807559>
6. www.hozir.org
7. www.kopilkaurokov.ru

УДК 624.131.384

**МЕХАНИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ГРУНТА И ПОГНОЗ
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ВОЗДЕЙСТВИЯ СИЛ НЕГАТИВНОГО
ТРЕНИЯ ПО БОКОВОЙ ПОВЕРХНОСТИ СВАИ**

Бахромов Махмуд Маматханович-доц.кафедры “C3C”

Олимов Бегзод Баҳтиёр ўғли – магистр M2-21

Маликов Сайфиддин Садриддин ўғли – магистр M2-21

ФерПИ

Аннотация

В статье приведены результаты экспериментального определения механических характеристик песка, необходимых для вычисления удельных сил негативного трения, показана аналогия сдвиговых процессов при плоском сдвиге песка по металлической поверхности и модельных испытаний свай. Также приведены опытное определение коэффициента бокового давления грунта в трех разных приборах и их результаты.

Ключевые слова: трения грунта, плоский сдвиг, шерховатость, нормальное напряжения, коэффициент бокового давления.

Annotation

The article presents the results of an experimental determination of the mechanical characteristics of sand necessary for calculating the specific forces of negative friction, shows an analogy of shear processes for a flat shear of sand on a metal surface and model tests of piles. An experimental determination of the lateral pressure coefficient of soil in three different devices and their results are also presented.

Key words: soil friction, flat shear, roughness, normal stress, lateral pressure coefficient.

Достоверность определения величины сил негативного трения наряду с правильностью расчетной модели механического взаимодействия грунта со сваей обусловлена также и способами определения механических характеристик грунтов.

Применительно к песчаным оттаивающим грунтам и сваям-стойкам, погруженным в грунт без нарушения его природного напряженного состояния, к таким характеристикам относятся: удельный вес грунта γ , угол сдвига его по материалу сваи ϕ_{gm} или угол внутреннего трения грунта ϕ , коэффициент бокового давления грунта в состоянии покоя ξ_0 , и величина его сдвигового перемещения δ_0 .

Для определения величины ϕ_{gm} использовался одноплоскосной прибор ГГП- 30. Сдвиг песка осуществлялся по гладкой и шероховатой плашкам, поверхность которых соответственно была идентичной сваям ТС-1 и ТС-2 (ТС-3) . Величина ступеней сдвигающей нагрузки и длительность их выдерживания принимались по ГОСТ 12248-98 с шестикратной повторностью при каждом значении нормального давления. Результаты испытаний представлены на рис.1, из которого видно, что при $0,1 \leq \sigma_n \leq 0,4$ МПа значения угла сдвига грунта по материалу ϕ_{gm} практически постоянны ($\phi_{gm}=30^0$), в диапазоне давлений $0,04 - 0,1$ МПа наблюдается изменение ϕ_{gm} , близкое к линейному ($40^0 \geq \phi_{gm} \geq 31^0$), а при $\sigma_n < 0,04$ МПа – резкое возрастание ϕ_{gm} ($40^0 < \phi_{gm} \leq 71^0$)(рис.2). Этими же испытаниями установлено, что величина ϕ_{gm} по отношению к величине угла внутреннего трения грунта ϕ составляет (при $\sigma_n = 0,04$ МПа) при шероховатой поверхности 0,92 , при гладкой – 0,7 .




Рис.1.Зависимость угол внутреннего
максимальных
трения грунта от нормального давления
давления
при плоском сдвиге




Рис.2.Зависимость удельных
сил трения грунта от нормального
давления
при плоском сдвиге

Для песков, использованных в полевом опыте , испытания на плоский сдвиг проводились по шероховатой металлической плашке при влажном и водонасыщенном состояниях песка. Зависимость ϕ_{gm} от σ_n имеет примерно такой же характер , что и для лабораторных песков, а влияние влажности оценивается уменьшением ϕ_{gm} примерно на 30% для плотностью водонасыщенных песков.

Испытания на плоский сдвиг также выявил , что по данным этих испытаний можно достаточно адекватно прогнозировать закономерности формирования сил негативного трения в сваях: при плоском сдвиге – $\delta_0 = 1,5$ мм, в модельных испытаниях - $\delta_0 = 1,5 - 2$ мм; при $\delta > \delta_0$ уменьшение предельного сдвигающего усилия при плоском сдвиге составляет 10% , в модельных испытаниях – 11%; изменение направления сдвига приводит к уменьшению τ в 1,25 раза, в модельных испытаниях в 1,3 , при этом величина δ_0 увеличивается в обоих случаях в 3,3 – 3,4 раза; вторичное изменение направления сдвига также в обоих случаях не оказывается на величине сил трения; наконец, влияние повышенной шероховатости оценивается также одинаково – 1,33 – 1,35 раза.

Опытное определение коэффициента бокового давления грунта ξ_0 производилось на трех приборах. Первый прибор представлял собой цилиндрический бак высотой 40 см и диаметром 50 см, на внутренней стороне которого размещалась резиновая оболочка, наполненная водой. В бак укладывался песок ($\gamma_0 = 16,5 \text{ Кн}/\text{м}^3$) , а вертикальное давление на грунт осуществлялось через гибкий гидравлический штамп. Измерение горизонтального (в оболочке) и вертикального (в штампе) давлений производилось при помощи образцовых манометров с классом точности 0,6 , позволяющим замерять давление с точностью 0,0002 МПа. Вторым прибором являлся гидрокомпрессионный прибор ЛИСИ, неоднократно описанный в литературе, позволяющей измерять горизонтальное давление при вертикальном σ_v , превышающем 0,05 МПа. Третий прибор, состоящий из тензокольца с наружным диаметром 144 мм высотой 32 мм и толщиной стенки 1 мм, вставленного в массивную металлическую обойму такой же высоты и штампа, передающего вертикальное давление от винтового домкрата, использовался при давлениях

$$\sigma_v \leq 0,05 \text{ МПа} .$$

Результаты опытов в трех приборах незначительно различаются между собой и сводятся к следующему: по мере роста σ_v значения ξ_0 непрерывно увеличиваются до 0,43 (для песков, использованных в лабораторных испытаниях) и до 0,35 и 0,3 (для песков, использованных в полевых опытах соответственно во влажном и водонасыщенном состояниях) , а затем, начиная с $\sigma_v = 0,07 \text{ МПа}$ (в первом случае) и с $\sigma_v = 0,09 \text{ МПа}$ (во втором случае) оно становится практически постоянным (рис. 3).




Рис. 3. Изменение значений коэффициента бокового давления в зависимости от нормального давления

Выводы:

1. Достоверность определения величин сил негативного трения, действующих на сваи-стойки в оттаивающих грунтах, в наибольшей мере может быть обеспечена использованием значений механических характеристик грунтов, определенных экспериментально. При этом необходимо учитывать зависимость φ_{gm} и ξ_0 соответственно от нормальных (к плоскости сдвига) и вертикальных давлений.

2. Полученная в опытах зависимость угла трения грунта по материалу φ_{gm} от величины нормального давления σ_n с явно выраженной нелинейностью в области малых давлений сходна с аналогичной зависимостью для угла внутреннего трения грунта.

3. Соотношения между φ_{gm} и φ , полученные для шероховатой и гладкой металлических поверхностей, показывают, что значение φ_{gm} не всегда можно принимать равным φ . Наибольшая ошибка в величине сил трения при этом может достигать 30%. В целом эти результаты находятся в пределах соотношений φ_{gm} и φ , полученных различными исследователями для песчаных грунтов.

4. Увеличение значения ξ_0 с ростом вертикального давления и его стабилизация при некотором значении последнего отмечались и ранее,

величина стабилизированного значения $\xi_0 = 0,43$ укладывается в диапазоне ранее полученных другими исследователями значений ξ_0 .

5. Закономерности сдвига песка по контакту со сваей и соответственно воздействия на нее сил негативного трения можно прогнозировать по результатам испытаний песка на плоский сдвиг, если условия формирований сил трения подобны (одинаковая шероховатость поверхности материала сваи и плашки, отражающей состояние боковой поверхности сваи; равные нормальные напряжения; одинаковые направления сдвига).

ЛИТЕРАТУРЫ

- 1.Бахромов М.М. Закономерности воздействия сил негативного трения по боковой поверхности сваи в оттаивающих песчаных грунтах. Автореферат на соискание ученой степени кандидата технических наук. Ленинград- 1989.
2. Бахромов М.М. Умаров Ш.А. К вопросу определения сил трения по боковой поверхности свай в песчаных грунтах.// Илмий – техника журнали. ФерПИ.2016. Том20№4.Фарғона-2016.

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG`RIKENGLIK O`ZBEK
XALQINING YUksak QADRIYATIDIR

Eshquvvatova Maxfuza Qayimjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika instituti

Gumanitar fanlar fakulteti,

Tarix yo‘nalishi 21/2-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: F.Kamoliddinov.

ANNOTATSIYSA: Ushbu maqolada millatlararo totuvlik g`oyasi va O`zbekistonda millatlararo munosabatlar, shuningdek, diniy bag`rikenglikning shakillanishi va diniy bag`rikenglik hamda vijdon erkinligi kabi tushunchalarni o`zaro uzviy bog`liqligi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Millatlararo munosabatlarda davlat siyosati, milliy madaniy markazlar, harakarlar strategiyasi, qonunlar, diniy bag`rikenglik.

Kirish

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhasida keng qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda va o`z samarasini bermoqda. Shuningdek, yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari o`rtasida o`zaro hurmat, teng huquqlilik hamda hamjihatlikni mustahkamlash, uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e`tabor qaratildi. Mazkur maqolada millatlararo va dinlararo munosabatlarni rivojlantirish va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat uni amalga oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar haqida fikr yuritilgan. Maqolada O`zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoillar sirasiga, fuqarolarning teng huquqliligi, qonun ustuvorligi, tili va diniy qadriyatlari kabi tushunchalar va ularga munosabat masalalari haqida so‘z boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ko`p millatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadida millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenlikni shakillantirishga

qaratilgan bo`lishi kerak. O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, tez orada milliy siyosatning o`ziga xos uslubini ishlab chiqdi. Ayni shu siyosat milliy bag`rikenglikni rivojlanishiga zamin yaratdi. So`ngi yillarda davlat siyosatini ustuvor yo`nalishlaridan biri bu - jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash, o‘zaro do`stlik muhitini va ko`p millatli katta, yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashdan iboratdir. Yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma`rifiy aloqalarni kengaytirishga yo`naltirilgan keng miqiyosdagi ishlar amalga oshirildi [1]

Natijalar va muhokama. O`zbekiston hududida ham o`z madaniyati va an`analariga ega bo`lgan **130 dan ortiq** millat va ellat vakillari yashaydi. Ular ham mamlakatning barcha fuqarolari qatori bir xil huquq va majburiyatlargacha ega. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **4-moddasida** ko`rsatilganidek: **“O`zbekiston Respublikasi o`z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va ellatlarning tillari urf-odatlari va an`analarini hurmat qilishini ta`minlaydi. Ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.** O`zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy madaniy markazlar faoliyat yurutib kelmoqda. Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tamonidan respublika hamda viloyatlarda **1989-yilda** tashkil etilgan. Bu markazlarning rivojlanishi va ravnaq topishi O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng boshlandi.[2]

Millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash, O`zbekistonning zamонавиј давлат сифатида ривојланиш стратегијасининг ажралмас қисми hissobланади. Мамлакатимизда **2017-2021-йillarda O`zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha “Harakatlar strategiyasi”ga muvofiq** мазкур соҳага алоҳида етабор qaratilmoqda. Jumladan, harakatlar strategiyasi doirasida мамлакатимизда millatlararo va konfensiyalararo muloqotni rivojlantirish borasida institutsional yondashuv yo`lga qo`yilgan.[3]

Bunday yondashuvlarning yo‘lga qo‘yilishida ham yurtimizda yashab kelayotgan turli millat vakillariga bo‘lgan e’tiborbar va hurmatning bir belgisi hisoblanadi.

Diniy bag`rikenglik jamiyat hayotida, rivojida betakror rol o`ynashi hech kimga sir emas. Buning sabablari esa, jamiyat rivojlanishi va unda tinch-totuv osoyishtalikni ta`minlash hamda chegaralar dahilsizligi, shu bilan birga mamlakat ichida etnik mojarolarni oldini olish uchun diniy bag`rikenglikkab e`tabor berish zarur. Chunki eng xafli va tez avj oladigan mojoro **diniy va etnik** mojoro hissoblanadi. Tinch-totuvlikka asoslangan davlatimizda bunday mojoralarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Dunyoning eng dolzarb muommolaridan biri, bu xalqlar va dinlar o`rtasidagi bag`rikenglik, tolerantlik g`oyasidir. Ushbu tushuncha atrofida yer kurrasining barcha xalqlari, ellatlarning jipislashuv zaruriyati tug`ildi. Chunki faqat bag`rikenglikgina turli ko‘rinishdagi dunyoni falokatlardan, bo`lajak fojalardan asraydi. Shu boisdan **YUNESKO 1995-yili Parijda “Bag`rikenglik tamoillari deklaratsiyasi”ni qabul qildi. BMT tamonidan esa 1996-yildan buyon har yilning 16-noyabr sanasi “Bag`rikenglik kuni” deb e`lon qilindi.** Ushbu deklaratsiyada diniy bag`rikenglikning ijtimoiy jihatlariga alohida urg`u berilgan. Xususan, shunday deyilgan: **“Bag`rikenglik bugungi kunda har doimgidan ham muhimroqdir. Biz iqtisodiy globallshuv jarayoni, aloqa vositalari, tez rivojlanayotgan inttegratsiya va o`zaro aloqadorlik, katta miqiyosdagi migratsiya va aholining ko`chishi, urbanizatsiya va ijtimoiy tuzulmalar asrida yashamoqdalar. Har bir mintaqa serqirradir va shuning uchun murosasizlik va nizolarning ko`payishi dunyoning barcha nuqtalariga ta`sir qiladi. Bu tahdid global harakterga ega bo`lganligi sababli, uni milliy chegaralar doirasida cheklanib qolmasligi mumkin emas”**[4]

Demak, har bir mamlaratda bu borada iqtisodiy o‘sishda ham, millatlararo totuvlik va bag`rikenglik tamoyili ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatib turganligini bildiradi.

Dinlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik va vijdon erkinlikgi kabi tushunchalar o`zaro uzviy bog`liq bo ‘kgan hodisa sanaladi. Har bir davlatda ham vijdon erkinligi masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab hodisa sanalgan va bunga qonin doirasida ish ko‘rilgan. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining **31-moddasiga binoan hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Belgilangan moddaga ko‘ra har bir inson xohlagan dinga etiqod qilishi yoki hech qaysi dinga etiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlar majburan singdirishga yo`l qo`yilmaydi, deb belgilab qo`yilgan.** **1998-yil 1-mayda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tamonidan yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risi”dagi** qonun qabul qilindi. Mazkur qonun O`zbekistonda dinning mavqeyi va o`rnini aniqiq qilib belgilab beradi. Bu esa sekuliyarizim prinsipining har qanday dunyoviy davlat uchun muhim ekanligini ko`rsatadi.[5]

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda yurtimizda olib borilayotgan keng ko`lamli islohatlar markazida avvalo inson manfaati, huquqi, erkinligini ta`minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaati tinchlik, osoyishtalik o`zaro hurmat va mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta`minlash mumkin. Hozirgi kunda butun dunyoda ro`y berayotgan **coronovirus** pandimiysi bilan bog`liq inqirozga duch kelingan bir vaqtda ko`plab davlatlarda millatlararo ziddiyatlar kuchayib borayotganligining guvohi bo`lib turibmiz. Shu sababli yurtimizda olib borilayotgan islohatlarni izchillik bilan davom ettirish uchun birdamlikni, hamjihatlikni saqlash muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, tabora globollashib va murakkablashib borayotgan bu zamonda har bir inson o`z dini hamda boshqa dinlarga nisbatan o`zaro hurmat va hamjihatlikda birlashib yashashi lozim. Bu borada O`zbekiston ancha muvaffaqiyat qozonib kelmoqda deb o`ylaymiz. Sababi yurtimizda dinlararo, millatlararo munosabatlarga juda katta e`tabor qaratilmoqda. Shuning uchun ham O`zbekiston tom ma`noda millatlararo va diniy bag`rikenglikni yuksak an`analariga amal qilayotganligi jahon hamjamiyati tamonidan e`tirof etib kelinmoqda.

Prezidentimiz aytganlaridek: “Bugun mana shunday xafli va tahlikali zamonda jahon moliyaviy inqirozi davom etayotgan bir vaqtida, el-yurtimiz nimaki qo`lga kiritmasin, bularning barchasi yurtimizda tobora mustahkam bo`lib borayotgan tinchlik, osoyishtalik, millatlar, dinlar va fuqarolararo totuvlik va ahillik bir-birimizga o`zaro hurmat va ehtirom hissobidan desak, o`ylaymanki, hech qanday xato bo`lmaydi”.

Yurtboshimiz xalqi uchun jon kuydirayotgan bir vaqtida, biz yoshlar ham birgalikda harkat qilsak, oldimizga qo`ygan vazifalarni maqsadga muvofiq holda amalga oshirgan bo`lar edik. Bu borada esa biz yoshlar bilim olishimiz, o‘z ustimizda tinmay ishlashimiz va aqliy shuurimiz, ongimiz bilan rivojlanayotgan mustaqil respublikamizning barcha sohalariga munosib hissa qo‘shmog‘imiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonun hujjatlari milliy bazasi”.16.11.2019-yil.
2. N.Jo ‘raye, A.Zamonov. “O ‘zbekiston tarixi”. Toshkent. G‘.G‘ulom” nashriyot matbaa ijod uyi, 2018.
3. w.w.w. liv.uz.sayti
4. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 1984-yil.
5. A.V.Norbekov. “Dinshunoslik asoslari”. Toshkent, 2007-yil.

**SIYOSIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT DEMAKRATLASHUVIDAGI
O'RNI.**

Amanov Otabek Ravshan

*Ilmiy rahbari: K.Bahriyev "Media
nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi
o'qtuvchisi.*

Annatatsiya: Maqolada siyosiy madaniyatning zamonaviy muammolari, demokratiyani rivojlantirish, jamiyat siyosiy hayotini modernizatsiyalashdagi o'rni, siyosiy madaniyatni rivojlantirish amaliyotiga doir yondashuvlar tahlil etiladi. Siyosiy madaniyatning siyosiy institutlar faoliyatidagi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi jihatlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy harakatlardagi strategik maqsad va vazifalarda ifodalanishiga, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun me'yoriy-huquqiy asos sifatida baho beriladi.

Kalit so'zlar: Siyosiy madaniyat, siyosiy institutlar, ijtimoiy tashkilot, zamonaviy jamiyat, siyosiy maqsadlar, siyosiy mafkura, demokratlashtirish, modernizatsiyalash, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati.

Kirish: O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalqlari siyosiy madaniyatining tarixiyfalsafiy va huquqiy jihatlari ancha keng o'rganilgan va bu borada ko'p sonli monografiyalar, kitoblar va broshyuralar nashr qilingan. Ammo siyosiy madaniyatning zamonaviy muammolari demokratiyani rivojlantirish, jamiyat siyosiy hayotini modernizatsiyalashdagi uning o'rni hanuzgacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda siyosiy madaniyatning 50 dan ortiq ta'rifi mavjud. Ularni tahlil qilish va har bir yangi ta'rifni qayta ko'rib chiqish bizning vazifamizga kiradi. Biz olimlar tomonidan umumqabul qilingan «barcha vujudga keluvchi siyosiy institutlar, ularning ijtimoiy vazafalari, hokimiyat va shaxs, guruhlarning o'zaro

hamkorlik shakllari jamiyatning mavjud siyosiy madaniyati bilan belgilanar edi» degan farazdan kelib chiqamiz. Shuning uchun siyosiy madaniyat «umumqabul qilingan hamda siyosiy tajribani tartibga solish va jamiyat barcha a'zolarning siyosiy xatti-harakatlarini boshqarish uchun xizmat qiladigan qadriyatlar, yo'l-yo'riqlar, e'tiqodlar, maqsadlar va ularni ifoda etuvchi timsollar majmuidan iboratdir. U o'zida nafaqat siyosiy ideallar, qadriyatlar, yo'l-yo'riqlarni, balki siyosiy hayotning amaldagi me'yorlarini ham birlashtiradi. Shu bilan siyosiy madaniyat va siyosiy xattiharakat, hukumat, shaxs va jamiyatning o'zaro hamkorligi eng sodda namunalari va qoidalarini belgilaydi»1.

Asosiy qism:Zamonaviy jamiyat - siyosiylashgan jamiyatdir, chunki siyosat jamoa, shaxs va institutlar hayot faoliyatining barcha sohalariga singib ketgan. Siyosat barcha narsalarni o'z ichiga olgani bone jamiyatni birlashtiradi, uning yutuqlarini umumlashtiradi va ijtimoiy ahamiyatga maqsadlarga yo'naltiradi, kishilarning davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokiga imkon yaratadi. Siyosat barcha narsalarni o'z ichiga olgani, jamoa hayot faoliyatining barcha sohalariga singib ketganligiga qaramay, faqat siyosiy institutlargina boshidan oxirigacha siyosat bilan yo'g'rilgan, siyosatlashgandir. Siyosiy madaniyat siyosiy institutlarning ushbu xususiyati bilan chambarchas bog'langan va ularni siyosiy maqsadlarga yo'naltiradi.Siyosiy institutlar xatti-harakatlari, faoliyatlarining siyosatlashganligi ularning mohiyati, vazifasidan kelib chiqadi. Siyosiy institutlarning mohiyati ijtimoiy guruhlar, xalqga ularning o'z siyosiy- boshqaruva maqsad va vazifalarini amalga oshirish, hukumat organlari faoliyatiga ta'sir o'tkazish uchun kishilarning siyosiy faolligini tashkil etish xizmat qilishdir. «Tashkilotning vazifasi yoki mavjudlik sababi sifatida missiya uning faoliyatida doimiy tarzda, barcha kurinishlarda tashkilot hozirgi vaqtda qanday maqsadlarni ko'zlayotganidan qat'iy nazar, mavjud bo'laveradi. Siyosiy tashkilot missiyasi (vazifasi) jamiyatning siyosiy faoliyatni amalga oshirish va davlat hokimiyati hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirishda ishtirok etish ehtiyojlarini amalga oshirishdir». Siyosiy madaniyat

siyosiy institutlarning ushbu mohiyati va missiyasini uning real xattiharakatlari, faoliyatlarida ifoda etadi.

Xulosa: Siyosiy institutlarning faoliyati korporativ manfaatlarga qanchalik yo‘naltirilgan bo‘lmashin, u insonparvarlik va xayrixohlik tamoyillarini nazardan ochira olmaydi. Barcha islohotlar, siyosiy institutlar faoliyatining boshida inson manfaatlari, hozirgi zamon modernizatsiyalash da’vatlari turadi, mohiyatiga ko‘ra, siyosat xayrixoh bo‘lishi lozim.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoev Sh. Mutsaqilligimizning 28 – yilligiga bag‘ishlangan tan – tanali marosimdagи nutqi. 2019 – yil.
2. O‘zR Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi tug‘risida»gi Farmoni. Rasmiy nashr. T – 2018 y. “Adolat”. 4 – 8 bb.
3. Мирзиёев Ш.М. Оллий Мажлисга Мурожаатномаси. Ҳалқ сози. 2018 – йил 28 –декабр.
4. Мухаев Р.Г. Политология. Учебник. -М.: «ПРИОР», 1997. -С. 260-261.
5. Латфуллин Г.Р., Новичков Н.В. Политическая организация. -СПб.: Питер, 2007. -С. 38-45.
6. Теория политики. Учебное пособие. Под ред. Б.А.Исаева. -СПб.: Питер, 2008. -С. 29.
7. Теория политики. Учебное пособие. Под ред. Б.А.Исаева. -СПб.: Питер, 2008. -С. 99.

KVADRAT TENGLAMALAR VA ULAR USTIDA AMALLAR

Sunnatullo Do'stov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Oliy matematika" kafedrasi o'qituvchisi,

E-mail: dsunnatullo17@gmail.com

Tel: +998-99-083-74-91,

Zaripova Gulasal Ulug'bek qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Matematika ta'lif yo'nalishi

1-bosqich talabasi

gulasalzaripova@gmail.com

Tel: +998-91-412-02-83,

Suyunova Ra'no Ro'ziboy qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Matematika va informatika ta'lif yo'nalishi

2-bosqich talabasi

suyunovarano8@gmail.com

Tel: +998-91-511-22-97,

Xushboqova Saodat Quchor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Matematika va informatika ta'lif yo'nalishi

2-bosqich talabasi

xushboqovasaodat@gmail.com

Tel: +998-88-848-77-76

Kvadrat tenglama — matematikada ko‘p hadli, bir o‘zgaruvchili va ikkinchi darajali tenglama. Umumiy ko‘rinishi odatda quyidagicha ifodalanadi:

$$ax^2+bx+c=0$$

Bu yerda a, b, c — haqiqiy sonlar va $a \neq 0$. Agar $a=1$ bo‘lsa, kvadrat tenglama keltirilgan tenglama, agar $a \neq 1$ bo‘lsa, keltirilmagan tenglama deyiladi. a, b, c sonlari quyidagicha ataladi:

a — birinchi (bosh) koeffitsiyent;

b — ikkinchi koeffitsiyent;

c — ozod had.[1]

Darajalar haqida. Sonlarni o`zini o`ziga ko`paytirsak, 2-darajali son kelib chiqadi, ya’ni shu son ikkilangan bo`ladi. Noma’lum sonlar ham xuddi shunday, bir-biriga kopaytirsak, ikkinchi darajali noma’lum son hosil bo`ladi.

Demak, sonning darajasi deganda, shu sonni o`zini o`ziga necha marta ko`paytirilganini bildiruvchi ko`rsatkichga aytildi.

2-darajali sonlarni kvadratlar deyiladi.

3-darajali sonlarni esa kublar deyiladi.

Oddiy tenglamalarning kvadrat tenglamalardan farqi.

Oddiy tenglamalarda noma’lum sonning darajasi bo`lmaydi va u juda oson yechiladi.

Masalan: Oddiy tenglamalar: Kvadrat tenglamalar:

$$X-4=6 \quad x^2 +4=5$$

$$2(x+3)=10 \quad x^2 -2=1$$

$$X+5=12 \quad 4x^2=25 \quad [2]$$

1-masala. To’g’ri to’rtburchakning asosi balandligidan 10 sm ortiq, uning yuzi esa 24 sm^2 ga teng. To’g’ri to’rtburchakning balandligini toping.

Yechish: To’rtburchakning balandligi x. Uning asosi $x+10$. Masalani shartiga ko’ra, uning yuzi $x(x+10)=24$

Qavslarni ochib, $x^2+10x-24=0$ -ni hosil qilamiz.

$$x^2+10x-24=x^2+12x-2x-24=0$$

$$x(x+12)-2(x+12)=(x-2)(x+12)=0$$

$$(x-2)(x+12)=0; x-2=0; x+12=0$$

$$x_1=-12; \quad x_2=2$$

Javob: To’g’ri to’rtburchakning balandligi 2sm ga teng, $x=-12$ soni masalani yechimi bo’la olmaydi. Chunki kesmaning uzunligi manfiy son bo’la olmaydi.

Bu masalani yechishda kvadrat tenglama deb ataluvchi $x^2+10x-24=0$ tenglama hosil qilindi.

Shunday qilib:

$ax^2+bx+c=0$ ko’rinishdagi tenglamalar kvadrat tenglamalar deb atalishini o’quvchilarga tushuntiriladi va misolllar bilan mustahkamlanadi.

$$3x^2-4x-8=0$$

$$2x^2-3=0$$

$$x^2+5x=0 \quad 12x^2=0$$

$ax^2+bx+c=0$ kvadrat tenglamada: a – birinchi koeffitsiyent, b – ikkinchi koeffitsiyent, c – ozod had. Mashhur shoir va matematik Umar Xayyom (1048 – 1123) asarlarida ham kvadrat tenglamalar uchraydi. Al-Xorazmiy (783 – 850)ning “Al jabr val-muqobala” kitobida kvadrat tenglamaning ba’zi yechimlarini keltirib o’tgan (Qodirov O’ tavsiyalari).

Masala. Noma’lum sonning ikkinchi darajasi va noma’lum sondan 8 tasining yig’indisi 9 ga teng. Shu sonni toping. Masalaning algebraik ifodasi $x^2+8x=9$ bo’ladi.

Bu tenglamani Al-Xorazmiy o’z asarida quyidagicha bayon etgan va yechimini topgan:

- 1) Noma’lum sondan nechta bo’lsa, shuning yarmini olamiz: $8:2=4$;
- 2) Bo’linmaning ikkinchi darajasini olamiz: $4^2=16$;
- 3) Hosil bo’lgan songa ozod hadni qo’shamiz: $16+9=25$;
- 4) Ikkinci darajasi $16+9$ yig’indiga teng bo’lgan sonni topamiz – 5;
- 5) Undan dastlabki natija 4 ni ayiramiz: $5-4=1$;
- 6) Javob: 1

Albatta, tenglamaning ikkinchi ildizi manfiy son Al-Xorazmiy zamonida fanga kiritilmagan edi. Xuddi shuningdek,

$$x^2-5x=6$$

$x^2+6x=7$ Javob: (6;-1) tenglamalarni ham Al-Xorazmiy usuli bilan yechib, o'quvchilarga ko'rsatib berilsa, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi. O'zлari ham shu kabi masalalarni tuzishlari mumkin. Ana shu tushunchalardan so'ng o'quvchilarga kvadrat tenglamaning ildizi tushunchasi berilsa, ya'ni kvadrat tenglamada noma'lumning o'rniga qo'yilgan son tenglamani to'g'ri tenglikka aylantirsa, u son tenglamaning ildizi deyiladi degan ta'rifni sodda qilib tushuntirish mumkin.

Kvadrat tenglamalarni yechishni bir necha usullarini ko'ramiz.

1-usul. Diskriminant usuli:

Misol: $x^2+4x-5=0$

$$D=4^2-4\cdot 1\cdot (-5)=16+20=36$$

$$x_1=-5; \quad x_2=1$$

2-usul. Ko'paytuvchilarga ajratish usuli:

misol. 1) $x^2-3x-270=0$

2) $x^2-3x-4=0$ yechish: $x^2-3x-x+x-4=0; \quad x^2-4x+x-4=0$

$$x(x-4)+(x-4)=0$$

$$(x-4)(x+1)=0$$

$$x-4=0 \text{ dan } x_1=4$$

$$x+1=0 \text{ dan } x_2=-1$$

3) $4x^2-49=0$ misolda qisqa ko'paytirish formulasidan foydalanib:

$$(2x-7)(2x+7)=0$$

$$2x-7=0 \text{ yoki } 2x+7=0$$

$$2x=7 \quad 2x=-7$$

$$x_1=3,5 \quad x_2=-3,5 \quad [3]$$

Xulosa: Kvadrat tenglamalarni va bikvadrat tenglamalarni yechish va uning yordamida masalalar yechish VIII sinf algebra kursida puxta o'rganilsa, albatta, keying matematika bo'lim va boblarini o'rganishga muhim kalit bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturi. “Sharq” 1999 yil.[1]
2. “Algebra” 8-sinf darsligi.[2]
3. M.Ahadova. “O’rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari” kitobi. “O’qituvchi” nashriyoti. 1983 yil.[3]

FIZIKA O‘QITISH METODIKASI KURSINING ASOSIY MAQSADI VA
VAZIFALARI.

*Mohinur Esanova Fozilovna Navoiy
viloyati G’ozg’on shahri 2-maktab fizika
fani o’qitubchisi.*

Annatatsiya: Ushbu maqola fizika o‘qitish metodikasi kursi fizikani o‘rganishning turli bosqichlarida barcha tabiiy fanlarning usqurtmalariga tayanadi. Fizikaning astronomiya va boshqa fanlar bilan aloqasi. Materiya. Modda va maydon. Tabiiy-ilmiy va hayot haqidagi fanlarning tadqiqotlarida fizikaviy metodlarining roli bevosita qarab chiqilishi haqida.

Kalit so’zlar: Fizika kursini bayon etish metodikasi, elektronika, tezlanish vektori.

Kirish: «Fizika o’qitish metodikasi» fanning asosiy vazifalari:

- talabalarning o’rta umum ta’lim va o’rta maxsus ta’lim o’quv yurtlari fizika kursining ilmiy-uslubiy va ruhiyati pedagogik asoslari va mazmuni bilan tanishtirish;
- fizika o’qitishning metodlari va vositalariga oid bilimlar bilan qurollantirish;
- talabalar didaktik materialni ilmiy-uslubiy taxlil silish ?suvarini shakllantirish, o’quv materiali xususiyatlarini e’tiborga olgan holda o’qitish metodini tanlashga o’rgatish, fizikani o’qitish jarayonida o’qsuv tarbiyaviy ishlarini rejalahтирishga o’rgatish;
- talabalarni umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda mikrokalkulyatordan, EHM dan foydalanib, masalalarni algoritmlash darslarini tashkil etish va o’tkazishga tayyorlash.

Fizika kursi asosiy mavzulariga tahlil qilayotganda fizik nazariyalar va qonunlarining metodik mohiyatlarini ochib berish ko’zda tutiladi. Ushbu mumiy

kurs fizika mutaxassisligining yadro fizikasi, optika, yarimutkazgichlar fizikasi, fizikaviy elektronika va boshsa ixtisosliklar bo'yicha bitiruvchi kelgusida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarga mo'ljallanib, ma'ruza, seminar va metodik laboratoriya praktikumi tarzida amalga oshiriladi.

Asosiy qism: Fizika o'qitish metodikasi kursining vazifasi o'quvchilarga ilmiy-texnik progress bilan bog'liq bo'lgan, o'rta umumiy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim maktablarida fizika o'qitish reformasining mazmunini tushuntirish, o'rta umumiy ta'lim va o'rta maxsus ta'limga o'tish munosabati bilan fizika kursining asosiy mazmuni va strukturasini tahlil qilib berishdan iborat.

6-7-sinflarda fizika o'qitish metodikasining asosiy masalalari. 6-7-sinf fizika kursining mazmuni va tuzilishining tahlili. O'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olgan holda fizika o'qitishning bu bosqich o'quv materiallarini o'rganishda muhim fizikaviy nazariyalar rolini kuchaytirish. 6-sinf kursida «Harakat va jismlarning o'zaro ta'siri», «Modda tuzilishi haqida boshlang'ich ma'lumotlar» va «Yorug'lik haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar» mavzularining tahlili va o'rganish metodikasi. 7-sinf fizika kursida 8-sinfda mexanika kursini o'qitish metodikasining asosiy masalalari. 8-sinf fizika kursi mazmuni va strukturasining tahlili. Sanoq sistemasi, siljish, tezlik va tezlanish vektori haqidagi tushunchalarni kiritish metodikasi. Mexanik harakatning nisbiyligi haqidagi masalaning mazmunini yoritish. Kinematika va dinamikada masalalar yechishning koordinat metodi. Massa va kuch tushunchalarini ilmiy-metodik tahlili va mazmunini yoritish metodikasi. Nyutonning harakat qonunlari. O'rta maxsus ta'lim tizimida fizika kursini bayon etish metodikasining asosiy masalalari. Birinchi bosqichda fizika kursida mavjud bo'lim strukturasi va mazmunining tahlili. «Issiqlik hodisalari» va «Molekulyar kinetik nazariya asoslari» mavzularidagi asosiy tushunchalar. Umumlashgan fizikaviy tushunchalarni bayon qilish metodikasi. O'rta maxsus ta'lim tizimida «Elektrodinamika» bo'limini bayon etish metodikasining asosiy masalalari. Ikkinchi bosqichda fizika kursida mavjud bo'lim strukturasi va mazmunining tahlili. Elektr

zaryadi, elektr maydon, maydon kuchlanganligi, potentsiali, potentsiallar farqi, e.yu.k. va kuchlanish haqidagi tushunchalarning ilmiy metodik analizi va shakllantirish metodikasi. «Tokning magnit maydoni» va «Elektromagnit induktsiya» mavzularidagi asosiy tushunchalar. «Elektromagnit tebranishlar. O‘zgaruvchan tok» va «Elektromagnit to‘lqinlar» mavzularidagi asosiy tushunchalar. Geometrik optika, yorug‘likning to‘lqin va kvant xususiyatlarini o‘rganish metodikasi. «Nisbiylik nazariyasi asoslari» va «Atom yadrosi» mavzularidagi asosiy tushunchalar. Fizika o’quv materialini rejalashtirishga qo’yiladigan metodik talablar. Darslarga o’qituvchining tayyorgarligi, reja va konspekt tuzish seminar va anjumanlar o’tkazishni tashkillantirish. Fizika o’qitishda o’quvchilarni mustaqil ishlashga o’rgatish. O’quvchilarning darsda va darsdan tashqari vaqtlarida mustaqil ishlari. Mustaqil ish turlari, ularni tashkil etish turlari. Fizika o’qitish maqsadlari bilan o’quv jaryoni rejalashtirish orasidagi bog’lanish.

Xulosa:Zamonaviy fizika darsning o’ziga xos tomoni va unga qo’yiladigan talab, samarali metodlar asosida ta’lim oluvchilarni o’qitish va tarbiyalash, u o’qituvchidan barcha o’qitish vositalaridan yuksak mahorat bilan foydalangan holda ijodkorlik bilan darsni tashkil etishni ta’lim oluvchilarning ijodiy mustaqilligiga alohida e’tibor haratishni muammoli holatlarni o’qitish jarayonida ko’proq qo’llashni talab etadi. Zamonaviy fizika darslarining tahlili shuni ko’rsatadiki, darslarda ta’lim oluvchilar guruhining faolligiga erishishi bilan bir qatorda, ularning yakka-alohida xususiyatlariga e’tibor haratish ham alohida talab etiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risida” gi qonunihi urghanish
2. Fizikani bosqichli o’qitishning xususiyatlari.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun fizika o’quv dasturlarini tuzish asoslari.
4. O’rta mahsus ta’lim tizimi fizika o’quv dasturlari tahlili.
5. Fizika ta’limida ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish.

6. Fizikani muammoli o'qitish, dasturiy o'qitish.
7. Fizika o'qitishda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish
8. O'quvchilarning darsda va darsdan tashqari vaqtlaridagi mustaqil ishlari.
9. Fizikani o'qitishning laboratoriya praktikum shakli
10. Fizikani o'qitishning mustaqil bilim olish shakli
11. Talabalarning uslubiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish
12. Mutaxassis tayyorlashda mustaqil bilim olishning ahamiyati.

BOSHLANG`ICH SINFLARDA ZAMONAVIY METODLARDAN
FOYDALANISH TENDENSIYALARI

Rasulova Anabibi Ikromovna

Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani 2-son umumta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim ustozи
Tel : +99899 738 34 70

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda fanlarni o'rgatishning turli metodikalari bayon qilinadi. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Innovatsion texnologiyalar yordamida dars mashg'ulotlarini sifatini oshirish taklif qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, darsning mantiqiy strukturasini qurish, mantiqiy fikrlash, mustaqil ish, didaktik materiallar, prezentatsiya.

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda kompyuterli o'qitish – predmetlar muhitini elementlarini o'zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aynan bunday yoshda bolaning aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun fundament yaratiladi. O'quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan²³:

1. o'quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o'quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;

²³ Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste'dod, 2018. – 180 b.

2. mustaqil ishslash va o‘zini-o‘zi nazorat qilish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- 3.darsning samaradorligini va har bir o‘quvchining o‘zlashtirishini *ta’minlaydi*;
4. har bir o‘quvchining fikrlashini, sezish, intilishlarini, tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy optimal rivojlanishga erishiladi; sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi *ta’minlanadi*.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin²⁴.

Kompyuterlarning o‘quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko‘rilmagan darajada o‘qitishning yangi turlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ikkita asosiy masalani yechish bilan bog‘liq: bolalarni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o‘rgatish va o‘quvchilarning o‘qish va o‘qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagoglar oldiga juda katta muammolarni keltirib chiqardi. Chunonchi, zamonaviy pedagog kompyuterdan foydalanishni bilishi, kompyuter yordamida o‘qitish vositalaridan foydalana olish va uni o‘quv jarayoniga tadbiq qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘z bilimini kompyuterli o‘qitish bo‘yicha doimo takomillashtirib borishi va hakozalar zarur. Amaliyotda shuni takidlash joyizki, masalan, 3-sinf matematika darslarida, o‘quv materialini o‘rgatish kompyuterli texnologiya asosida tashkil qilinganda o‘zlashtirish sezilarli darajada yaxshilandi, o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqish ortdi, mustaqil ishslash ko‘nikmasi paydo bo‘ldi, bilimni o‘zlashtirish bo‘yicha imkoniyatlari rivojlandi, ijodiy yondashuvlar

²⁴ Gayullaev N.G, I. Dyrchenko. Razvitie matematicheskix sposobnostey uchashixsy. T.: «O‘qituvchi», 2018

paydo bo ‘la boshladi, o ‘ziga va bilimiga bo ‘lgan ishonch shakllana boshladi.

Ayniqsa boshlang ‘ich mакtabda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonini tashkil qilish dolzarb hisoblanadi. Chunki 1-4 sinf o ‘quvchilarida ko ‘rgazmali-obrazli fikrlash rivojlangan, shu boisdan ham dars jarayonini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib tashkil qilish juda muhim. Buning uchun sifatli ko ‘rgazmali materiallarni maqsadli tarzda juda ko ‘p tayyorlash va undan foydalanish zarur, bilimni qabul qilish jarayoniga yangi ko ‘rinishlarni tadbiq qilish, tovushlar, slaydlar, animatsiyalar bilan.

Boshlang ‘ich mакtabda turli darslarda AKTdan foydalanish o ‘qitishning ko ‘rgazmali-tasvirli-tushuntirish uslubidan faoliyatli uslubga o ‘tishga imkoniyat yaratadi, bunda o ‘quvchi o ‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga, sub ‘ektiga aylanadi. Bu esa o ‘quvchida bilimni anglagan holda o ‘zlashtirishga imkon yaratadi. Shu boisdan ham zamonaviy ta ‘lim tizimida boshlang ‘ich sinflarda kompyuter texnologiyalarini qo ‘llab dars jarayonini tashkil qilish ijodkor, novator pedagoglar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu esa ko ‘pchilik pedagoglarning hayotiy ish normasiga aylanib bormoqda²⁵.

O ‘rganilayotgan fan materiallari, chunonchi, 3-sinf matematikasi orqali tabiat va jamiyatning umumiy qonuniyatları, shuningdek, matematik reallikni bilib olishning o ‘quvchilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini oddiy raqamli, sonli misollar hamda ularga mos izohli matnlar (raqamlar yoki sonlar tilga kirganda uslubida) orqali tushunib olish mumkin. Tavsiya etilayotgan kundalik turmushga oid misollarga mos izohli matnlar slaydlar, animatsiyalar ko ‘rinishida boshlang ‘ich sinflarda dars jarayonida foydalanilganda yoki sinfdan tashqari mashg ‘ulotlar jarayonida o ‘quvchilar tomonidan mustaqil foydalanilganda bilim olish jarayoni yanada samarali bo ‘ladi.

AKT – bu o ‘qituvchi qo ‘lidagi juda quvvatli, ko ‘p qirrali, universal instrumental vosita hisoblanadi, buni egallab olishi va o ‘zining predmeti bo ‘yicha

²⁵ Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O’qituvchi ”2014 yil.

darslarda undan maqsadli foydalanishi zarur.

XULOSA VA MUNOZARA

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida turli darslarni AKT foydalanib tashkil qilish tajribalarini tahlili shundan dalolat beradiki, ya’ni to’liq ishonch bilan aytish mumkinki, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta’lim jarayonini ijobiy motivatsiyalashni ta’minlaydi;
- darslarni yuqori estetik va emotsiyal darajada o’tishni (slaydlar, musiqa, animatsiyalar, multimedialar);
- o‘qitishning yuqori darajadagi differensiyasini ta’minlaydi;
- darsda bajariladigan ish hajmini 1,5 – 2 baravar oshiradi;
- bilimni nazorat qilishni takomillashtiradi;
- o‘quv jarayoni ratsional tashkil qilinadi, darsning samaradorligi ortadi;
- o‘quvchi faoliyatida izlanish, ijod qilish ko‘nikmasi shakllanadi;
- elektron kutubxonalarga, axborot resurslariga, turli-tuman ma’lumotlar tizimiga kirishga imkoniyat yaratadi va hakozo.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2018. – 180 b.
2. Gaybullaev N.G, I. Dyrchenko. Razvitie matematicheskix sposobnostey uchashchixsy. T.: «O‘qituvchi», 2018
3. Habib R.A. O‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish. T.: «O‘qituvchi», 2011
4. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O‘qituvchi ”2014 yil.
5. Azizzxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016.

YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHDA MAKTABNING
O`RNI

Shariyev Orif Fozilovich

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Texnologik ta’lim) ” yo’nalishi

1-kurs magistranti

Razzaqov Davron Niyazovich

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, ilmiy rahbar

Annotatsiya: Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmiga, ma’rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muhtoj bo’lib boraveradi. O’sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo`naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustuvor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o’rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o’qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to’g’ri yo`naltirishdagi maktab psixologi, texnologiya o’qituvchisi, umuman maktab jamoasining vazifalari va prezidentimizning bu boradagi farmoni xususida yoritilgan.

Kalit so`zlar: kasb tanlash, kadrlar tayyorlash, farmon, kasbga yo`naltirish, psixolog, 7-sinflar, uzluksiz tizim, hamkorlik.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog’liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy

yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi²⁶.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Prezidentimizning "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoniga binoan respublikamizda professional ta'limni yanada takomillashtirish masalasida, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlari joriy qilinganligi, ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun sharoitlar yaratish hamda qo'llab-quvvatlash sifatini oshirishni taqazo etdi. Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z-o'zini topishi, kasbiy o'zligini anglashi,jamiyatda o'z o'rmini topishga intilishi va unga qiziqishlari kun sayin ortmoqda. Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, unga shaxs moyilligi, layoqati, va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa,inson uchun mehnat quvonch,ijodiy ilhom manbaiga aylanadi,bu esa inson uchun ham,jamiyat uchun ham foydalidir. Shu o'rinda psixologlarimiz ta'kidlaganidek, insonning o'zi xohlagan kasbni erkin tanlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega.²⁷

Kasbga yo'naltirish-yoshlarni xohish moyilligi va shakllangan qobiliyatlariga yarasha hamda xalq xo'jaligini, umuman jamiyatning mutaxassislarga ehtiyojlarini hisobga olib ishga joylashtirish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan psixologik pedagogik, tibbiy tadbirlar kompleksi. **O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish** – yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik,

²⁶ G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 14-b

²⁷ Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnalni. 2015. №5. 90-93-b.

pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish - texniktadbirlarning asoslangan tizimi hisoblanadi Ta’kidlash joizki, Juhon pedagogik hamjamiyati ishlab chiqarish va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishni o‘rta umumta’limni yangilashning muhim omili sifatida tan oldi.

Maktab o‘quvchilarida kasb-hunar tanlashga ko‘malashishning asosiy maqsadi — umumiyo‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish, o‘quvchilarda kasbiy bilimlarni va motivatsiyani, ijtimoiy hayotdagi kasbiy olamga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish. Maktab amaliyotchi psixologi, sinf rahbarlari va texnologiya fani o‘qituvchisi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishga mas’uldir. Jumladan, maktab psixologining vazifasi quyidagilar:

- o‘quvchilarni kasblar haqidagi fikrlarini kengaytirish, ularni qobiliyat va imkoniyatlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish;
- o‘quvchilarning bilim motivlarini shakllantirish, intellektual va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish hamda ularning kasblar dunyosi haqidagi fikrini kengaytirish;
- o‘quvchilarda kasbga nisbatan o‘z qobiliyatlarini o‘rganishga o‘rgatish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni ma’lumotnoma va ensiklopedik adabiyotlar bilan ishslashga o‘rgatish;
- o‘quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish, psixologik-pedagogik diagnostik metodikalari asosida kasbiy qiziqishi, layoqati, moyilligi va qobiliyatlarini erta yoshdan aniqlash hamda yo‘naltirib borish;
- o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ota-onalarni va keng jamoatchilikni jalb qilgan holda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

O‘quvchilarning kasb-hunarga layoqatini o‘rganish uchun ularning aqliy,jismoniy qobiliyatlarini bilish,malaka va ko‘nikmalarini o‘rganish lozim. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog’liqdir.

Kasb tanlash- jiddiy va mas’uliyatli ishdir. Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o`z qobiliyatlariga yarasha to’g’ri tanlashlariga erishish uchun maktab o’qituvchilarining, psixologningmahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyatlar yuksak bo’lishi, fan asoslarini turmush bilan bog’lab o’rganilishi, to’grak va qo’shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to’g’risida ma’ruzalar o’qilishi, suhbatlar, munozaralar o’qilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko’rgazmali tashkil qilishlari zarur.Mehnat ta’limini turmush bilan bog’lash, uyg’unlashtirish, o’quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatları, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo’naltrishda quyidagilarga e’tibor berish lozim bo’ladi:

-o’quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari,motivlari, ezgu-niyatlari xususan kasb-korga bo’lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash;

-o’quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo’llash;

— kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqligini aniqlab, so’ng kasbga yo’llash kerak;

-ota onalar bilan mustahkam aloqa o’rnatish;

-kasbga yo’naltirish bo’yicha maslahatlar uyushtirish lozim bo’ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O’quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori loyihasi bo‘yicha **quyidagilar yangi tizimni amalga oshirishning asosiy yo’nalishlari etib belgilanadi:**²⁸

²⁸ Maxmudova .D. “O’quvchilarni kasbga yo’naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta minlash”. Xalq ta’limi jurna li. №3 son 57-58 bet

-ichki va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kasblarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash va zarur malakaviy ko‘nikmalarni belgilash;

-umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o‘quvchilarni 7-sinfdan boshlab kasb-hunar egallash va internet tarmog‘i orqali xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan o‘zini o‘zi band qilish yo‘nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o‘quvchilarning ma'lumotlari bazasini yaratish;

-kasb-hunar egallash va frilansingga qiziqishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar ma'lumotlari bazasini umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilari bandligi elektron bazasi bilan integratsiya qilish, onlayn monitoring olib boruvchi axborot tizimini yaratish;

-umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar asosida 9-sinfdan so‘ng kelgusida aniq ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar maktablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish;

-bitiruvchilar uchun tegishli kasblar bo‘yicha o‘quv reja va dasturlar, amaliyotlar o‘tash tartibi, o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va joriy etish;

-umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish ishlarini samarali shakllarini ishlab chiqish va joriy etish;

-umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining 10–11-sinf o‘quvchilariga tanlov fanlari yo‘nalishidagi (variativ) o‘quv reja asosida kasb-hunarga yo‘naltirish;

-manfaatdor vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda hamda tadbirkorlik sub'yeqtłari bilan hamkorlikda kasb-hunar yo‘nalishlari bo‘yicha sertifikatga ega umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish;

-respublika ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda ilg‘or xorijiy tajriba asosida umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltiruvchi va o‘rgatuvchi mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.

Markazning asosiy vazifalaridan biri umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘rgatish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirib borishdir.

Qarorga ko`ra, Xalq ta’limi vazirligi Yoshlar ishlari agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Namangan viloyati va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda tajriba-sinov tariqasida 2 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining foydalanilmayotgan hududida maktab bitiruvchilari uchun Kasbga tayyorlash namunaviy markazlarini tashkil qiladi. Bunda, mazkur markazlar tegishli maktab bitiruvchilarini keljak kasb-hunarlariga o‘rgatish uchun barcha tegishli shart-sharoitlar yaratilishi Yoshlar ishlari agentligining ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi belgilanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘quvchilarning kasb tanlashida avvalo maktabning o‘rni beqiyos. O‘quvchilarning iqtidorini, qiziqishlarini aniqlashda sinf rahbari va texnologik ta’lim o‘qituvchisi eng to`g`ri qarorni qabul qila oladigan shaxslardir. Maktab psixologi esa ularni boshqa taraflardan o`rganib yo`nalish beradi. Bitta shaxsning keljakdagi kasbini to`g`ri tanlashi jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham bugungi kunda bu masala davlatimizning ham diqqat markazida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2015. №5. 90-93-b.
3. Maxmudova .D. “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzlucksizlikni ta minlash”. Xalq ta’limi jurnali.

№3 son 57-58 bet

4. ziyonet.uz

5.<https://choosevoice.ru>

6.<https://arxiv.uz> › diplom-ishlar

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MA'NAVIYATINI VA
NUTHINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN
FOYDALANISH.**

Djumabayeva Dilshat

*Navoiy viloyati Konimex tumani 16-umumiyl
orta ta"lim maktabi boshlang'ich sinf ôqituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakillantirishning nazariy asoslari va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolalarni kitoxonlikga qiziqtirish haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, kitobxonlik, tarbiya, kutubxona, ertak, hikoya, barkamol avlod.

Yoshlarga ta'lif-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o‘ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o‘z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g‘oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farq qilgan. Ta'lif va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asnoda xilma-xil ta'lif-tarbiya tizimlari tarkib topgan. Yangicha qarashlar, ta'minotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo‘lgan. Hali insoniyat yozish-o‘qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta'lif-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy

ta’sir ko‘rsatish darajasiga etgan. Yozish-o‘qish paydo bo‘lgandan keyin ham xalq og‘zaki ijodi o‘z mavqeini yo‘qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta’sirchanligi yanada ortib borgan.[1]Boshlang‘ich ta’lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko‘lамини kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta’lim olishini ta’minkaytiradigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan barcha fanlar, ularning bo‘limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e’tibor bilan tanlanadi. O‘quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o‘sib borishini ta’minkaytiradigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo‘lgan voqeа va hodisalarining mohiyatini anglatuvchi materiallar o‘tiladi.Buning uchun har bir fanning mazxuniga kirgan mavzular mutaxsis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og‘zaki ijodi namunalari ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.Xalq og‘zaki ijodi namunalarining yoshlarga ta’lim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Xalq ommasining turmush kechirish jarayonida to‘plangan ta’lim-tarbiya borasidagi tajribalar va bilimlar yig‘indisi xalq pedagogikasining mazmunini ifodalaydi. Xalq pedagogikasi –mehnatkash xalq va donishmandlarning yoshlarni kutilgan maqsadga muvofiq barkamol kishilar qilib etishtirishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo‘lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta’limtarbiya ishlarini amalga oshirish borasida qo‘llanib kelingan usul, vosita, ko‘nikma va malakalar birligi, tajribalar asosida to‘plangan bilim va ma’lumotlar yig‘indisidir. Ulardan ta’lim jarayonida foydalanish o‘quvchilarni milliy o‘zligini anglashga, mustaqil O‘zbekistonning munosib farzandlari bo‘lishiga katta hissa qo‘shadi.[2] Shu tufayli ham boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning mazmuniga xalq og‘zaki ijodi namunalaridan kiritilib kelinadi.Xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli so‘zlar, afsona va rivoyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, oliyjanob insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi. Bola ular orqali o‘z xalqining o‘timishini, mehnat faoliyatini, orzuhavas va intilishlarini bilib oladi. Xalq

og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, ongli va faol o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari asrlar davomida tajribada sinalgan, hayotda takror-takror qo‘llangan, shubhasiz yaxshi natijalar bergen tushunchalarni aks ettiradi. Bu tushunchalar xalq aql-zakovati va ijodiy mulohazalari bilan sayqallangan, yuksak badiiy qiymat kasb etadigan darajaga yetkaziladi.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi qisqa, aniq ma’no anglatadigan maqollardan, keng qamrovli, bir-biriga ulanib ketadigan dostonlargacha bo‘lgan har xil turdag'i namunalarni o‘z ichiga oladi. Bularning hammasida inson kamoloti, aql-idroki, kuch-qudrati, axloq-odobi, mehnat faoliyati va mahorati talqin qilinadi. Bola kamolotining turli davrlariga mos keladigan, ta’limning har bir bosqichida o‘rganilishi mumkin bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalari mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ri tanlash, xilma-xil metod va usullardan, vosita va shakllardan foydalangan holda o‘rgatish o‘qitishning samaradorligini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy tarbiya berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, ta’lim va tarbiyaning mazmuniga o‘zgartirishlar kiritilayotgan sharoitda bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir.[3]Mustaqil O‘zbekistonning rivojlanish yo‘li negizlari bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, vatanparvarlik hamda milliy tarbiyani amalga oshirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari eng ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Respublikamiz olimlari tomonidan xalq og‘zaki ijodi namunalari va ularni yoshlarga o‘qitish muammosi muntazam o‘rganib kelingan. H.Zarifov, I.Afzalov, M.Alaviya, M.Murodov, G.Jahongirov, T.Mirzaev, M.Obidova, Z.Husainovalarning tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarining turli janrlari, paydo bo‘lishi va taraqqiyot masalalari nazariy jihatdan asoslangan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi turlariga maqollar, ertak va rivoyatlar, qo‘schiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko‘proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb tahlil qilinadi. Lekin ularning ham tarbiyaviy ta’sirini inkor etish

mumkin emas. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari hayotning turli-tuman tomonlarini o‘z ichiga olgan, kishilarning axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va diyonatga, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy ideallar targ‘ib qilingan. Boshlang‘ich sinflarda nisbatan ko‘proq o‘rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog‘liq hamda farq qilinadigan tomonlari bilan ajralib turadi. Xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli yo‘nalishlarini amalga oshirishga mo‘ljallangan bo‘lsa, topishmoqlar ko‘proq yoshlarning aqliy kamololtiga ta’sir etishning vositasi bo‘lib kelgan. Topishmoqlar qandaydir darajada muammoli ta’limga yaqin turadi. O‘quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratish mumkin. Bu fikr keyingi boblarda batafsilroq tahlil etilishi sababli atroflicha to‘xtalmadik.[4]

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanishi mактабнинг, oila va jamoatchilikning ta’siri ostida amalga oshib boradi. Bola kamolotining bu yo‘nalishi uni keljakda qanday inson, mutaxassis, o‘zi va jamiyat uchun zarur hamda foydali bo‘lishini belgilab beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda hech narsani e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bola tarbiyasida “kichik”, “arzimas”, “mayda-chuyda”, degan narsalar bo‘lmasligi kerak. Ana shu arzimas narsalardan keyinchalik “ulkan” muammolar kelib chiqishini doim esda saqlash zarur. Maktabdan tashqarida, bola televizor va kompyuterdan charchaganida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanilsa ham aqliy, ham axloqiy, ham sihat-salomatlik uchun ulkan hissa qo‘sish mumkin ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” T: O’zbekiston ,2017; [1]
2. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti Boshlang’ich ta’lim. Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar. [2]
3. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha Yangi tahrirdagi o’quv dasturi Boshlang’ich ta’lim. Toshkent, 2005. [3]
4. Boshlang’ich ta’lim konsepsiysi Boshlang’ich ta’lim, 1998, 6-son.[4]

BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHNING DOLZARB
MASALALARI

Nargiza Yembergenova Baxitbayevna

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani Xalq ta’limi vazirligiga qarashli
31-sonli umumiy o‘rta ta’lim Boshlang‘ich ta’lim*

ANNOTATSIYA:TRIZ texnologiyasining mazmun-mohiyati; O‘quvchilarda ijodiy fikrlash va ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirishda TRIZ texnologiyasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari; Boshlang‘ich sinflarda ijodkorlikni shakllantirish TRIZ texnologiyasi **KALIT SO‘ZLAR:** TRIZ, ixtirochilik, konsepsiya, tarbiya, yosh avlod, ijodkorlikni rivojlantirish, samarali pedagogik texnologiyalar

Zamonaviy jamiyat yosh avlodning ta’lim tizimiga, shu jumladan uning birinchi bosqichi – boshlang‘ich ta’limga yangi talablarni qo‘ymoqda. Kuchga kirgan davlat ta’lim standartiga binoan boshlang‘ich ta’lim va tarbiya berishning asosiy vazifalaridan biri bu yuqori ijodiy salohiyatga ega yangi avlod bolalarini tarbiyalashdir. Ammo muammo iqtidorli, zukko bolalarni izlashda emas, balki bolalar mакtabga boradigan barcha bolalarda ijodiy qobiliyatlarni maqsadli shakllantirish, dunyoning nostandart ko‘rinishini rivojlantirish, yangi tafakkurda yotadi.

Kichik maktab yoshidagi bola qanday shakllangan bo‘lsa, uning hayoti shunday bo‘ladi. Shuning uchun har bir bolaning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun ushbu davrni o‘tkazib yubormaslik muhimdir. Bolalarning ongi “chuqr hayot tarzi” va narsalar qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi an’anaviy g‘oyalar bilan chegaralanmaydi. Bu ularga ixtiro qilishga, o‘z-o‘zidan va oldindan aytib bo‘lmaydigan bo‘lishga, biz kattalar uzoq vaqt dan beri e’tibor bermagan narsalarni payqashga imkon beradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, an'anaviy ish shakllari ushbu muammoni to‘liq hal qila olmaydi. Yangi shakllar, usullar va texnologiyalardan foydalanish zarur.

Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning samarali pedagogik texnologiyalaridan biri TRIZ - ixtirochi masalalarni yechish nazariyasi. Bu bizning mamlakatimizda 50-yillarda taniqli rus olimi, ixtirochisi, fantast yozuvchi Geynrix Saulovich Altshullerning sa'y-harakatlari bilan paydo bo‘lgan. TRIZ - bu o‘ziga xos g‘oyalarni topish, ijodiy shaxsni rivojlantirish va ijodkorlikka o‘rgatish mumkin va zarurligini isbotlovchi noyob vosita.

TRIZ texnologiyasi maktablariga 1980-yillarda kelgan. Ammo, shunga qaramay, u hozir ham dolzarb va talab qilinadigan pedagogik texnologiya bo‘lib qolmoqda. Kichik maktab yoshidagi bolalarga moslashtirilgan TRIZ texnologiyasi bolani **“Hamma narsada ijodkorlik”** shiori ostida o‘qitishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolaga nisbatan TRIZ konsepsiyasining boshlang‘ich nuqtasi ta’limdagi tabiatga muvofiqlik prinsipidir. Bolaga dars berishda o‘qituvchi uning tabiatidan kelib chiqishi kerak. Boshlang‘ich ta’limda TRIZ texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, bir tomonidan, tafakkurning egiluvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektizm, ikkinchidan, izlanuvchanlik, yangilikka intilish, nutq va ijodiy tasavvurni rivojlantirish kabi fazilatlarni rivojlantirishdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun TRIZ:

Bu asosiy dasturni o‘zgartirish uchun emas, balki uning samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun mo‘ljallangan jamoaviy o‘yinlar, tadbirlar tizimidir;

Bu nazariyaning asoschisi G.S.Altshuller ishonganidek, “yangisini yaratish, aniq hisoblash, mantiq, sezgi bilan uyg‘unlashtirilgan jarayon”.

TRIZ elementlaridan foydalanganda bolalarning ijodiy va aqliy faoliyatni sezilarli darajada faollashadi, chunki TRIZ ularni keng fikr yuritishga, davom etayotgan jarayonlarni tushunib, muammoga o‘z yechimini topishga o‘rgatadi. Ixtiro ijodiy tasavvurda ifodalanadi, keyinchalik bolalar faoliyatining har xil turlari - o‘yin, nutq, san’at va boshqalarda namoyon bo‘ladigan narsalarni ixtiro qiladi.

Kichik maktab yoshdagi bolalarni o‘qitishda TRIZdan foydalanish bolalardan haqiqiy ixtirochilar bo‘lib o‘sishga imkon beradi, ular katta yoshda ixtirochi va yangi g‘oyalarni ishlab chiqaruvchiga aylanadi.

Shuningdek, TRIZ texnologiyasi boshqalarning muvaffaqiyatidan quvonish qobiliyati, yordam berishga intilish, qiyin vaziyatdan chiqish yo‘lini izlash kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi.

TRIZ texnologiyasi bolalarga mustaqil ravishda savollarga javob topish, muammolarni hal qilish, tahlil qilish va kattalar aytgan so‘zlarni takrorlamaslik imkoniyatini beradi.

TRIZ texnologiyasi universal vosita sifatida deyarli barcha faoliyat turlarida (ta’lim jarayonida ham, o‘yinlarda ham, rejim lahzalarida) ishlatilishi mumkin. Bu sizga o‘quvchi ongida dunyoning yagona, uyg‘un, ilmiy asoslangan modelini shakllantirishga imkon beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat yaratiladi, qaror natijalari almashiniladi, bir bolaning qarori boshqasining fikrini faollashtiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi, uning rivojlanishini rag‘batlantiradi. Texnologiya har bir bolaga o‘ziga xosligini ko‘rsatishga imkon beradi, kichik maktab yoshidagi bolalarni tashqaridan o‘ylashga o‘rgatadi.

TRIZ texnologiyasida boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar bilan yaxshi ishlaydigan ko‘plab usullar mavjud. Boshlang‘ich ta’limda quyidagi TRIZ usullari qo‘llaniladi:

Aqliy hujum. Bu ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishga asoslangan muammoni hal qilishning tezkor usuli bo‘lib, unda munozara qatnashchilaridan iloji boricha ko‘proq yechimlarni, shu jumladan hayoliy yechimlarni taklif qilishlari so‘raladi. So‘ngra, bildirilgan fikrlarning umumiyligi sonidan amaliyotda foydalanish mumkin bo‘lgan eng muvaffaqiyatli fikrlar tanlanadi.

Ixtiro vazifalariga bolalar yoshi bo‘yicha kirishlari kerak. Aqliy hujum mavzusi:

- ovqatni sichqonlardan qanday himoya qilish;
- yomg‘irda qanday qilib ho‘llanmaslik kerak;

-sichqonlar uchun mushukning burun ostidan pishloqni qanday olish kerak;
-uyda suv yo‘q bo‘lsa, qanday qilib o‘t o‘chirish mumkin;
Aqliy hujum qoidalarini eslatib o‘tamiz:
-har qanday tanqidni istisno qilish;
-eng ajoyib g‘oyalarni rag‘batlantirish;
-ko‘plab javoblar, takliflar;
-boshqa odamlarning g‘oyalarini takomillashtirish mumkin.

Har bir g‘oya “yaxshi – yomon” reytingiga ko‘ra tahlil qilinadi, ya’ni ushbu taklifdagi narsa yaxshi, ammo yomon narsa. Barcha yechimlarning eng maqbul varianti tanlangan, bu ziddiyatni minimal xarajatlar va yo‘qotishlar bilan hal qilishga imkon beradi.

O‘qituvchi bolalarga muammolarni hal qilishning o‘ziga xos yechimlarini taklif qilishi kerak, bu ularning tasavvurini rag‘batlantirishga va ijodiy faoliyatga qiziqish va istakni uyg‘otishga imkon beradi.

Ushbu usulni amalga oshirish jarayonida bolalarning kommunikativ qobiliyatları rivojlanadi: bahslashish, bir-birini eshitish, tanqiddan qo‘rmasdan o‘z nuqtai nazarini ifoda etish, atrofdagilarning fikrlarini taktika bilan baholash va boshqalar. Ushbu usul bolalarning tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi, muammoning yechimini izlashda ijodiy faollikni rag‘batlantiradi va hayotda umidsiz vaziyatlar yo‘qligini aniq ko‘rsatib beradi.

Katalog usuli. Ushbu usul boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ijodiy hikoya qilishni o‘rgatish muammolarini hal qilishga imkon beradi. Hech kimga sir emaski, ijodiy hikoyalar boshlang‘ich ta’lim yoshdagi bolalarga monolog nutqining kichik tajribasi va faol so‘z boyligining kamligi tufayli qiyinchilik bilan beriladi. Katalog usuli 1920yillarda Berlin universiteti professori E. Kunze tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu usul boshlang‘ich ta’lim yoshdagi bolalar bilan ishslashga muvaffaqiyatli moslashtirildi.

Ish uchun sizga minimal miqdordagi rasmlar bilan har qanday bolalar kitobi kerak bo‘ladi. Matnning prozaik bo‘lishi ma’qul. Voyaga etganlar bolalarga

savollar berishadi, buning asosida uchastka quriladi va bolalar javobni kitobdan qidiradilar, o‘zboshimchalik bilan sahifaning istalgan joyiga barmog‘ini ko‘rsatadilar. So‘zlar juda boshqacha, hech qanday tarzda bir-biri bilan bog‘liq emas. “Yozish” usuli bilan tanlangan so‘zlar hikoya, ertak bilan bog‘langan. O‘qituvchi nutqning ba’zi qismlarini boshqasiga o‘zgartirishi mumkin. Dars tez sur’atlarda, har bir yangi iboraga nisbatan turli xil hissiy reaktsiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Bu erda asosiy narsa savollarni to‘g‘ri shakllantirish va ularni kerakli ketma-ketlikda tartibga solishdir. Savollarni tuzishda ertaklarning tuzilishini qurishning ba’zi umumiy xususiyatlarini hisobga olish kerak:

- ijobiy va salbiy belgilar mavjudligi;
- salbiy qahramon sabab bo‘lgan yovuzlik;
- ijobiy qahramonning yovuzlik bilan kurashi;
- do‘stlar va yordamchilarning ijobiy va salbiy belgilarda mavjudligi, sehrning mavjudligi.

Savollarning ketma-ketligi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Biz kim haqida ertak yozyapmiz?
- U yaxshi yoki yomon qahramonmi? U qanday yaxshi (yomon) ish qildi?
- U kim bilan do‘st edi?
- Ularni kim to‘xtatdi? Qanday qilib?
- Yaxshi qahramon qanday qilib yomonlik bilan kurashgan?
- Qanday tugadi?
- Ertakning taxminiy davomi:
- Kunlarning birida ...

Savollar syujetning rivojlanishiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Bu o‘qituvchidan, mahoratni, dastlab berilmagan yangi savollarni shakllantirish qobiliyatini talab qiladi. Tuzish jarayonida ixtiro qilingan ramzlar, belgilar, diagrammalar, chizmalar va boshqalar yordamida tuzatish kerak. Bolalar birinchi marta qiziqarli, chiroqli hikoya yozishini kutmasliklari kerak. Amaliyot shuni

ko‘rsatadiki, dastlab kichik maktab yoshidagi bolalar uchun psixologik inertsiya va stereotiplarni yengish qiyin: ular bir-birining g‘oyalarini takrorlaydi, tanish ertaklarning voqealarini takrorlaydi, ba’zida ular umuman jim turishadi. Bolalar tomonidan ixtiro qilingan birinchi hikoyalari odatda ibtidoiy, qiziqishsiz va qisqa. O‘qituvchi bolalarga yordam berishi, voqealarni rivojlantirish variantlarini taklif qilishi, muvaffaqiyatli topilmalarni rag‘batlantirishi kerak.

Ixtiroga oid masalalarni yechish nazariyasi yoki TRIZ - texnik muammolarni yechish va texnik tizimlarni takomillashtirish usullarining to‘plamidir.

TRIZ qayerdan kelgan?

1946 yilda muhandis, olim va fantast yozuvchi Geynrix Altshuller Bokuda ixtirochilar tomonidan eng ko‘p ishlatiladigan muammolarni yechish usullarini o‘rganishni boshladi. Hammasi bo‘lib, u 40 ta texnikani ajratib ko‘rsatdi, ularni ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi deb atadi.

U texnik masalani hal qilish savolga hali ham javob bo‘lmagan paytga olib keladi degan xulosaga keldi, ammo ko‘plab variantlar mavjud. Har bir ixtirochi o‘zini shu vaziyatda topadi. Altshuller shuningdek, muammoning eng samarali yechimi sizda mavjud bo‘lgan resurslar (moddiy, vaqtinchalik, fazoviy, insoniy va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi, degan xulosaga keldi. Shunda javob aniq bo‘ladi.

1980-yillarda ushbu nazariya sovet maktablarida o‘qitish metodikasi uchun asos bo‘lib olingan va fabrikalarda qo‘llanilgan. Ammo keyinchalik bu amaliyot unutildi.

1989 yilda xalqaro TRIZ assotsiatsiyasi tashkil etildi.

TRIZ nima?

TRIZ yoki ixtirochi muammolarni yechish nazariyasi - bu ijodiy yondashuvga asoslangan muammolarni yechish va tizimlarni takomillashtirish usullari to‘plami. Ya’ni, bu ijodkorlikni o‘qitishning deyarli yagona tizimli nazariyasi, shuning uchun TRIZ-da muammolarni hal qilishda baholash va yagona to‘g‘ri javob yo‘q.

TRIZning maqsadi: moslashuvchan fikrlash va xayolotni rivojlantirish, murakkab masalalarni nafis va samarali tarzda hal qilish qobiliyati.

Masalan, qanday qilib krossovkalardagi bog‘ichlardan qutulasiz, lekin ularni yopiq tutasiz?

Bitta yechim - bu parchani topish va oyoq kiyimini taglik bilan orqaga qaytarish.

Ikkinchisi - ilgaklarga yoki hatto tugmachalarga tikish.

Uchinchisi - krossovkalar qismlarini lenta, mato parchasi bilan yopishtirish yoki shunchaki Velcro-ga tikish.

Endi biz ushbu aksessuarlarni kundalik hayotimizda bemalol tasavvur qilamiz. 80-yillarga qadar Velcro mavjud emas edi. Uning rolini dulavratorni mevalari o‘ynadi. Shunday qilib, Velcro - shunga o‘xhash muammoni hal qilish jarayonida paydo bo‘lgan ixtiro.

TRIZ ijodiy fikrlashni rivojlantirish usuli sifatida

TRIZ-dan qanday foydalanishni qanday tushunish kerak

TRIZ qisqartmasining dekodlanishi ba’zi bir ixtiro vazifalari mavjudligiga ishora qiladi. Va ular paydo bo‘lganda, nazariyani qo‘llash zarurati boshlanadi.

Ixtiro muammosi - bu ma'lum yoki aniq usullar bilan hal qilinmaydigan muammo. Shuning uchun, hech narsani yo‘qotmasdan g‘alaba qozonishga imkon beradigan ixtiroga ehtiyoj bor.

Ixtiro yo‘lidagi birinchi qadam: formulaning o‘zi samarasiz yechimlarni kesishi uchun muammoni qayta shakllantirish.

TRIZ pedagogikasining g‘oyasi- boy moslashuvchan tizimga ega bo‘lgan ijodiy va ijodiy ixtirochilik muammolarini hal qilishning kuchli qurol-yarog‘iga ega bo‘lgan va munosib hayotiy maqsadga ega bo‘lgan tasavvur.

TRIZ pedagogikasining shiori - “Hamma narsada ijodkorlik!”.

TRIZ dasturining mohiyatini quyidagicha shakllantirish mumkin: qarama-qarshilikni hal qilishga asoslangan ideal natijaga intilish. va turli xil resurslardan

foydalangan holda, atrofdagi dunyoning barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi, u mashg‘ulotlar o‘tkazish.

TRIZ dasturi bolalar bog‘chasiga 1987 yilda bir imkoniyat tufayli kelgan. Seminarlardan birining ishtirokchilaridan TRIZ dasturi bo‘yicha maktab yoshidagi bolalar bilan dars ko‘rsatishni so‘rashdi, ammo ularni xato bilan tayyorgarlik guruhida bolalar bog‘chasiga olib kelishdi. Ushbu tushunmovchilik TRIZ aholisiga kichik maktab yoshidagi bolalarning qobiliyatlarini va kashfiyot muammolarini hal qilishda bolani jalb qilish uchun yangi yoshni “kashf etish” imkonini berdi. Hozirgi vaqtida kichik maktab yoshdagi bolalarda ixtiro, ixtiro qobiliyatları, ijodiy tasavvur va dialektik fikrlashni rivojlantirish uchun bolalar bog‘chalarida TRIZ texnikasi va usullari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

TRIZ texnologiyasi bizga bolalarda tasavvurni rivojlantirishda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda, muammo qo‘yish va echish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi.

TRIZni o‘rganish bolalarga har kim ijodiy fikrlashni

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Umumiyl o‘rtta ta‘limning Davlat ta‘lim standartlari. Boshlang‘ich ta‘lim —Ta‘lim taraqqiyoti jurnali, Toshkent —Sharq, 1999, 7 - soni
2. Levenberg L.Sh. va boshqlar. —Boshlang‘ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi Toshkent —O’qituvchi
3. Bikbaeva N.U. va boshqalar. —Boshlang‘ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi Toshkent —O’qituvchi 1996 yil.
4. Skatkina A.A. —Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.|| Moskva —Prosveshenie.
5. “Inequalites. Theorems, Techniques and Selected problems” (Zdravko Cvetkovski).

**BOSHLANG‘ICH SINFLARNING O‘QUV FAOLIYATINI
INTEGRATSIYALASH TA’LIM SAMARADORLIGI OMILI SIFATIDA
DARSLARNI TASHKIL QILISH**

*Kilichyeva Zamira Kurbanbaevna
Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani 2-
son maktab Boshlang'ich sinf
o'qituvchisi*

Annatatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda fanlararo aloqadorlik ta‘minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashdirishga yordam berishi va integratsiyalash ta’lim samaradorligi omili sifatida darslarni tashkil qilishi haqida.

Kalit so'zlar: Integratsiyaning moxiyati, estetik, gigienik, xuquqiy, predmetlararo munosabatlari.

Kirish: Boshlang'ich sinflarda biz integratsiyaning moxiyatini aniqlash jarayonida uning filosofik, pedagogik — psixologik va metodik asoslarini aniqlab oldik. Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir —biri bilan uzviy bog'liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustivor axamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya ta‘lim jarayonining barcha majmuini o'z ichiga oladi. Zamonaviy intelektual insonni tarbiyalashda integrativ ta‘limning barcha jixatlari(aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mexnat, estetik, gigienik, xuquqiy, jismoniy tarbiya)ni kamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta‘minlaydi.

Asosiy qism: Boshlang'ich sinflarda integrativ ta‘lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat konunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida xar tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini xis qila olish, undan zavqlanish, e‘zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Ta‘limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta‘lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirilishini ta‘minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta‘minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta‘lim sifatiga kuchli ta‘sir ko'rsatib:

- ta‘limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;

Fanlararo aloqadorlik ta‘minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat.

Ta‘lim mazmunida inson va uning dunyoga bo'lgan munosabati: —inson va tabiat, —inson va jamiyat, —inson va inson, —inson va texnika, —tabiat-inson texnika-atrof-muhit muammosi tobora markaziy o'rinnegallamoqda. Tabiatni o'rganuvchi fanlarni bir sinfda bir marta o'rganib bo'lmaydi. Uni bog'cha, maktab, tizimida uzlusiz va uzviylik asosida o'rganmoq zarur. Tabiiy fanlar ta‘limi mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyasini aks ettirmog'i lozim, bu esa tabiiy fanlarga oid bilimlarni sifatjihatdan yangi o'zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o'ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo'nalishlar majmui sifatida namoyon boladi. Ularning tafakkurning tizimli va ehtimolli uslubi sifatida tavsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi. Aynan uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya

biosferani ilmiy bilish, inson faoliyatini o'rganish, tinchlik uchun kurash bo'yicha global masalalarning yechimini topishda tabiiy fanlarning o'rnini samarali tarzda belgilab berish mumkin. Pirovard natijada, bu barcha maktab o_uquv fanlaridagi maxsus bilimlar bilan umumiyl-madaniy bilimlar o'rtasidagi o'zaro nisbatning uzviylik asosida o'zgarishiga (keyingilarining foydasiga) olib keladi.

Xulosa: Shu tariqa, uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarimiz tabiatshunoslik ob'ektlarini «tabiat – fan – texnika – jamiyat – inson» uzviylik tizimida o'rganish tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning yagona metodologik asosi bo_ulib hisoblanishini ko'rsatib berdi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullaeva Q.A., Safarova R.G', Bikbaeva N.U, Baxramov. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim jurnali №6 2010-y.
2. Abdullaeva Q.A, Safarova R.g_, Bikbaeva N.U, Baxramov.
3. Boshlang'ich ta'lim Konsepsiysi. Boshlang'ich ta'lim jurnali № 6-1998y.
4. Abdullaeva q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva «Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
ZAMONAVIY YONDASHUV**

***QURBONBOYEVA QUNDUZ
XORAZM VILOYATI GURLAN TUMANI 42-AFCHO'I
MAKTABINING BOSHLANG'ICH SINF
ØQITUVCHILARI YULDASHEVA DILNOZA VA***

Annatatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'lishi haqida.

Kalit so'zlar: Vaqt taqsimoti, sifat samaradorligi, pedagogik faoliyat, didaktik metodlar.

Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador kontseptsiyasidir. “Boshlang'ich sinflarda talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha

yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta’limga zamonaviy yondashuv ta’lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo’yilgan o’quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang’ich sinflarda ta’lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagog jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. . Bu loyiha amaliyatga o’qituvchi va o’quvchi faoliyatlarining o’zaro tutashuvi tekisligida, o’qitish va o’qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo’lish shakllari yo’q, sababi umumiy holda o’qitish metodi o’zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi”. Boshlang’ich sinflarda ta’lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metodbelgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o’z o’rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv ham darsda o’quvchilar faoliyatining yuqori darajasini ta’minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan, bu faslda hali pedagogik jarayon uchun notanish bo’lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi. Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandard tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujumni” uyushtirish bir muncha sodda bo’lib, undan ta’lim mazmunini o’zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechishni topishda ham juda qo’l keladi. Dastlab guruh yig’iladi va ular oldiga muammo qo’yiladi. Bu muammo yechimi to’g’risida barcha ishtirokchilar o’z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o’zga kishi g’oyalariga hujum qilish yoki baholashga haqqi yo’q.

Boshlang’ich sinflarda “O’qish” darslarida matnlar berilgan bo’lib, shulardan biri “Alisher Navoiy” matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o’xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni “Aqliy hujum” metodi yordamida o’rganish ko’zlagan

maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo’ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Daminov T, Adambekova T. O’yin mashg’ulotlari. Toshkent: 1993-y

MUNDARIJA:

O'QUV JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	4
GEOGRAFIYA FANLARINING O'QITILISHI VA UNDA TABIIY GEOGRAFIYANING O'RNI.....	8
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИНТАКАЛАРИ РИВОЖЛАНИШ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ПАНЕЛ МАЪЛУМОТЛАРИ АСОСИДА ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ВА МОДЕЛЛАШТИРИШ (ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИСОЛИДА)	12
UNIVERSAL VALUE SIGNIFICANCE OF THE CONCEPTS “BEAUTY” AND “UGLINESS”.....	15
PYTHON DASTURINI BULUTLI TEXNOLOGIYA ASOSIDA ISHLOVCHI MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA O'RGATISH METODIKASI	23
ГРАФЛАР НАЗАРИЯСИНИНГ ЭЛЕМЕНТЛАРИ	27
DEVELOPING STUDENTS' VOCABULARY THROUGH INSIDE AND OUTSIDE CLASSROOM LEARNING	31
COMPARATIVE ANALYSIS OF POLITICAL METAPHOROLOGY	39
TIL TARIXI – EL TARIXI	43
O'ZBEK TILI SINTAKSISI VA USLUBIYATI TADQIQOTCHISI	48
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS ON BUSINESS PERFORMANCE	53
FRAZEOLGIK BIRLIKLARNI USLUBIY JIHATDAN FARQLASH MEZONLARI	60
AJDODLARIMIZNING SAN'AT VA MADANIYATGA BO'LGAN QARASHLARI XUSUSIDA	65
TIME AND SETTING IN THE NOVEL “CLOUD ATLAS” BY DAVID MITCHELL	71
SO'Z TURKUMLARI - BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMINING ASOSI.....	76
O'QUVCHILAR ONGIDA "FAZOVIY FIGURALAR" TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH.	82

MASHINA MEXANIZMLAR NAZARIYASI FANI MASALALARIDA IKKINCHI TARTIBLI O’ZGARMAS Koeffisientli oddiy differensial tenglamaning tatbiq etish.....	87
AYRIM NOsimmetrik kriptoalgoritmalarni takomillashтириш. RSA algoritmini parameterlar algebrasи ёрдамида takomillashтириш.....	90
Ochiq chiziqli qavariq to‘plamda polinomial qavariqlik..	96
ИССЛЕДОВАНИЕ НАБИРАЮЩЕЙ СИЛЫ МЕДИАТИЗАЦИИ ОРФОЭПИЧЕСКОГО ЗНАНИЯ	105
TASVIRIY SAN’AT VA CHIZMACHILIK DARSINI TASHKIL ETISHNING O`ZIGA XOSLIGI.....	112
SAVOD O’RGATISH DARSLARIDA KO’RGAZMALIQUROLLARDANFOYDALANISH.	116
MAKTAB O’QUVCHILARINING INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALRI DARSLARIDA ALGORITMIK FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH	120
O’QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI	124
OLIY TA’LIMDA MATEMATIKA FANLARINI O’QITISHDA LOYIHALASHTIRISH METODINI JORIY ETISH	130
ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЯНГИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ	137
NIKONNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH VA UNING OQIBATLARINI QO’LLASH BILAN BOG’LIQ MUNOSABATLAR	140
ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА СПОРТ ШАРТНОМАЛАРИНИ ТАРТИБА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МАСАЛАЛАР	148
QUROQCHILIK SAN’ATINING YEVROPA VA OSIYO DAVLATLARIDA TARQALISH TARIXIDAN.	157
МЕХАНИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ГРУНТА И ПОГНОЗ ЗАКОНОМЕРНОСТИ ВОЗДЕЙСТВИЯ СИЛ НЕГАТИВНОГО ТРЕНИЯ ПО БОКОВОЙ ПОВЕРХНОСТИ СВАИ.....	162
MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG`RIKENGLIK O`ZBEK XALQINING YUksak qadriyatidir.....	168

SIYOSIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT DEMAKRATLASHUVIDAGI O'RNI.....	173
KVADRAT TENGLAMALAR VA UALAR USTIDA AMALLAR.....	176
FIZIKA O'QITISH METODIKASI KURSINING ASOSIY MAQSADI VA VAZIFALARI.....	181
BOSHLANG'ICH SINFLARDА ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI.....	185
YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHDA MAKTABNING O`RNI	189
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MA'NAVIYATINI VA NUTHINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH.	195
BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	200
BOSHLANG'ICH SINFLARNING O'QUV FAOLIYATINI INTEGRATSIYALASH TA'LIM SAMARADORLIGI OMILI SIFATIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH	208
BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV	211

Note!—Pedagogs || articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.

**Editor in chief
Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

**Executive Secretary
Abdurahmonov Boburjon**

**Preparing for publishing
Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li**

— Pedagogs || legal, medical, social, scientific journal, 2022-years. — Rishtan city:
Pedagogs, 2022.